

TARBIYA METODIKALARI

Ilmiy ommabop jurnal

VATANPARVARLIK



2

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA
PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI**



**QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI**

TARBIYA METODIKALARI

2-son

Ilmiy-ommabop jurnal

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

1. Ibraimov X.I. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning muhim poydevori	6
2. Джурраев Р.Х., Уразова М.Б. Психолого-педагогические условия воспитания толерантности у учащихся среднего звена общеобразовательной школы	12
3. Boqiev F.E. O'quvchilar shaxsini shakllantirishda vatanparvarlik g'oyalarining pedagogik ahamiyati	16
4. Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o'quvchilarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari	21
5. Азимова М.Х. Патриотическое воспитание студентов в условиях толерантного сообщества	25
6. Коломиец О.М., Паскевская Н.А. Организация патриотического воспитания обучающихся на основе государственной идеологии	28
7. Рузиева М.Д., Юсупова У.А. Воспитание традиционных семейных ценностей под влиянием народного искусства	33
8. Quronov M., Jumanov Sh. Individual va differensial tarbiyaning xorijiy tendensiyalari	40
9. Jamoldinova O.R. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ziyoratgohlarning o'rni	44
10. Кучкарова Н.Ш. Педагогические особенности патриотического воспитания учащихся на основе применения цифровых технологий	48
11. Musurmanova O.M. Oila farovonligini ta'minlashda qadriyatlardan foydalanish mexanizmi	52
12. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	60
13. Abdug'aniyev O.T. O'quvchilarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	66
14. Akramova Sh.A. Globallashuv davrida maktab o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari	71
15. Alimov M.S. Yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish	79
16. Bazarova G.Z. O'smirlarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda madaniy qadriyatlarning o'rni	82
17. Jabbarov Z.R. Milliy g'urur va vatanparvarlikni rivojlantirishda individual va differensial texnologiyalarning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlari	82

18. Kamoljonova D.X. Milliy kontent vositasida o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda badiiy asarlarning ahamiyati	86
19. Karaboyeva M.Q. O'quvchilarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik hamkorlikning ahamiyati	90
20. Karimov K.A. Yoshlarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – zamon talabi	94
21. Костин А.В. Развитие патриотического воспитания в подготовке военных водителей	97
22. Qaraxonova L.M. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni uzluksiz tashkil etish metodikasi	102
23. Qo'chqorov R.O'. Milliy g'urur, vatanparvarlik tarbiyasida kitobxonlik hamda ijtimoiy fanlarning o'ri va ahamiyati	107
24. Lutfullayev A. Ta'lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasining dolzarb masalalari	114
25. Mavlonqulova M.X. Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning mazmuni va amaliy ahamiyati	117
26. Mamadaliyev A.G'. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish o'ziga xos jihatlari	122
27. Maxmudov A.X. O'quvchi yoshlarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning metodologik jihatlari	126
28. Maxsudjonov O.Z. Jadidlar fidokorligi va uni iqtidorli yoshlarga o'rgatish yo'llari haqida	129
29. Masharipova N.R. Milliy qahramonlarning vatanparvarlik sifatlari vositasida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish	133
30. Медетова Р.М., Курбанов Г.А. Профессиональные аспекты преподавателя как фундамент повышения эффективности патриотического воспитания курсантов	136
31. Mo'minova M.M. Raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish asosida yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash	141
32. Musurmonkulov O.U. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari	147
33. Muxammadjonov X.Z. Raqamli platformalar vositasida kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish asosida yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash	152
34. Nazarov S.M. O'quvchilarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning individual va differentsial texnologiyalari	157
35. Rustamov N.Ch. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – strategik vazifa sifatida	162

36. Safarova R.G. Vatanparvarlik tarbiyasiga oid tarixiy tajribalar	166
37. Tayirova M.A. Multimedia vositalari asosida tashkil etilgan darslarda vatanparvarlik g'oyalarini singdirish texnologiyasi	170
38. Turabova L.X. O'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda individual yondashuvning samaradorligi	175
39. Umaraliyeva M. Inklyuziv ta'limda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishning pedagogik asoslari	179
40. Fayzullayev F.M. O'quvchilarni shaxs sifatida o'zligini anglash kompetensiyalarini shakllantirishda milliy g'urur va vatanparvarlikning o'rni	182
41. Fazilov D.K. Oilaviy qadriyatlarga tayangan holda o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik hissiyotini tarbiyalash	185
42. Xakimova B.M. Ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalari vositasida o'smirlarda vatanparvarlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish	187
43. Choriyeva D.I. Yoshlar ma'naviyati va vatanparvarlik tuyg'usini oshirishda milliy qadriyatlar omili	191

O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – ILMIY- PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING MUHIM POYDEVORI

**Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi
Fanlar Akademiyasi akademigi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Vatan va vatanparvarlik tushunchalarining mohiyati, ularning inson hayotidagi o'rni hamda ma'naviy qadriyatlar tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Asarda Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat, mustaqillik va ozodlik g'oyalari asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Fitrat, Behbudiy kabi allomalarning tarbiya, insonparvarlik va ma'naviyat haqidagi qarashlari keltiriladi. Maqolada vatanparvarlik insonparvarlik, mehr-shafqat, fuqarolik mas'uliyati, bunyodkorlik, ilm va mehnat bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: vatan, vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'naviyat, mustaqillik, tarbiya, yosh avlod, Sharq mutafakkirlari, milliy qadriyatlar, ma'rifat, fuqarolik mas'uliyati, bunyodkorlik, mehr-shafqat.

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi nafaqat ijtimoiy, balki ilmiy-pedagogik jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Vatan taqdiri, xalq farovonligi va davlat taraqqiyoti yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviy qarashlari hamda yurtga sadoqatiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan, har bir ta'lim muassasasida vatanparvarlik tarbiyasini chuqur ilmiy asosda tashkil etish, uni pedagogik tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylantirish zarurdir.

Vatan – xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan aslida arabcha so'z bo'lib, tug'ilib o'sgan yurt ma'nosini anglatadi. Vatan – bu inson va uning avlod ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamin hisoblanadi. Vatan – muqaddas qadriyat.

U insonning kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o'chog'idir. Inson uchun Vatan yagonadir.

Vatan tanlanmaydi. O'zini anglagan borki, inson Vatan kamoloti va istiqboli, yel-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Sho'rolar davrida milliy manfaat, Vatanga, ona zaminga mehr-muhabbat degan his-tuyg'ular asta-sekin so'na boshladi.

Sharqda azaldan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur masalaga to'xtalar ekan, "Agar biz bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanmasak, ularning xulq-atvorini har kuni nazorat qilmasak, bilim bermasak, kasb-hunarga o'rgatmasak, bandligini ta'minlamesak, ularni zararli ta'sirlardan asrash qiyin bo'lishini" alohida ta'kidlaydi.

O'quvchilarni tarbiyalash, ularda o'z Vataniga muhabbat tuyg'usini uyg'otish jamiyat va davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Biz yoshlarning o'z hayotini davom ettirishi, farzandlariga o'z ona Vataniga, uning milliy boyliklariga, qahramonlariga, tarixi va madaniy merosiga muhabbat va hurmat tuyg'ularini singdirishlari uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz kerak.

Mustaqillik tufayli biz o'zimizning haqiqiy Vatanimizni topdik. Bu mustaqillikning bizga bergan eng oliy ne'matidir. Vatani mustaqil xalqning o'zi ham mustaqil bo'ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki o'z qo'lida bo'ladi. Mustaqillik xalqimizda, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik to'yg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb yetdi. Hozirda vatanparvarlik o'zining qanday qirralari bilan namoyon bo'layotir. Vatanparvarlikning mohiyati nimalarda, qanday amaliy ishlar faoliyatida namoyon bo'ladi. Umuman, vatanparvarlik nima, uni qanday tushunmoq kerak, u haqda donishmandlar nima deganlar, quyida ana shular haqida bahs yuritmoqchimiz. Avvalo, hozirgi o'zbek vatanparvarligi ota-bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O'zbekistonga hozir har daqiqada ulush qo'shmoq, Vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning yeri, suvi, yeli bilan chambarchas bog'liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishi va qirrasidir.

Vatanparvarlik deganda, eng avvalo, quyidagilarni anglash joiz:

o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;

qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim yetish;

xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusum

va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom yettirish;

ajoyib vatandoshlar – ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom yettirish, ularga munosib voris bo'lish;

shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;

Turon zaminini himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlar nomini yod yetish;

asrimizning yigirmanchi, o'ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qatag'onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo'lgan minglab millatimiz gullarini unutmaslik;

bu aziz va go'zal Vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

Vatanparvarlik – bu insonning o'z Vatani, xalqining tili, madaniyati, urf-odatlarini va qadriyatlariga chuqur hurmat bilan qarashi, uni asrab-avaylash va rivojlantirishga intilishidir. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – bu ularning shaxsiy mas'uliyati, fuqarolik burchi va ijtimoiy faolligini uyg'otish demakdir. Shuning uchun maktab ta'limida bu yo'nalish nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlar orqali ham izchil yo'lga qo'yilishi lozim.

Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, Vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik, bir so'z bilan aytilganda, o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish: ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir; vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda Vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir.

Vatanparvarlik haqida so'zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in'om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari haqida so'zlamasdan iloj yo'q. Vatanparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin olayotganligi nihoyatda quvonchlidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohi oldida 180 tadan ortiq mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida mag'rur hilpirab turishini ko'rish va his etish naqadar katta baxt, insonni naqadar kuchli bir hissiyotga chulg'ab oladi.

Davlatimiz mukofotlari – “O‘zbekiston qahramoni” oliy unvoni, orden va medallar, faxriy unvonlar ham mamlakatimiz fuqarolarida o‘z Vatanidan g‘ururlanish tuyg‘ularini oshirishga xizmat qiladi. O‘z milliy valyutamiz so‘mimiz ham vatanparvarlik ramzidir. Ikkinchi masalaning bayoni. Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyg‘undir. Vatanparvarlik uchun intilish, vatanparvarlik uchun kurashning zaminida insonparvarlik yotadi. Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma‘no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o‘zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko‘zga tashlanadi.

Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr shafqatida, diyonatda, o‘zaro ko‘maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko‘rinadi.

O‘zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o‘zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanishi, yaxshi qo‘shnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlar insonparvarlik qoyalari bilan sug‘orilgan. O‘zbek xalqi bir umr mehr shafqatli bo‘lgan, barchaga yordam qo‘lini cho‘zgan. Mustaqil O‘zbekiston otliq davlatimizning butun siyosati insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilganligi va uni amaldagi namunasi ekanligi bilan har birimiz har qancha faxrlansak arziydi. Jumhuriyatimiz hokimiyati inson huquqlari va demokratiyaga oid masalalarni maxsus qonun bilan belgilab qo‘yibdi.

Buyuk Arastu shunday yozgan edi: “Ta‘lim baxtda ziynat, musibatda panoh”, “Ta‘lim qarilikning eng yaxshi rizqidir”.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot shunday degan edi: “Ta‘lim – og‘ir ish, uning sharoitini yaxshilash esa, har bir insonning muqaddas burchidir, chunki o‘zini va qo‘shnilarini tarbiyalashdan muhimroq narsa yo‘q”.

Sharq allomalari va mutafakkirlari asarlarida ham yosh avlodni tarbiyalash masalalari yoritilgan. Ular orasida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizuddin ibn Faxriddin, Ahmad Donish va boshqa ko‘plab ijodkorlar bor edi.

Abu Ali ibn Sino o‘zining psixologik-pedagogik qarashlarida bola shaxsini rivojlantirishda insoniy qadriyatlardan foydalanishni targ‘ib qilgan va ota-onalarni o‘z farzandlariga shaxsiy namuna bilan o‘rgatishga undagan. Ibn Sinoning oila va oila masalalari haqidagi qarashlari uning “Tadbiri Manzil” kitobida batafsil bayon etilgan. Bu asarida mutafakkir oilaviy munosabatlarning turli jihatlarini o‘rganadi.

O‘rta Osiyoning taniqli olimlaridan biri Kaykovus o‘zining “Kabusnoma” asarida ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas‘uliyati, bolaning ota-ona

va oila hayoti oldidagi mas'uliyatini batafsil bayon etgan.

Kaykovus kitobining asosiy g'oyasi yoshlarni ota-onasini hurmat qilish va hurmat qilishga undashdir. Mutafakkir: "Farzand dono bo'lsa, ota-ona mehrini ko'rsatishdan bosh tortmaydi", deb ta'kidlagan.

Alisher Navoiy o'zining mashhur "Mahbub-ul qulub" asarida diqqatga sazovordir. Navoiy bu asarida xotin-qizning oiladagi o'rni haqida: "Yaxshi xotin – oilaning boyligi, baxti" deb yozgan.

Ahmad Donish "Navodir-ul voke" asarida iroda kuchi va kasb-hunarning bolalar uchun foydasi haqida yozgan.

Fitrat mas'uliyatni muhim shaxsiy fazilat deb bilgan: "Insonning mas'uliyati uning ongida, qanday tarbiyalanganidan boshlab shakllanadi".

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy taraqqiyotning ma'nosi ham iqtisodiyot, ham ta'lim-tarbiya sohasida har tomonlama barkamol, bilimli fuqaro bo'lib yetishishda, deb hisoblagan.

Atoqli tatar shoiri Muso Jalil shunday deb yozgan edi: "Ta'lim juda muhim masala. Talabalar o'z xalqining tarixini, madaniyatini bilishlari, boshqa xalqlarning an'analari hurmat qilishlari kerak".

O'zbekiston xalqi tomonidan yaratilgan vatanparvarlik tarbiyasi tizimi ko'plab tarixiy davrlarda hamisha avvalgi avlodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy tajribani yetkazishning kuchli vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Respublikamiz aholisining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va davlatimiz ijtimoiy hayotining innovatsion rivojlanishining eng muhim sharti har bir shaxsning fundamental insonparvarlik qadriyatlariga, tarixiy xotirasiga, xalq an'analarga chuqur hurmatga asoslangan ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatidir. Bu shart-sharoitlarni ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biri o'quvchilarni millatlararo tarixiy xotira va insonparvarlik qadriyatlariga, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan vatanparvarlik tarbiyasi tizimini rivojlantirishdir.

O'zbek adabiyotining asoschilaridan biri G'afur G'ulom farzandlarining qanday ulg'ayishini, jamiyatda munosib o'rin topishini ota-ona belgilaydi, deb hisoblagan. U bolalarning o'qishini qattiq nazorat qilish, ularni mehnatga jalb etish, ularni tarbiyalashda xalq pedagogikasining azaliy an'analarga tayanish tarafdori edi. Ota-onalarning xulq-atvori, boshqalarga munosabati, mehnati, farzandiga bo'lgan talabi, qadr-qimmatini hurmat qilishi bola rivojlanishining muhim omillaridandir.

Institut professor-o'qituvchilari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – ta'limda yuksak ma'naviyatni shakllantirish, talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiylashuv o'quvchi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichidir, lekin ijtimoiy faollik shaxslardan belgilangan me'yor va an'analarga rioya qilishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vatanparvarlik tarbiyasi – bu yoshlarni o'z xalqining tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini chuqur bilishga, ajdodlar merosini qadrlashga, yurt ravnaqi uchun mas'uliyat bilan xizmat qilishga o'rgatishdir. Har bir pedagogning vazifasi – yosh avlod qalbiga “Vatan uchun yashash, o'qish va mehnat qilish” g'oyasini singdirish, ularni ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol va Vataniga sadoqatli fuqaro etib tarbiyalashdir.

Adabiyotlar

1. Ibragimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika: Darslik. – T.: SAHHOF, 2023. – 416 b.

2. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования: Учебник для магистрантов. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 240 с.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ВОСПИТАНИЯ
ТОЛЕРАНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ СРЕДНЕГО ЗВЕНА
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Джураев Р.Х., академик АН РУз, заведующий научно-исследовательского отдела “Технологии организации и управления национальным образовательным процессом” Национального института педагогики воспитания, Уразова М.Б., DSc, профессор Национального педагогического университета Узбекистана

Аннотация. В данной статье раскрываются основные механизмы формирования толерантности у учащихся среднего звена общеобразовательной школы: этап социализации, принятия образцов поведения по аналогии с теми взрослыми, которые имеют значение для ученика; возраст ученика среднего звена общеобразовательной школы (от 7-17 лет). Данный возраст становится поиском собственных социальных ролей, формирование самоидентификации; две стадии личностного самоопределения; скачкообразное формирование личностных качеств учеников.

Ключевые слова: психолого-педагогические условия, воспитание, толерантность, учащиеся среднего звена общеобразовательной школы, механизмы

Annotation. This article reveals the main mechanisms of tolerance formation among secondary school students: the stage of socialization, the adoption of behavioral patterns by analogy with those adults who are important to the student; the age of the secondary school student (from 7-17 years). This age becomes a search for one's own social roles, the formation of self-identification; two stages of personal self-determination; the abrupt formation of personal qualities of students.

Key words: psychological and pedagogical conditions, upbringing, tolerance, secondary school students, mechanisms

В мире одной из приоритетных задач системы непрерывного образования является подготовка личности к жизни и деятельности в условиях многонациональной и поликультурной среды, формирование умений осуществлять профессиональное взаимодействие с представителями различных культур, разных национальностей, к пониманию культурных, этнических ценностей и различий, обозначенных в “Декларации принципов толерантности” ООН, где подчеркнуто: “воспитание в духе толерантности следует рассматривать в качестве неотложной важнейшей задачи. Оно

должно способствовать формированию у молодежи независимого мышления, критического осмысления и выработки суждений, основанных на моральных ценностях" [1].

Большие задачи в формировании этих стратегий призвана решать система непрерывного образования Республики Узбекистан, которая способна готовить будущего специалиста к эффективному функционированию в обществе, к выработке таких его важных личностных качеств, как "преданность идее независимости, верность национальным традициям, гуманность и высокая духовность" [3].

Следовательно, с особой остротой встает вопрос развития толерантности у учащихся среднего звена общеобразовательной школы в процессе овладения ими содержанием учебных дисциплин гуманитарного образования, которые способны "воспитать у молодёжи высокую духовность и нравственность, патриотизм и чувство гордости за свою Родину и за свой народ и за его историческое прошлое" [4].

Государственная политика Республики Узбекистан направлена на «обеспечение межнационального согласия и толерантности в обществе, укрепление атмосферы дружбы и чувства единой большой многонациональной семьи, воспитание молодежи в духе любви и преданности Родине, уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, расширение культурно-просветительских связей с зарубежными странами» [4].

Толерантность в этом случае следует рассматривать как одно из необходимых условий эффективной реализации вышеуказанной задачи – воспитание подрастающего поколения в духе любви и преданности Родине.

Важное значение в формировании толерантности и других личностно- значимых качеств учащихся играет их успешная социализация. Данное понятие подразумевает формирование личности человека под воздействием социальных условий, традиций, опыта, которые возникают в данном типе общества и в конкретных условиях. С помощью данного процесса человека приобретает необходимые для его комфортного существования образцы поведения, ценностные ориентации и убеждения.

Механизмы социализации могут быть многообразными, но в школьном возрасте все они играют важную роль в становлении личности. К основным механизмам относятся: ознакомление с особым социальным статусом «учащийся» и присвоение присущих

ему качеств; подражание как механизм присвоения социально значимых ролей и навыков; социальное влияние со стороны значимого ученика-учителя, а также сверстников в лице одноклассников. Таким образом, именно ученический коллектив становится определяющим фактором в формировании как навыков общения, так и принципов и психологических характеристик личности. Доказано, что отдельная личность принимает установленные в трудовом коллективе принципы деятельности, поведения и отношения к миру.

Следовательно, при формировании толерантности у учащихся среднего звена общеобразовательной школы, важно выработать алгоритм работы с данной возрастной и социальной категорией через присущие ей характеристики. В статье мы опираемся на несколько ключевых положений:

1. Школьный период является переходным на пути к становлению взрослой личности. Этот этап социализации, принятия образцов поведения по аналогии с теми взрослыми, которые имеют значение для ученика.

2. Возраст ученика в среднем составляет от 7 до 17 лет, что следует учитывать при работе с ними. Основными характеристиками данного возраста становится поиск собственных социальных ролей, формирование самоидентификации.

3. Развитие личности в процессе его социализации в школе происходит в несколько этапов, которые выделены на основании психологических механизмов и принципов формирования личности. Основными стадиям становления психологических качеств данной категории лиц считаются: стадия личностного самоопределения, характеризующаяся завершением формирования определенного психотипа с присущими ему показателями — волей, характером, мышлением и пр.; стадия выбора модели жизни и поведения в зависимости от конкретной социальной среды.

4. Формирование личностных качеств ученика происходит не равномерно, а скачкообразно, что объясняется возрастными особенностями. После постепенного расширения духовного и интеллектуального горизонтов в период учебы в школе наступает время больших перемен: у студентов расширяется круг общения, увеличивается объем получаемой информации. В результате начинается осуществляться поиск собственного мироощущения и философии жизни. С позиций культурологического подхода такой переход характеризуется как интенсивный процесс формирования

качеств, которые определяли бы человека как «культурного», то есть присвоившего базовые принципы и модели поведения в данных условиях [4; с. 250]. Рассмотренные особенности позволяют сделать вывод о том, что именно в школьном возрасте наиболее эффективно происходят процессы формирования личностных качеств человека, что позволяет говорить о возможности формирования толерантности в полной мере. Данное качество

становится составляющей портрета выпускника школы, а также социально значимым свойством личности.

Таким образом, можно говорить об актуальности выбранного предмета исследования и необходимости формирования толерантности у данной возрастной группы. Для этого следует проанализировать наиболее эффективные механизмы данного процесса, а также условия для формирования названного качества.

Литература

1. Декларация принципов толерантности // Первое сентября. – 2000. – № 6.
2. Новиков М. Основания педагогики. – М.: Эгвес, 2010. – 208 с.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования” от 20 апреля 2017 года.
4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП- 3289 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки педагогических кадров, переподготовки и повышения квалификации работников народного образования” от 26 сентября 2017 года.
5. Ибраимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования. – Т., 2008. – 240 с.
6. Ибраимов Х., Куронов М., Ибрагимова Ф. Педагогика назарияси ва тарихи: Дарслик. – Т.: Sahhof, 2024. – 384 б.
7. Ибраимов Х., Куронов М. Умумий педагогика: Дарслик. – Т.: Sahhof, 2023. – 416 б.
8. Ибраимов Х., Куронов М. ва бошқ. Ота-она мураббий: Ота-оналар учун қўлланма. – Т., 2024. – 247 б.

O'QUVCHILAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Boqiev Farhod Esonovich, Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Anotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident farmonlari, "Kelajak soati" darslari va boshqa tashabbuslarning mazmuni yoritilgan. Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar faoliyatini yoshlar ongiga singdirishning pedagogik usullari hamda xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining tarbiyadagi o'rni ko'rsatib berilgan. Xalqaro tajriba misolida vatanparvarlik tarbiyasining umumiy tamoyillari tahlil qilinib, O'zbekiston ta'lim tizimida uni yanada takomillashtirish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tarbiyasi, umumiy o'rta ta'lim, ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, globallashuv, "Kelajak soati", harbiy-vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, xalqaro tajriba.

Аннотация. В статье проанализированы социально-педагогические особенности патриотического воспитания в общеобразовательных школах. Обосновано, что в условиях глобализации воспитание молодежи в духе преданности Родине, уважения к национальным ценностям и гражданской ответственности является приоритетным направлением государственной политики. Освещено содержание «Стратегии развития Нового Узбекистана», постановлений Кабинета Министров, указов Президента, уроков «Час будущего» и других инициатив. Показаны педагогические методы внедрения в сознание молодежи деятельности таких исторических личностей, как Амир Темур и Джалолиддин Мангуберди, а также роль устного народного творчества, национальных ценностей и современных информационно-коммуникационных средств в воспитательном процессе. На основе международного опыта проанализированы общие принципы патриотического воспитания и предложены пути его дальнейшего совершенствования в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, общее среднее образование, социально-педагогические особенности, национальные ценности, гражданская ответственность, глобализация, «Час будущего», военно-патриотическое воспитание, воспитание молодежи, международный опыт.

Abstract. The article analyzes the socio-pedagogical features of patriotic education in general secondary schools. It is substantiated that in the context of globalization, educating young people in the spirit of loyalty to the Motherland, respect for national values, and civic responsibility is a priority direction of state policy. The content of the "New Uzbekistan Development Strategy," decisions of the Cabinet of Ministers, presidential decrees, "Hour of the Future" lessons, and other initiatives is highlighted. Pedagogical methods of instilling in the consciousness of youth the activities of historical figures such as Amir Temur and Jaloliddin Manguberdi are presented, along with the role of oral folk art, national values, and modern information and communication tools in the educational process. Based on international experience, the general principles of patriotic education are analyzed, and ways of further improving it within Uzbekistan's education system are proposed.

Key words: patriotic education, general secondary education, socio-pedagogical features, national values, civic responsibility, globalization, "Hour of the Future," military-patriotic education, youth upbringing, international experience.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Vatanparvarlik tuyg'usi shaxsning nafaqat shaxsiy ma'naviy qiyofasini belgilaydi, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning 91-maqсадida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish vazifasi belgilab qo'yilgan. Shu maqsadda, 2023-yil 29-iyunda Vazirlar Mahkamasining 267-son qarori qabul qilinib, "2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Mazkur ishimizda yoshlar qalbida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda Amir Temur va Jaloliddin

Manguberdi faoliyatini yoshlarga singdirishning turli texnologiyalari kompleks tarzda ko'rib chiqildi. Zero, globallashuv jarayonida ulg'ayayotgan yoshlar "Z" avlod deb atalmoqda. Shu bois ularga buyuk sarkardalarning vatanparvarlik haqidagi g'oyalarini yetkazishda zamonaviy targ'ibot usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, pedagogika doimiy yangilanishda bo'lib, uni qat'iy andoza yoki doimiy me'yorlar asosida rivojlantirib bo'lmaydi. Aksincha, u har doim yangicha qarash va yondashuvlarni o'zida mujassam etadi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi milliy g'oya targ'ibotida qo'llanilayotgan texnologiyalarning asosiy vazifasi – targ'ibot samaradorligini oshirish, uning tezkorligi va texnik ta'minotini kuchaytirish, shuningdek, bu boradagi amaliy tadqiqotlarning yo'nalishini belgilab berishdan iboratdir.

Zero, insonning bu dunyodagi eng ulug', ezgu va muqaddas burchi, avvalo, o'z oilasini, Vatani va xalqini munosib tarzda himoya qilishdir. Shu munosabat bilan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 64-moddasida ham "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir", – deb belgilab qo'yilgani bejiz emas. Bu talab, bir tomondan, har bir fuqaroning yurt oldidagi mas'uliyatini yodga solsa, ikkinchi tomondan, milliy g'oya va tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik va axborot texnologiyalarining naqadar dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, jonajon Vatanimiz – Yangi O'zbekistonning keng imkoniyatlari haqida qancha gapirsak ham, bu yetarli bo'lmaydi. Hayotimizga beqiyos mazmun va ma'no baxsh etayotgan ushbu bebaho ne'matlarning qadriga yetish, ularga shukronalik bildirish va ularni asrab-avaylash barchamizning muqaddas vazifamizdir. Shu bilan birga, har bir davlatning mustaqilligi, xavfsizligi, chegaralarining daxlsizligi va osoyishtaligini ta'minlash esa, avvalo, uning Qurolli Kuchlari zimmasiga yuklangan bo'lsa-da, bu yo'lda har bir fuqaroning yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil "25"-avgustdagi 308-son buyrug'iga asosan, Maktabimizda har dushanba birinchi soatda "Kelajak soati" darslari ham tashkil etiladi.

"Kelajak soati" darslari – bu umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, eng muhimi – yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, Vatanga fidoyi shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan maxsus ta'limiy-ma'naviy mashg'ulotlardir.

Ushbu darslarning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarni kelajakka tayyorlash. O'quvchilarda kelajak kasblari, innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan taraqqiyotidagi yangiliklar haqida tushuncha berish. Ularni yangi davr talablari asosida raqobatbardosh kadr bo'lishga ruhlantirish.

2. Vatanparvarlik va fuqarolik tuyg'ularini shakllantirish. "Kelajak soati" mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda milliy g'urur, ona Vatanga muhabbat va sadoqatni kuchaytirish. Ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undash.

3. Ijtimoiy-ma'naviy tarbiya berish. Yoshlarni sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyat, inson huquqlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash. Ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmagan, ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllantirish.

4. Innovatsion tafakkurni rivojlantirish. O'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish. Ularni yangi g'oyalar ishlab chiqishga, loyihalar yaratishga jalb qilish.

5. Milliy g'oya va qadriyatlarni singdirish. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, tarixiy jasorati, milliy urf-odatlarimiz orqali yoshlarni ma'naviy barkamollikka yetaklash. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, davlat ramzlari va mustaqillik qadriyatlarini chuqur anglatish.

"Kelajak soati" darslarini tashkil etishning bosh maqsadi – o'quvchilarni zamonaviy bilim, innovatsion tafakkur, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik asosida kelajakka tayyorlash, ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu faqatgina dars emas, balki o'quvchilarimizning buyuk maqsadlar sari yo'naltirilgan qadamlari uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yurtimiz kelajagi yoshlar qo'lida. Ularning qalbi va ongida Vatanga muhabbat, sadoqat va mas'uliyat tuyg'usi qancha kuchli bo'lsa, yurtimiz taraqqiyoti ham shuncha barqaror bo'ladi". Bu fikr o'z-o'zidan ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Tarixiy faktlarga murojaat qilar ekanmiz, o'zbek xalqining ma'naviy merosida vatanparvarlik doimo markaziy o'rinda turganini ko'ramiz. Masalan, Jaloliddin Manguberding mo'g'ullarga qarshi olib borgan kurashi, Temur Malikning Xo'jand qal'asini himoya qilishdagi jasorati, Amir Temurning "Temur tuzuklari"da davlat va xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish haqidagi qarashlari yoshlar uchun ibrat maktabidir. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida – "Alpomish" dostoni, maqollar, qo'shiqlarda ham Vatan sha'ni va xalq manfaatini himoya

qilish g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining yoshlar ongiga ta'siri juda kuchayganini inobatga olish lozim. Shuning uchun yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ularni Vatanga mehr-muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan mazmunli, badiiy jihatdan yuksak va vatanparvarlik g'oyalari bilan boyitilgan kontentlarni ishlab chiqish va keng targ'ib qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Masalan, tarixiy qahramonlarimizning hayoti va jasoratini aks ettiruvchi hujjatli va badiiy filmlar, zamonaviy vloglar, teatr sahnalari va ijtimoiy loyihalar orqali yoshlar qalbida milliy g'urur uyg'otish mumkin. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar oson qabul qiladigan vizual materiallar (videoroliklar, infografikalar, podkastlar)ni yaratish ham samarali yo'ldir. Bu nafaqat yoshlarni yot mafkuralardan asrash, balki ularning milliy o'zlikni anglash darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ta'lim muassasalarining vazifasi bilangina chegaralanmasdan, keng ijtimoiy hamkorlik asosida olib borilishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanilishi lozim. Bu yondashuv yoshlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishi, kelajakda Vatanga sodiq, ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat ta'lim jarayonining ajralmas qismi, balki jamiyat taraqqiyoti va davlat mustaqilligini mustahkamlashning muhim omilidir. Yosh avlod qalbida milliy g'ururni shakllantirish, ularni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish va globallashuv davrida mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T., 2022.
2. Saidov A. Milliy g'oya va ma'naviy merosga asoslangan ta'lim tizimi. – T.: Ma'naviyat, 2015.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Rasulov R. Pedagogik texnologiyalar va tarbiya jarayoni. – T.: Fan, 2019.
5. Xalqaro ta'lim tajribasidan materiallar. – UNESCO Education Reports, 2021.

GENDER YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna, Tarbiya pedagogikasi milliy
instituti direktorning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat bilim sifati, balki tarbiyaning samaradorligini oshirishni ham maqsad qilgan. Bu jarayonda yosh avlodda milliy g'urur, Vatanga muhabbat, xalqimiz tarixi va qadriyatlariga hurmat tuyg'usini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan. Ayniqsa, ta'limdagi gender yondashuvni hisobga olgan holda tarbiyaviy maqsadlarga erishish dolzarb masalaga aylandi.

Gender yondashuv – bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning jinsiy, psixologik, ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olib, ularning rivojlanishiga mos tarzda metod va vositalarni qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu maqolada gender yondashuvni hisobga olgan holda o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan didaktik imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Gender – shaxsning jamiyatdagi roli, o'zi va boshqalar tomonidan qabul qilinishi bilan bog'liq ijtimoiy-farqli xususiyatlarni anglatadi. Ta'lim tizimida gender yondashuv degani, qizlar va o'g'il bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini, ruhiy-emotsional ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyani tashkil etish demakdir. Gender tengligi, ayniqsa, tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali har ikki jins vakilida ham vatanparvarlik, jamiyat oldidagi mas'uliyat, milliy faxr tuyg'usi teng darajada rivojlantiriladi. Shu bilan birga, ta'limda mavjud gender stereotiplarining oldini olishga ham e'tibor qaratiladi.

Milliy g'urur – bu shaxsning o'z millati, tili, tarixi, madaniyati va buyuk shaxslaridan faxrlanish tuyg'usidir. Vatanparvarlik esa Vatanga muhabbat, unga xizmat qilish istagi va tayyorligi, uni himoya qilish mas'uliyatidir. Ta'limda bu qadriyatlarni shakllantirish uchun: milliy qahramonlar hayotini o'rganish, tarixiy voqealarni tahlil qilish, madaniy merosni anglash va qadrlash, ijtimoiy faollikni oshirish kerak. Bu tuyg'ularni shakllantirishda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlash tarbiya samaradorligini oshiradi.

Gender yondashuv asosida milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishda ta'limning didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

a) Darslik va materiallarni tanlashda gender muvozanatini saqlash. Darsliklarda va o'quv materiallarida har ikki jins vakillari faol, mas'uliyatli, vatanparvar shaxslar sifatida namoyon bo'lishi lozim. Masalan, tarix darslarida faqat erkak qahramonlarni emas, ayol qahramonlarning ham faoliyati yoritilishi lozim.

b) Dars jarayonida faol metodlarni qo'llash:

rolli o'yinlar – tarixiy voqealarni jonlantirish orqali o'quvchilar milliy hislarni boshdan kechiradilar;

esse yozish – “Men uchun Vatan”, “Milliy iftixorim” kabi mavzularda shaxsiy fikrlar orqali shaxsiy munosabat shakllanadi;

debatlar – turli qarashlarni muhokama qilish orqali ijtimoiy faollik rivojlanadi;

dadqiqot loyihalari – “Mahallamiz qahramonlari”, “Oilam tarixida vatanparvarlik” kabi loyihalar.

v) Genderga mos individual va guruhli ish shakllari. Qizlar ko'proq ijodiy, hissiy, mulohazali ishlarda faol bo'lsa, o'g'il bolalarda tashabbuskorlik, rahbarlik va harakatga moyillik yuqori bo'lishi mumkin. Bu omillarni hisobga olgan holda dars rejalashtirish tarbiyaviy maqsadlarga tezroq erishish imkonini beradi.

O'quvchilarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fanlararo integratsiyadan foydalanish xam samara beradi.

Tarix darsida qahramon ayollar va erkaklar faoliyatini teng yoritish, o'quvchilarni milliy shaxslar bilan tanishtirishda jinsiy mutanosiblikni saqlash; Adabiyot va ona tili darslarida turli yozuvchilar, shoirlar, ayol va erkak qahramonlar orqali milliy ifoda va faxrni anglatish; esse va ijodiy yozish orqali shaxsiy munosabat shakllantirish; Huquq va jamiyatshunoslik darslarida fuqarolik burchi, Vatanga sadoqat, jamiyatdagi jinsiy tenglik masalalarini qamrab olish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarda yuqori iqtidorli o'quvchilar ta'lim oladi. Ularda gender yondashuvga asoslangan tarbiya dasturlari orqali vatanparvarlik ruhini shakllantirishda quyidagi imkoniyatlar mavjud: mentorlik tizimi orqali shaxsiy yondashuv; genderga xos qiziqishlarni hisobga olgan klublar; milliy bayramlar va tadbirlarda o'g'il va qiz o'quvchilarning teng ishtiroki; ijtimoiy loyihalar orqali milliy qadriyatlarining targ'ibi kabilar.

Gender yondashuv va milliy tarbiya yo'nalishidagi jahon tajribasida kuzatiladigan muammolar quyidagilar bilan izohlanadi.

a) Gender stereotiplari ta'lim mazmunidagi aks etishi. Ko'pgina mamlakatlarda o'quv dasturlari va darsliklarda ayollar va erkaklar roli nomuvofiq aks etadi. Masalan, ayollar ko'proq uy ishlari, oilaviy vazifalar

bilan bog'langan holda ko'rsatiladi, erkaklar esa, rahbarlik, qahramonlik va intellektual faollikda. Natija: Qizlar o'zlarini milliy-ijtimoiy jarayonlarda kamroq qatnashuvchi sifatida qabul qila boshlaydi. Bu vatanparvarlik va faol fuqarolik tuyg'usini pasaytiradi.

b) Ta'limda gender bo'yicha noaniq yondashuvlar. Ayrim davlatlarda gender masalasiga umuman e'tibor berilmaydi, ta'lim barcha uchun "neytral" deb qaraladi. Ammo bu yondashuv aslida jinsiy farqlarni inkor etadi va individual ehtiyojlarni inobatga olmaydi.

v) Milliy qadriyatlar va gender tengligi o'rtasidagi ziddiyatlar

Jahonda ayrim jamiyatlarda milliy qadriyatlar nomidan gender tengligi cheklanadi. Masalan, qizlar ma'lum turdagi ta'limdan chetlashtiriladi yoki faoliyatda ishtirok etishiga to'sqinlik qilinadi. Bu esa, milliy g'ururni teng rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistondagi amaldagi muammolar

a) Gender tengligi konsepsiyasining ta'limda to'liq integratsiyalanmagani. Hozirda O'zbekiston ta'lim tizimida gender tengligi va gender yondashuv asosida ishlash yuzasidan muayyan dasturlar mavjud bo'lsa-da, ularni umumiy o'quv jarayoniga to'liq joriy etishda muammolar saqlanib qolmoqda. Masalan: Darsliklarda ayollar kam ko'rsatilgan; Qiz bolalarning siyosiy va ijtimoiy faol shaxslar sifatida rollari kam yoritilgan; O'qituvchilarning aksariyati gender pedagogikasi bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega emas.

b) Tarbiyaviy tadbirlarda bir jinsga ortiqcha e'tibor qaratilishi. Ko'p hollarda vatanparvarlik tadbirlari faqat o'g'il bolalar uchun mo'ljallanganday tuyuladi. Masalan, "jasorat", "himoyachi", "askar" kabi timsollar ko'proq o'g'il bolalarga qaratiladi. Qizlar esa ko'proq "iflat", "najotkor oila a'zosi" kabi passiv obrazlarda aks etadi.

v) Ota-ona va jamiyatdagi qadriyatlar bilan qarama-qarshilik. Gender tengligi va milliy g'ururni uyg'un tarzda berish uchun jamiyat ongida o'zgarishlar zarur. Ba'zi ota-onalar milliy tarbiya nomidan qizlarning mustaqil qaror qabul qilishiga yoki ijtimoiy faollikka qarshi chiqishi mumkin.

Jahon tajribasidan o'rganish mumkin bo'lgan ijobiy yo'nalishlar. Finlyandiya: Genderga oid ma'lumotlar darsliklarga to'liq integratsiya qilingan. Qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida teng faollik va mas'uliyat prinsiplari o'quv jarayonida ustuvor. Milliy tarix va madaniyatda har ikki jinsning hissasi teng aks ettiriladi.

Kanada: Maktablarda "Gender Inclusive Curriculum" joriy qilingan. Milliy faxr va fuqarolik tarbiyasida jinsdan qat'i nazar, barcha bolalar teng imkoniyatlarga ega. Vatanparvarlik va fuqarolik burchi masalalari har ikki

jins uchun teng talablar asosida o'rgatiladi.

Yaponiya: Tarbiya dasturlarida qizlar va o'g'il bolalarning roli sinfda va maktab hayotida aniq taqsimlanmaydi. Hamma faoliyatda barcha ishtirok etadi. Milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy gender yondashuv birlashtirilgan.

Milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirish nafaqat tarixiy-ma'naviy zarurat, balki milliy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlikning asosidir. Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim sifati yuqori bo'lgani kabi, tarbiya tizimi ham zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan va innovatsion bo'lishi kerak.

ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ТОЛЕРАНТНОГО СООБЩЕСТВА

Азимова Машхурахон Ходжиевна, заведующая кафедрой
Государственного образовательного учреждения «Ходжандский
государственный университет имени академика Бабажана
Гафурова», кандидат педагогических наук, доцент

Важнейшим условием социально-экономического благополучия населения республики, инновационного развития ведущих сфер экономики и социальной жизни нашего государства является социальная активность и гражданская ответственность каждой личности, основанные на фундаментальных гуманистических ценностях, исторической памяти и глубоком уважении к народным традициям.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Yoshlarni milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda va ziyoratgohlar haqida bilim berishda sun'iy intellektni qo'llash katta imkoniyatlarni ochib beradi. Sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari sifatida qo'yidagilarni ko'rish mumkin:

1. Interaktiv virtual ekskursiyalar (3D/VR)

Ziyoratgohlarni sun'iy intellekt asosida modellashtirish orqali yoshlarga uyda yoki auditoriyada o'tirgan holda Qo'qondagi ziyoratgohlarga "safar qilish" imkoni yaratiladi. Masalan, ziyoratgohni 3D formatda ko'rish, tarix haqida audio-ta'rif eshitish mumkin.

2. AI-gid yordamida ma'lumot taqdim etish. Sun'iy intellektga asoslangan audio yoki chat-botlar orqali ziyoratgoh haqida yoshlar savollar berib, interaktiv ma'lumot olishlari mumkin. Bu ularda qiziqishni kuchaytiradi va bilimni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

2. Mashinali tarjimalar va multimediya content.

Ziyoratgohlar haqidagi ma'lumotlarni turli tillarda (ayniqsa, o'zbek, rus va ingliz tillarida) AI yordamida tarjima qilish orqali xorijiy yoshlar va sayyohlar uchun ham milliy merosni keng targ'ib qilish mumkin.

3. AI asosida ta'lim platformalarida integratsiya.

Masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom va h.k.) bilan integratsiya qilingan holda, AI yordamida: ziyoratga oid testlar tuzish, yoshlarning qiziqish darajasini aniqlash, avtomatik taqriz va baholash imkoni mavjud.

5. Foydali tavsiyalar tizimi. Yoshlarning qiziqishlariga qarab sun'iy intellekt ularga qanday ziyoratgohlarga borish, qaysi tarixiy shaxslar haqida ko'proq o'qish kerakligi bo'yicha tavsiyalar bera oladi. Sun'iy intellekt vositalaridan

foydalanish, ziyorat va ma'naviy tarbiyani zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Bu esa, yosh avlodda nafaqat vatanga muhabbat, balki yangi texnologiyalarga ochiqlik, zamonaviy dunyoqarashni ham shakllantiradi. Ziyoratgohlar faqat diniy joylar bo'libgina qolmasdan, milliy o'zlikni tiklash, vatanga sadoqatli, tarixiy xotiraga hurmat bilan qaraydigan yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ziyoratgohlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish – bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2023.
2. Мамадалиев Ш. Миллий ғоя ва мафкура. – Т.: Tafakkur-Bo'stoni, 2019.
3. Содиқов А. Зиёрат ва маънавият. – Т.: Ислом цивилизацияси маркази нашриёти, 2022.
4. Юсуфов А.Ҳ. Маънавият асослари. – Т.: Маънавият, 2020
5. Қўқон шаҳри тарихи ва меъморий ёдгорликлари. – Т.: Фан, 2015.
6. Ғафуров А. Маънавият ва ватанпарварлик. – Т.: Маънавият, 2018.
7. www.ziyorat.uz
8. www.lex.uz

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Кучкарова Наргиза Шарифжановна, самостоятельный исследователь
Национального института педагогики воспитания

Аннотация. В статье раскрыты педагогические особенности развития учебной мотивации у будущих учителей английского языка.

Ключевые слова: учебная мотивация, образование, обучение, воспитание, развитие, будущий учитель, педагогические особенности.

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim motivatsiyasi, ta'lim, o'qitish, tarbiya, rivojlanish, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik xususiyatlar.

Abstract. The article reveals the pedagogical features of the development of learning motivation in future English teachers.

Key words: educational motivation, education, training, upbringing, development, future teacher, pedagogical features.

За последние годы кардинально изменился цифровой мир, который стал неотъемлемой частью жизни большинства людей, особенно, молодежи. Трудно сегодня представить подростка без гаджета в руках, посредством которого он осуществляет коммуникацию со сверстниками и другими людьми, получает различную информацию, решает бытовые вопросы. Тот факт, что интернет – пространство служит платформой для социализации молодого поколения, требует включения этого феномена культуры в сферу внимания специалистов по работе с молодежью и наполнения его воспитательным компонентом.

Важной составляющей образовательного процесса является патриотическое воспитание граждан. Одновременно с этим важно отметить, что сегодня уже достаточно активно идет процесс создания отвечающих времени методик применения информационных технологий в гражданском и патриотическом воспитании школьников.

Патриотическое воспитание мы определяем сущностной стороной феномена, выражающейся в потребности у учащихся сознания своей принадлежности к многонациональной стране с богатейшей

культурой и героическим историческим прошлым, готовностью встать на защиту ее интересов. Кроме того, если учитывать план мероприятий по реализации Стратегии развития воспитания, то становится ясно, что одним из ключевых направлений работы является развитие информационных механизмов в области воспитания. Патриотическое воспитание в контексте цифровизации также не является исключением. Создание различных образовательных онлайн-платформ позволяет не только удовлетворять потребности участников образовательного процесса в получении учебных знаний, но и осуществлять воспитательную функцию. Цифровые технологии в аспекте патриотического воспитания сегодня обрели особую актуальность, гибкость, параллельность, модульность и др.).

К возможностям цифровых технологий в сфере воспитания можно отнести следующие: оперативно получать доступ к искомой информации; быть на связи со значимым взрослым и товарищами; самореализация и самоактуализация; онлайн-участие в социально значимой деятельности.

Исследователи Н.Р.Кутявин и Е.В.Зверева справедливо считают, что социальные сети, в первую очередь, надо рассматривать как самый востребованный ресурс среди молодежи. Медиакультура молодежи как «интенсивный информационный поток», проецирующийся на все аспекты формирования личности: нравственный, психологический и социальный.

Ученые видят эффективность повышения медиакультуры через медиаобразование; здесь важно участие любой организации, взаимодействующей с молодежью.

Результатом использования таких практик должно стать включение студенчества в создание позитивного контента для подростков, наполнение воспитательным потенциалом публичных площадок и страниц Интернета.

Современные процессы, происходящие в мире, требуют от преподавателя высшего образовательного учреждения демонстрирования твердой гражданской позиции, а также консолидации преподавательского и студенческого сообществ. Решая учебные задачи в рамках своей дисциплины, преподаватель вместе со студентами – будущими учителями по работе с молодежью – должен быть готов к открытию новых воспитательных техник для применения их в цифровой среде. Заметный рост исследований ученых в области воздействия интернет-медиа на молодежь

подтверждает актуальность темы цифровых технологий и в контексте патриотического воспитания.

Учитывая стремительность развития технологий и все возрастающее их использование детьми и молодежью, эта тема нуждается в дальнейшем изучении и поиске форм работы, адаптированных к особенностям и потребностям современного молодого поколения.

Результаты опроса показывают, что большая часть опрошенных (67%) использует социальные сети для получения информации о патриотическом воспитании. Кроме того, популярными являются видеоплатформы (39%). Это говорит о том, что студенты предпочитают получать информацию о патриотическом воспитании через социальные сети и видеоплатформы. Так, студенты выделили несколько форм цифровых технологий, которые могут быть эффективными для патриотического воспитания, интерактивные игры и квесты, виртуальные экскурсии и туры, социальные проекты и акции, онлайн-лекции и семинары. Это указывает на разнообразие форм цифровых технологий, которые могут быть использованы для патриотического воспитания.

Рассматривая патриотизм в широком смысле, можно сделать вывод о том, что это не только любовь к Родине, служение своей стране и уважение традиций; патриотизм – это и любовь к семье, забота о людях, требование к самому себе как ответственному гражданину, постоянное стремление к саморазвитию и познанию мира в целом. В период своего обучения в вузе студенты постоянно обращаются к цифровым технологиям при подготовке домашнего задания. Процесс обучения становится деятельностным, увлекательным и полезным, если преподавателем осуществляется поиск новых идей применения цифровых технологий на занятиях, а также поощряется проявление инициативы со стороны студентов.

Студенты получили задание подготовить для школьников подкасты на различную тематику с обязательным воспитательным содержанием. Работа проходила поэтапно и требовала полного включения и заинтересованности.

На этапе планирования студенты выбирали наиболее интересную для них тему, затем разрабатывали сценарий, готовили тексты, придумывали форму подачи и место записи, определяли свою целевую аудиторию. После окончательного завершения всех видов работ и внесения правок подкаст записывался и публиковался на онлайн-странице сообщества для оценивания и дальнейшего

распространения. Анализируя результаты своей работы, обучающиеся пришли к выводу о том, что подкасты обладают воспитательным потенциалом, имеют профилактический и пропагандирующий характер и направлены на основную часть пользователей – подростков и молодежь.

Подводя итоги работы, студенты провели в своем интернет-сообществе фестиваль подкастов с оцениванием при помощи отметки «нравится». В дальнейшем с этими подкастами планируется отправиться в общеобразовательные школы и колледжи, чтобы встретиться очно с потенциальными слушателями и провести на месте обсуждение важных тем.

В патриотическом воспитании важно уделять внимание памятным датам. Интернет является неотъемлемой частью жизни молодежи и, более того, площадкой для социализации молодежи.

Интернет-площадка – комфортная среда для молодых людей, где они знакомятся, общаются, получают много различной информации. Задача организаторов работы с молодежью – преобразовывать онлайн-пространство и делать его не только интересным, но и воспитывающим, направляя подростков, предлагая темы, связанные с историей, национальными традициями и культурой, в игровом пространстве.

В цифровом пространстве необходимо использовать формат, который будет наиболее интересным и привлекательным: создание подкастов, онлайн-квестов, акций, посвященных героическому прошлому и настоящему Родины; сбор и систематизация информации по увековечиванию памяти павших в борьбе за Родину; создание учащимися виртуальных школьных музеев и Аллей славы. Под руководством учителя школьники могут участвовать в онлайн-концертах в стиле военных лет; виртуально посещать военно-спортивные мероприятия, показательные выступления военных, выставки военной техники и пр.

Литература

1. Национальная программа развития школьного образования на 2022-2026 учебные годы: по дальнейшему развитию сферы педагогического образования» от 27 февраля 2020 года: www.lex.uz
2. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года.

OILA FAROVONLIGINI TA'MINLASHDA QADRIYATLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI

Musurmanova Oynisa Musurmanovna, Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi
huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti direktor
o'rinbosari, Respublika "Oqila ayollar" harakati yetakchisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat".

Shavkat Mirziyoyev

Oila jamiyat tayanchi, insonning baxt qo'rg'onidir. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Uning ijtimoiy-ma'naviy barkamolligi davlat va jamiyat farovonligi, oilalar mustahkamligi va xotin-qizlar faolligini oshirish negizidir. Darhaqiqat, jamiyat va davlat farovonligi, gullab-yashnashi oilalar tinchligi va xotirjamligi uning ma'naviy-axloqiy poydevorining mustahkamligiga bog'liq. Shu boisdan ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmunida mahallalarda oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanda qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmonlari, 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlar faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 401-son Qarori oila a'zolari, xotin-qizlarning ma'naviy qadriyatlar vositasida qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-siyosiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu huquqiy-me'yoriy asoslarning talab va takliflarini amalga oshirishda respublikamiz miqiyosida faoliyat olib boradigan oila va xotin-qizlar masalalari tizimi mutaxassislari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, yer yuzida insoniyatning paydo bo'lishi bilan madaniy yashashga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Turli urf-odatlar, rasm-rusmlar, an'analar, afsonaviy tarixiy obidalar va boshqa moddiy va nomoddiy osori – atiqalarning paydo bo'lishida oila asos bo'lgan. Bizning bobokolonlarimiz ikki Renessansga (9-12 asr; 15 asrlar) asos solganligi bejiz emas.

Uchinchi Renessans poydevorini ma'naviy barqarorligini ta'minlashning poydevori ham oila va uning ma'naviy qadriyatlari hisoblanadi. Lekin, ayni vaqtda oila va xotin-qizlar o'rtasida turli yo'nalishlarda o'ziga xos muammolarning mavjudligi, ularni bartaraf etishda jamiyatdagi oila va xotin-qizlar masalalari tizimi mutaxassislarining barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligida, bir yoqadan bosh chiqarib ishlashni talab etadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son Farmonida 11 ta ustuvor yo'nalish, Oila va xotin-qizlar qo'mitasining Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri 208 ta tuman (shahar)lari, 10000 ga yaqin mahallalarida 7 ta yangi tizim tuzulmasi joriy etildi. 2023 yil 21 dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlar faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 401-son Qarorining "YO'L XARITASI"ning 9 ta asosiy yo'nalishlarining barchasida oila a'zolari, xotin-qizlar va yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar, yangi-yangi tizimlar, loyihalar belgilab berildi.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilab berilgan 7 ta yo'nalishning beshinchi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishi bo'yicha 71-78 maqsadlarning mohiyati ham oilaning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, mahalla xotin-qizlar faollari uchun huquqiy asos hisoblanadi.

Oilalar farovonligini ta'minlashning asosi-milliy qadriyatlarga amal qilish hisoblanadi.

Qadriyat – insoniyat paydo bo'lishi bilan uning tili, urf-odatlari, an'analari, dini, madaniyati, ezigulikni ifodalovchi axloqiy fazilatlari vujudga kela boshlagan. Ularning mazmunida xalqning hayot tarzi, ruhiyati, ma'naviyati, madaniyati, turmush tarzi, o'y-hayollari aks etgan. Qadriyatlar – avloddan-avlodga o'tib kelayotgan va ma'lum jamiyatlar va ijtimoiy guruhlarda uzoq vaqt davomida takrorlanib keladigan ijtimoiy va madaniy meros hisoblanadi.

Qadriyatlar amal qilish qamroviga ko'ra milliy, umuminsoniy (moddiy va ma'naviy) shaxsiy, oilaviy, sulolaviy qadriyatlar tizimidan iborat.

Shunday qilib, qadriyat – millat va oilaning ijtimoiy-moddiy va ma'naviy manfaatlariga xizmat qiladigan hamda ular tomonidan yuksak baholanib

qadrlanadigan axloq-odob, urf-odat, an'ana va rasm-rusumlardir.

Oilaviy qadriyatlar – oila a'zolari tomonidan qadrlanadigan, sulolalar g'ururiga aylangan, avlod-dan-avlodga ma'naviy boylik sifatida o'tib, boyib, takomillashib jamiyatda oila imijini namoyon etadigan dunyoviy va diniy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, axloq-odob qoidalaridan iboratdir. Shuningdek, oila a'zolari imijini belgilovchi axloq-odob qoidalari ham hisoblanadi. Shuningdek, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha ijobiy natijador narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Oila ma'naviy qadriyati mazmuni: milliy va sulolaviy qadriyatlar asosida er-xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasida o'zaro ma'naviy-axloqiy munosabatlarga ko'ra, kundalik hayot tartib-qoidalariga rioya etish, bir biriga nisbatan qadr-qimmatlilik, sadoqatlilik, har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish, muloqot madaniyati, kamtarlik, sabr-toqatlilik, saranjom-sarishtalilik, orastalilik, sermulo hazalilik, odob doirasida so'zlash, turli noaxloqiy illatlardan xolis bo'lish, e'tiqodlilik, ongli intizom, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lish, yurish-turish, hatti-harakat qoidalariga, sog'lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal qilish, muomala madaniyati, milliy oilaviy qadriyatlarga muhabbat, ro'g'orshunoslik madaniyatiga amal qilish, kattalarga izzatda va kichiklarga nisbatan e'tiborda bo'lish, adabiyot va san'atga muhabbatni namoyon etish, turli millat urf-odatlarini, an'analari, tili, dini va madaniyatiga hurmat, bag'rikenglik, mehnat madaniyati va b.q. iboratdir.

Oila a'zolari tomonidan qadrlanadigan, sulolalar g'ururiga aylangan, avlod-dan-avlodga ma'naviy boylik sifatida o'tib, boyib, takomillashib jamiyatda oila imijini namoyon etadigan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, axloq-odob, kiyinish, yurish-turish, o'zaro muloqot va munosabat qoidalaridan iboratdir. Jumladan, axloq-odob asosida ro'g'or yuritish qonun-qoidalari (o'zaro diplomatik muloqot va munosabat, xonadonning ekologik toza-ozodaligi, tartib-qoidasiga rioya etish, oilada "Yashil makon" g'oyasiga amal qilish; sog'lom ma'naviy muhit, tejamkorlik, tadbirkorlik, rejali, maqsad va vazifali kundalik hayot, o'zaro do'stona munosabat va b.q.;

o'zbek oilalari bilan bog'liq marosimlar ("Non sindirish marosimi", "Mehmon kutish", "Fotiha to'y", "Nikoh to'y", "Kelin salom", "Yuz ochdi", "Yuz ko'rsatar", "Bet ochar" yoki "Ro'kushon", "Quda chorlar", "Kelin chaqiriq", "Tug'ilgan kun", "Beshik to'y" ("Aqiqa" marosimi), "Chaqaloq dunyoga kelishi", "Ism qo'yish", "Chaqaloq chilla to'y", "Beshik to'y", "Soch to'y", "Tish to'y", "Birinci qadam", "Sunnat to'y", "Xatna to'y", "Muchal yosh", marhumlar xotirasiga bag'ishlab janoza nomozi, yil davomida 7, 20, 40, xotin oshi, ayol oshi, taxt urar, bibi seshanba, payshanbalik va yakshanbalik, yil oshi kabi turli to'y va motam marosimlari, udumlar, diniy va milliy bayramlar, rasm-

oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha O'zbekiston hamda xorijiy olimlarning ilmiy-metodik asarlaridan iboratdir.

Oila farovonligini ta'minlashda qadriyatlardan foydalanishning hamkorlik tizimi: barcha tizimdagi barcha milliy oilalar;

hududlar ta'lim tizimi (maktabgacha, umumiy o'rta va professional ta'lim, oliy ta'lim, malaka oshirish tizimi);

mahallalarning 7 ta tizimi;

turli vazirlik va idoralarning hududiy tizimi;

ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotchilar, «Oqila ayollar» harakati, «Olima ayollar» jamiyati, nuroniylar, «Buvijonlar» maktablari, otinoyilar, ko'chaboshilar va b.q.

tashkilotlardagi gender masalalari bo'yicha maslahat kengashlari;

«Oila va gender» ilmiy-tadqiqot instituti;

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari;

hududlardagi nodavlat va notijorat tashkilotlar;

xotin-qizlar monomarkazlari;

turli xalqaro va diniy ta'lim tizimi va b.q.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi xodimlari, mahallalardagi xotin-qizlar faollari oila farovonligini ta'minlashda milliy qadriyatlardan foydalanishda qo'yidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

- oilaparvarlik;
- vatanparvarlik;
- adolatparvarlik;
- insonparvarlik;
- millatparvarlik (xalqlararo, millatlararo totuvlikka rioya etish);
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarga itoatkorlik;
- milliy o'zlikni anglash;
- davlat tizimiga hurmat;
- fuqarolik burchiga sadoqat;
- tinchliksevarlik;
- mehnatsevarlik va b.q.

Ushbu tamoyillarga amal qilish natijasi qo'yidagi holatlarda namoyon bo'ladi: milliy va sulolaviy qadriyatlar asosida er-xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kekin o'rtasida o'zaro ma'naviy-axloqiy munosabatlarga ko'ra kundalik hayot tartib-qoidalariga rioya etish, oila an'anasiga muhabbat, sadoqat; bir-biriga nisbatan qadr-qimmatlilik, kamtarlik, sabr-toqatlilik; har qanday vaziyatda o'zini ma'naviyatini namoyon eta bilish; muloqot madaniyati, ongli intizom, milliy odob doirasida so'zlash, sermulo hazalilik; saranjom-sarishtalilik, orastalilik; turli noaxloqiy illatlardan xolis bo'lish; e'tiqodlilik, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lish, yurish-turish, xatti-harakat qoidalariga, sog'lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal

qilish; ro'g'orshunoslik madaniyatiga amal qilish, kattalarga izzatda va kichiklarga nisbatan e'tiborda bo'lish; adabiyot va san'atga muhabbatni namoyon etish; turli millat urf-odatlarini, an'analari, tili, dini va madaniyatiga hurmat, bag'rikenglik; mehnat madaniyatiga amal qilish; reproduktiv salomatlikka amal qilishi, bola tarbiyasida tibbiy, psixologik, pedagogik, ma'naviy-axloqiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi, farzandning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishi, qiz bola uchun ona, o'g'il bola uchun otaning har tomonlama na'muna bo'lishi; oila a'zolarining o'zaro muhabbati, biologik moslik asosiga oila barpo etish; reproduktiv va jinsiy yetuklik; oila va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi, barqarorligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik; milliy qadriyatlarga sadoqatlik; sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit yaratish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lish; kommunikativ kompetentlik mezonlariga rioya etish; oilaviy tarbirkorlik madaniyatiga ega bo'lish; "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" shioriga fidoyilik; "halollik vaksinasi" bilan emlangan bo'lish va "jaholatga qarshi-ma'rifat" g'oyasiga amal qilish; oilaparvarlik, mehnatsevarlik; xalqlararo, millatlararo totuvlikka rioya etish va b.q. iboratdir.

Oila farovonligini ta'minlashda qadriyatlardan foydalanish mexanizmini amalga oshirishda qo'yidagi vazifalar ijrosi ta'minlanmog'i zarur:

1. O'zbekistondagi barcha oilalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ibot va tashviqot qilishda soha mutaxassislari bilan hamkorlikda faol bo'lish zarur. Buning uchun Respublika va hududiy ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muvofiqlashtirish bo'yicha targ'ibot guruhlari a'zolari tarkibini dastlab ijtimoiy-siyosiy ma'naviy-ma'rifiy bilimlarga, obro'-e'tiborga ega bo'lgan, faol, fidoyi, taniqli, tajribali volontyorni respublika, viloyat, tuman (shahar), oila hamda mahallalar kesimida shakllantirmoq zarur. Ushbu targ'ibotchilar uchun qisqa muddatli seminar-treninglar tashkil etish, faoliyat yo'nalishlarini aniqlash va ular bo'yicha takliflar olish, bu borada amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha "Chora-tadbirlar" shakllantirish, yo'nalishlar bo'yicha targ'ibotchilardan iborat guruhlarini tashkil etish, "Fuqarobay", "Xonadonbay", "Mahallabay" tarzda jamoatchilik asosida mavjud muammolardan kelib chiqqan holda individual, guruhli, jamoaviy va ommaviy shakllardan foydalanish zarur. Bu sohada eng muhimi individual shakldan foydalanmoq ijobiy natija berishi tabiiydir.

2. Milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyoti, oila farovonligini ta'minlashdagi ta'lim-tarbiyaviy natijalari haqida yetarlicha bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lish kerak.

Dastlab qadriyatlar nima uchun kerak? – savoli bo'yicha milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyoti, oila farovonligini ta'minlashdagi ta'lim-tarbiyaviy natijalari haqida yetarlicha bilim, malaka va ko'nikmaga ega

bo'lmoq lozim.

Darhaqiqat, dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarning o'rni beqiyos. U o'tmishni bugun bilan bog'lab, kelajakka dadil qadam qo'yishning muhim omili. U millatidan qat'iy nazar mamlakat xalqini jipslashtirish va yagona kuch sifatida ertangi kunga teran nigoh tashlash vositasi hisoblanadi. Demak jamiyatda, oiladagi tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik bevosita qadriyatlar bilan bog'liq.

Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. Qadriyatlar mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim oila a'zolari, hududlardagi ijtimoiy tizimlar (mahallalardagi 7 ta tizim) faoliyati, xatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisa ekanligini chuqur anglab yetish asosida ulardan foydalanish talab etiladi.

3. Mahalladagi turli oilalar, xotin-qizlar urf-odatlar, an'analar, axloq-odob qoidalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish asosida samarali shakl-metodlardan foydalanish (suhbat, bahs-munozara, uchrashuv, ma'naviy forumlar va b.q.) o'zining ijobiy natijasini beradi.

Oilaviy qadriyatlarni barcha toifa oila a'zolari ma'naviyatini takomillashtirishda ularning talab va ehtiyojlari, psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual, guruhli, jamoaviy va ommaviy shakllarda turli tamoyillarga tayangan holda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish talab etiladi.

4. Mahalla xotin-qizlar faollari turli muammoli oilalarning ma'naviy qadriyatlar vositasida mustahkamligini ta'minlashda kasbiy kompetentligi va kreativligini to'liq safarbar etish talab etiladi.

Buning uchun, avvalo, oila a'zolarini o'rganish, ta'lim-tarbiya natijalarini monitoring qilish, uning mazmunini takomillashtirish ish shakl va metodlarini to'g'ri tanlashda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun har bir hudud, mahalla, oilalarning milliy qadriyatlari va ularga amal qilish holati, natijalari haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur. Buni o'rganishning metodologik asosini aniqlash; mazmunini va tamoyillarini belgilash; samarali metodlarini tanlash; tahlil etish, xulosa chiqarish, tavsiyalar berish yo'llarini aniq belgilab olmoq lozim. Shundan so'ng esa, o'z kasbiy kompetentligi va kreativligini muntazam takomillashtirib borishi, bu borada bilim, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirib borishi lozim.

5. Oilalar farovonligi, barqarorligi, tinchligi va baxtliligini ta'minlashda "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" shioriga amal qilish zarur. Buning uchun muntazam O'zbekistonda oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishning "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat", "Oilalar – jamiyat va davlat himoyasida", "Farovon oilalar – farovon jamiyat asosi", "Oilalar – ma'naviyat

o'chog'i", "Oila – jamiyat ko'zgusi" konseptual g'oyalariga oila va xotin-qizlar ma'naviyatini takomillashtirishda asoslanmoq zarur. Ya'ni. Bu borada ota-onalar, mutasaddi tizim vakillari bilan hamkorlik faoliyatlarini aniq maqsad va vazifalar asosida amalga oshirish talab etiladi. Shuningdek, har bir xotin-qizlar faoli "Halollik vaksinasi" bilan emlangan bo'lish va mafkuraviy xurujlardan yiroq bo'lish "jaholatga qarshi-ma'rifat" g'oyasiga amal qilish zarur. Shunday qilib, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirishda innovatsion tarbiya texnologiyalar va metodlardan ya'ni, multimedia resurslari, o'quv va badiiy adabiyotlar, elektron axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maxsus teleradio rukunlari, reportajlar, ijtimoiy loyihalar, ilmiy-ommabop, badiiy, multiplikatsiyaviy hujjatli filmlar, elektron ta'lim resurslari, ma'sus interaktiv veb loyihalar, audivizual, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, hikoya, davra suhbat, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqalardan foydalanish faoliyat natijalarini doimiy kuzatish, nazorat qilish, tahlil etish, monitoring qilish o'zining ijobiy samarasini berishi muqarrar.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т., 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги "Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янда қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5938-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги "Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-87-сон Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 3-майдаги "Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги ПҚ-4307-сонли Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2019-йил.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 26-мартдаги "Маънавий-маърифий ишлар тизимни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5040-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2021.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 22 декабрдаги Республика Маънавият ва маърифат Кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги "Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга

айланиши керак” мавзусидаги нутқи.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018-йил 14-мартдаги “Хотин-қизлар билан ишлаш ва оилаларда маънавий-ахлоқий қадриятларни мустаҳкамлаш бўйича мутахассис тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 200-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2018.

9. Алимов У. Оилада фарзанд тарбияси / Масъул муҳаррир: Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Мовароуннаҳр, 2016. – 456 б.

10. Комилов Т., Абидова С. Миллий ахлоқий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамияти. – Т.: Фан, 2000.

11. Жалолов Ҳ. Оила, маҳалла ва мактаб ҳамкорлиги // Тарбия. – Т., 2006. – № 2 (6).

12. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография. – Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – 252 б.

13. Мусурманова О. Миллий қадриятлар – оила маънавияти пойдевори: Монография. – Т.: Зарварақ, 2023. – 113 б.

14. Мусурмонова О., Фарзандларимга насиҳатлар. 2-нашр. Панднома. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2022. – 180 б.

15. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 200 б.

16. Мусурманова О., Норкулов Ҳ., Абдурахимова Ф. Маҳаллаларда оила фаровонлиги: миллий қадриятлар ва одоб дурдоналари: Услубий қўлланма. – Т.: Маҳалла ва оила нашриёти, 2023. – 116 б.

17. Мусурмонова О., Қуронов М., Абдужаббарова М. Маҳалла – ҳаёт кўзгуси: Саволларга жавоблар. – Т.: Ёшлар медиапринт, 2021. – 100 б.

18. Мусурманова А. Маросимлар-маънавиятимиз кузгуси: Методик қўлланма. – Т.: Istiqlol nashriyoti, 2012.

19. Темирова Н.Е. Қадриятлар ва ёшлар камолоти. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. – Б. 26.

20. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 3-қисм: 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма / Тузувчи муаллифлар: А.Қодиров, М.Қуронов, О.Мусурманова ва бошқ. – Т.: Muharrir, 2019. – 256 б.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

N.Sh.Abdullayeva, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik
tuyg'usini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, vatanparvarlik tarbiyasi, vatan muhabbati,
ma'naviy tarbiya, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, milliy qadriyatlar, davlat ramzlari,
bolalar psixologiyasi, tarixiy meros, ma'naviyat, metodika.

Zamonaviy dunyoda bolalarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirish bilan
bir qatorda, ularning yuraklarida vatan muhabbatini shakllantirish masalasi ham
dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu nafaqat O'zbekiston, balki ko'plab
rivojlanayotgan davlatlar uchun jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.
Davlatimiz ushbu jarayonni tizimli va uzluksiz deb bilib, uni Konstitutsiya,
qonunlar va Prezident qarorlari kabi me'yoriy hujjatlar asosida amalga
oshirmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash millat, til va kasbdan
qat'i nazar, barcha yoshlarda Vatanga sadoqat, fuqarolik burchi va jamiyat
manfaatlarini himoya qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan murakkab va
ko'p bosqichli jarayondir.

Aynan maktabgacha ta'lim bosqichi vatanparvarlik tarbiyasining asosiy
poydevori hisoblanib, 3-7 yoshli bolalarda Vatan haqida dastlabki tasavvurlar
shakllanadi. She'rlar, qo'shiqlar, multfilmlar va o'yinlar orqali davlat ramzlari
bilan tanishish, bolalarda ona-yurtga muhabbatning dastlabki urug'larini sepadi.
Maktabgacha ta'lim standartlarining "Ijtimoiy va kommunikativ rivojlanish"
yo'nalishi aynan shu maqsadni ko'zlaydi. Vatanparvarlik nafaqat tabiiy tuyg'u,
balki yuqori ma'naviy fazilat bo'lib, uni shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot
ishlarini olib borish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Mutaxassislar fikricha, bolalar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda jamiyat,
tevarak-atrof, borliq haqidagi ilk tasavvurlarni qabul qilar ekan. Asosiysi, aynan
shu axborotlar butun umr ularning xotirasida saqlanib qoladi. Shu bois, bolalarni
vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ta'lim va tarbiyani maktabgacha ta'lim
tashkilotlaridan boshlash o'z samarasini beradi.

Bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, ularni jonajon o'lka
madaniyati va tarixi, qadriyatlari, an'ana va urf-odatlari bilan tanishtirish
maktabgacha ta'lim-tarbiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir.
Shuningdek, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
konsepsiyasi"da yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash,

ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish kabilar asosiy vazifalar etib belgilangan.

O'zbek tilining izohli lug'atida: Vatan – kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri, ona yurti, diyori, har bir fuqaro uchun mamlakat, turar joy, boshpana, maskan, uy ma'nolarini ifodalashi ko'rsatilgan. Inson ulg'aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Yurtimizda tug'ilib-o'sgan har bir inson "Vatanim" deganida o'z uyini, qishlog'ini yoki shahrini emas, balki O'zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg'usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir.

Vatan tuyg'usi – bu aziz va go'zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo'lish. Vatan tuyg'usi – bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O'zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o'rganishga intilishdir.

Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqimizning mard va jasur farzandlari biz uchun, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun o'rnak-namuna timsolidir. Masalan, bobomiz Najmiddin Kubroning o'chmas jasoratini eslaylik. Bu jasorat zamirida Ona vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg'usi yotadi. O'z davrida "Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq – mening o'limim, sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdur", deb yozgan edi Fitrat. Bu so'zlarda vatanparvar insonning qalb nolalari o'z ifodasini topgan.

O'sib kelayotgan yoshlarni, ya'ni Vatanimizning bo'lg'usi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – davr talabi. Vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o'z so'ziga sodiqligidir. Agar insonni bolalik chog'idan o'z xalqiga, uning an'analarga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo'lmaydi.

Vatan hissi insonga Vatanidan olisda bo'lganida yaqqol seziladi. Turli sabablar bilan o'zga yurtlarda yashagan ko'plab vatandoshlarimizning hayoti ayanchli va qayg'uli kechgani bizga tarixdan ma'lum. Buning ifodasini buyuk saltanat egasi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham ko'ramiz. Bobur barcha imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, tug'ilib o'sgan Vatanidan olisda bo'lgani uchun o'zini baxtiyor inson deb hisoblamaydi.

Vatan ravnaqi – milliy g'oyamizning yuksak tushunchalaridan biri bo'lib, u fuqarolarimizning bilimi va kamoliga bog'liq. Har bir yurtdoshimiz, qaysi sohada xizmat qilishidan qat'i nazar, bu haqiqatni to'liq anglagan holda, o'zining ma'naviy kamoloti uchun mas'uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu yurt,

shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashi va o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi", deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

Xalqimiz qadimdan yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. Bu kabi yuksak insoniy fazilat va bunday muqaddas tuyg'u xalqimizning qon-qoniga singib ketgani ayni haqiqatdir. Shu o'rinda tarixga nazar solsak, yurtimiz sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgani bois ushbu jannatmakon zaminga egalik qilishni ko'plab imperiyalar, hukmdorlar istagan.

Afsonalarga aylanib ketgan Shiroq, To'maris, Spitamen kabi shaxslar vatanni himoya qilish, uni dushmandan ko'z qorachig'idek asrash yo'lida bor kuch imkoniyatini safarbar etib, bu yo'lda moli-yu jonini, sha'nini, hayoti va oilasini ham ayamagan. Shuning uchun ham bunday vatanparvar insonlarning vatan oldidagi buyuk xizmatlari tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan.

Keyinchalik, mo'g'ullar bosqini davrida Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi xalq qahramonlari vatan himoyasiga o'tlanib, o'zlaridan bir necha barobar katta qo'shinga qarshi mardonavor jang qilgan, mislsiz jasorat ko'rsatgan. Vatan oldidagi muqaddas burchni bajarishda nafaqat sakardalar, balki Najmiddin Kubrodek o'z davrining din peshvolari, tariqat shayxlari dushmanga qarshi chiqib, xalqni ham Vatan himoyasiga safarbar bo'lishida katta hissa qo'shgan. Hattoki Chingizxon Najmiddin Kubroning yoshi ulug'ligi, yetuk shayxligi va din peshvosi ekanligini inobatga olib, unga zarar yetkazmaslikni taklif qilsa-da, u zot rozi bo'lmagan va "Yo Vatan yo sharaflil o'lim!" shiori bilan dushman qo'shini bilan so'nggi qoni qolguncha kurashib, Vatan himoyasi yo'lida jon bergan. Xalqimizning mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurashi bir qarashda besamar ko'ringan bo'lsada, aksincha keyinchalik vatanparvarlik ruhida tarbiya topgan Jaloliddin Manguberding jiyani va izdoshi – Sayfiddin Qutuz mo'g'ullarni tormor etadi. Mo'g'ullar bostirib kelgan chog'ida qul sifatida sotib yuborilgan Sayfiddin tog'asi Jaloliddin Manguberding ishini davom ettirib, butun dunyoni mo'g'ullar changalidan qutqarishga muvaffaq bo'lgan.

Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz biz – avlodlarga qoldirgan vasiyatida g'oyat muhim bir fikrga alohida urg'u berib, "El dardiga darmon bo'lmoq – ezgu vazifangizdir", deb ta'kidlagani albatta bejiz emas.

O'z hayoti va faoliyati davomida Vatan tinchligi, xalqini osoyishtaligi, madaniyati va ma'rifati uchun kurashgan Mir Alisher Navoiyning ijodiy merosi inson kamlotiga bag'ishlangan tarixiy-ma'rifiy, ma'naviy-ahloqiy asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning "Hayratul abror", "Xazoyinul-ma'oniyy", "Mahbubul-qulub", "Majolis un-nafois" asarlarida jamiyatning har bir a'zosi o'z

xalqiga xizmat qilishi, sadoqatli, vatanparvar, insonparvar va boshqalarga yordam berishi, xalq manfaatini har yerda o'z manfaatidan yuqori qo'yishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. XI asrning qomusiy olimlaridan biri Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" nomli asarida o'z davrining xalqlariga, udum, urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini va o'ziga xos ma'naviy-ruhiy olami haqida yozar ekan, Vatanni, unga tegishli har bir narsani har bir zarra tuproqni muqaddas, aziz deb bilish, o'zini shu Vatanning farzandi deb his qilish turkiy xalqlarning haqiqiy insoniylik fazilatlaridan ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi.

"To'maris", "Shiroq" kabi qissalar, "Alpomish", "Qirg'iz", "Go'ro'g'li" singari dostonlarda ham milliy va umumbashariy qadriyatlar ifodalangan. Shuning uchun ham ularda kishilarning manfaati yo'lida faollik ko'rsatish g'oyalari ilgari surilgan. Xalq tomonidan yaratilgan ertaklarning madaniy-ma'naviy, ma'rifiy ahamiyati beqiyosdir.

Xalqimizda "Vatanni sevmok imondandir", degan naql bor. Ushbu hikmat mazmunidan Vatanni sevishni, uni ardoqlashni imon darajasiga ko'tarib, vatanparvarlikdek ulug' fazilatni yuksak maqomga ega ekanligini anglash mumkin.

Butun musulmon olamini ilm-u ma'rifati bilan munavvar etgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy, Qaffol Shoshiy kabi buyuk ajdodlarimiz ham Vatanga bo'lgan kuchli muhabbatlari tufayli o'zlarining taxalluslarini kindik qonlari to'kilgan yurt nomi bilan bog'laganlari ham ana shunday e'tirof va e'tiborning o'ziga xos hayotiy va amaliy ifodasi na'munasidir.

Hozirgi kunda ham ana shunday an'analarning davomi o'laroq xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni vatanparvarlikdek ulug' qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash g'oyatda muhimdir.

"Vatanparvarlik" va "vatanparvarlik tarbiyasi" tushunchalari o'z ahamiyatiga ko'ra Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishning asosiy tayanch tushunchalari bo'lib, doim turli xil bilim sohalarini: falsafa, psixologiya, pedagogika, tarix va boshqa sohalar olimlarining e'tiborini tortib kelgan.

Ma'lumki, turli tarixiy davrlarda ushbu "vatanparvarlik" tushunchasining mohiyati turlicha ta'riflangan: uni tushunishning ustuvor yo'nalishlari va jihatlari o'zgargan. Vatanparvarlik tarixan odamlar hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ta'sirida vujudga keladi va shu sharoitlarning o'zgarishi bilan bog'liq holda o'z mazmunini o'zgartiradi. Qadimgi Yunonistonda Vatanga bo'lgan muhabbat ko'p jihatdan qadimgi ijtimoiy tuzilmaning o'ziga xosligi bilan bog'liq edi. Qadimgi shahar hokimiyatini saylaydigan to'la huquqli fuqarolar – yer egalari jamoasi edi.

Polis qullarning ekspluatatsiyasini ta'minlardi, savdo-sotiqni tartibga solardi,

hunarmandchilik va san'atning rivojlanishini rag'batlantirardi, turli tomoshalar uyushtirardi. Bu jarayonlarning barchasi shahar aholisi hisobidan amalga oshirilardi, bu esa, jamoat ongida va tarbiyasida tegishli munosabatni nazarda tutgan. Keyinchalik vatanparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasi muammosi uyg'onish davri mutafakkirlari tomonidan ko'rib chiqildi, bu ushbu davrning o'ziga xos xususiyati, qadimgi namunalarga murojaat qilish bilan bog'liq edi. Biroq, 15-asrning oxiridan boshlab G'arbiy Yevropadagi siyosiy vaziyat o'zgardi: deyarli hamma joyda inson shaxsini bo'g'ib qo'yuvchi, uni siyosiy erkinliklardan va fuqarolik faolligini amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qiladigan va eng muhimi, eng avvalo, monarxga shaxsiy sadoqatni talab qiladigan mutlaq monarxiya hokimiyati o'rnatildi. Natijada Uyg'onish davrining axloqiy ideallari o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Birinchi marta "vatanparvar" va "vatanparvarlik" tushunchalari 1789-1793 yillardagi Buyuk Fransiya inqilobi davrida qo'llanila boshlandi. O'shanda vatanparvarlar o'zlarini vatan xoinlari va sotqinlar – royalistlardan farqli o'laroq, buyuk maqsad yo'lidagi kurashchilar, respublika himoyachilari deb atadilar.

19-asrda burjua mafkurasi vatanparvarlik tuyg'ularini qon va irq nidosi yaratadi, deb ta'kidlagan edi.

18-19-asrlarda xorijiy mutafakkirlardan D.Lokk, K.A.Gelvesiy, D.Didro tadqiq etilayotgan muammoga alohida e'tibor qaratdilar.

Vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini aniqlash maqsadida ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilishga kirishar ekanmiz, biz ushbu tushunchaning semantik mazmuni va chegaralari muammosi paydo bo'lganligini ta'kidlashga majburmiz. "Vatanparvarlik" so'zining ma'nosi ko'pchilik lug'atlarda "Vatanga, Yurtga muhabbat, "vatanparvar" (yunoncha patris – yurtdosh) – "vatanparvarlik tuyg'ulari, g'oyalari mushtarak shaxs" deb ta'riflangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bizning tadqiqot mavzuimizga aylangan vatanparvarlik tarbiyasi muammosi o'zbek pedagogik tafakkuri uchun katta yangilik emas.

Vatanparvarlik tarbiyasi muammolari o'tmishdagi mutafakkir va jamoat arboblari Navoiy, Bobir, Amir Temur va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Ular tarbiyadan asosiy maqsad o'z xalqining, tili, madaniyati, urf-odatlarini sevadigan, yuksak ma'naviyatli, ilm-fanga mehrli, mehnatsevar, Vatanga xizmat qiladigan vatanparvar insonni shakllantirishdan iborat deb hisoblaganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – bu murakkab, ko'p qirrali, lekin bir vaqtning o'zida juda muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishi, balki butun millatning kelajagi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqsadli va tizimli tarbiya orqali bolalarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, madaniy merosga nisbatan

hurmat va fuqarolik javobgarligi tuyg'ulari shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va dasturlari ushbu yo'nalishda mustahkam metodologik asos yaratib bergan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan she'rlar, qo'shiqlar, o'yinlar, davlat ramzlari bilan tanishish kabi interfaol usullar bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladi va ularning ongiga samarali ta'sir etadi.

Shu bilan birga, milliy an'analar, tarixiy qahramonliklar va madaniy qadriyatlarni o'rgatish orqali bolalarning ma'naviy dunyosi boyitiladi. Bugungi kunning globallashuv sharoitida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishi tobora dolzarb hisoblanadi va ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, zamonaviy metodikalarni joriy etish hamda o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali mazkur jarayonni yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Qarori.

O'QUVCHILARINI MILLIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK OMILLAR

O.T.Abdug'aniyev, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Ilmiy kotibi p.f.b.f.d. (PhD), dotsent, loyiha a'zosi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ta'sir etuvchi omillari ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Ta'lim jarayonida raqamli vositalar, interaktiv metodlar, kvest va gamifikatsiya elementlari, aqliy xaritalar, multimediya taqdimotlari hamda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarda milliy g'urur, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish yo'llarining pedagogik ta'sir vositalari orqali yoritilgan.

Tayanch so'zlar: milliy vatanparvarlik, innovatsion texnologiyalar, pedagogik imkoniyatlar, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, raqamli ta'lim, o'quvchilar tarbiyasi, oila-maktab-mahalla hamkorligi, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati.

Yangi O'zbekiston davrida yosh avlodni milliy g'urur, vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. O'quvchi shaxsining ongida vatan, millat va el-yurt manfaatiga sadoqat tuyg'usini shakllantirish ko'p omillarning o'zaro uyg'un ta'siri orqali ro'y beradi. Bu omillar pedagogik, ijtimoiy, psixologik hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatlardan tashkil topgan murakkab tizimni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan davlat dasturlari va konseptual hujjatlarda milliy tarbiya, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Shu jarayonda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida [1] yoshlar masalasiga to'xtalar ekan: "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovasiya bilan erishamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur" degan ushbu murojaati mazmunida ham o'quvchilarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh-avlodni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir.

Milliy vatanparvarlik – bu shaxsning Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, davlat ramzlariga ehtirom bilan munosabat va yurt taraqqiyoti uchun mas'uliyat his qilish kabi fazilatlarni mujassamlashtiruvchi kompleks

tushunchadir. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ularda nafaqat tarixiy merosga qiziqish, balki uni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish ko'nikmalari shakllanishi lozim. O'quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda jamiyat, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oila muhiti bola shaxsida Vatan, millat, ota-ona, ajdodlar qadriyatlariga hurmat hissini uyg'otuvchi birlamchi tarbiya maktabi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Maktab jamoasi o'quvchi ongida vatanparvarlik g'oyalarini shakllantiruvchi yetakchi tarbiya instituti hisoblanadi. Chunki o'quvchi maktabda ilm oladi, shakllanadi hamda o'z o'rnini topadi. Mahalla va jamoatchilik o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim omil hisoblanib unda, o'quvchi ijtimoiy nazorat, ibrat va namunaviy xulq orqali yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini oshiradi. Ommaviy axborot vositalarining ta'siri shundaki milliy mafkura, tarixiy qadriyat va vatanparvarlik g'oyalarini keng targ'ib etuvchi kuchli vosita sifatida bugungi kunda katta ro'l egallamoqda.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosi – milliy qadriyatlar, urf-odatlar, din, tarixiy xotira va ajdodlar merosidir. Ajdodlar merosiga hurmat – Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur hamda jadid marifatparvarlari kabi buyuk siymolarning ibratli faoliyati yosh avlodda milliy iftixor hissini uyg'otib kelmoqda. Shuning uchun madaniyat va san'at – milliy musiqa, teatr, kino, adabiyot orqali yurt muhabbati, milliy o'zlikni anglash, g'urur va fidoyilik hissi kuchayadi shu orqali o'quvchilarda vatanparvarlik hissi shaxsning ichki motivatsion tizimi, emotsional holati va ijtimoiy identifikatsiyasi bilan bevosita bog'liq holda o'quvchining o'zini millat a'zosi sifatida anglash bilan ijobiy psixologik muhit sinfdoshlar o'rtasida birdamlik, hamjihatlik, o'zaro hurmat muhitining yuzaga kelishida pedagoglar shaxsiy namuna sifatida o'qituvchining o'z fidoiyligi va yurtga sadoqat hissi o'quvchiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatishi bilan farqlanadi.

Ta'lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasini samarali amalga oshirish uchun didaktik va tarbiyaviy texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Darslik va o'quv dasturlarida milliy qadriyatlar, tarix, urf-odat va qahramonlar hayoti aks etishi. Integrativ yondashuv – tarix, adabiyot, Tabiiy fanlar, ona tili, "Tarbiya", "Kelajak soati"larida vatanparvarlik g'oyalarini uyg'un singdirib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quv-tarbiya jarayonida interfaol usullar (rol o'yinlari, bahs-munozaralar, "Milliy g'urur soati", loyiha ishlari, sahna chiqishlari) orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash. Ekskursiyalar va amaliy mashg'ulotlar – tarixiy joylar, muzeylar, yodgorliklar bilan tanishish orqali milliy faxrni mustahkamlash. Vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida faqat maktab emas, balki oilaning, mahalla institutining ham o'rni muhimdir. Innovatsion texnologiyalar orqali ota-onalar va mahalla faollarini jalb qilish, o'quvchilarni

O'quvchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirish, milliy qadriyatlarni chuqur anglash va Vatanga sadoqat hissini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar, gamifikatsiya, multimedia vositalari va raqamli ta'lim platformalari yordamida o'quvchilarning milliy ongini shakllantirish, ularni ijodkor, tashabbuskor va mas'uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazish mumkin. Shuningdek, "Oila-Maktab-Mahalla" hamkorligida innovatsion yondashuvlarni qo'llash milliy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida yuksak intellektual, ijtimoiy faol, tashabbuskor, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan yosh-avlodni yetuk kadrlar etib tayyorlash muammosi to'g'risida izlanishlar olib borishgan. Yoshlarda sog'lom turmush madaniyati va vatanparvarlik, yoshlar faolligini oshirish va ularning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik qobiliyatlarini millat rivoji ruhida tarbiyalash kabi muammolarga O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiya muammosiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, O.Musurmonova [5] yoshlarning ma'naviy madaniyati-ni shakllantirish muammolariga doir tadqiqot ishlarini olib bordilar. G.Maxmutova [3] talabalarni o'qitish hamda tarbiyalash qonuniyatlari, shuningdek, siyosiy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda talabalar ongiga samarali ta'sir etish yo'llari, ma'naviy-axloqiy tamoyillar va me'yorlar, buyuk ajdodlarimizning xulq-odob me'yorlari hamda muomala madaniyati haqida o'z ilmiy qarashlari asosida ifodalab o'tdi.

Yosh avlod tarbiyasi xususida to'xtalar ekanmiz, taniqli o'zbek pedagogi, ma'rifatparvar olim A.Avloniy [4] shunday deydi: "Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy, milliy ilmdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Respublikamiz olimlari tomonidan ushbu muammoning asosiy jihatlariga olimlar O.Musurmonova [2] ta'lim-tarbiyada ahloqiy ong, vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insonning fe'l-atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi. Ahloqning mag'zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalmilalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e'tibor, burch hissi hamda kamtarlik ko'zbo'yamachilik va yolg'izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o'z tadqiqotlarida ifodalagan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib

toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissinı uyg'otish;

b) o'quvchilarnı milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarnı tarbiyalash malakalarini tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq me'yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va hokazolar), muomala odobi, yuksak madaniyatni o'quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish, o'quvchilarda fuqarolik tuyg'usini, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarnı kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

o) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning shani, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o'rgatish va boshq.

Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o'rin tutishi bilan birga, uning umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ham muhim o'rin tutadi. Milliy vatanparvarlik – bu shaxsning Vatanga muhabbati, milliy qadriyatlar, madaniyat va tarixiy merosga sadoqati, davlat ramzlariga hurmati va yurt taraqqiyotiga hissa qo'shishga intilishidir.

Milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari nihoyatda keng va ko'p qirrali. Ular ta'limning didaktik jarayonida interaktiv va innovatsion metodlar orqali, tarbiyaviy ishlar orqali, ijtimoiy hamkorlik asosida va psixologik yondashuvlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Eng muhimi, o'quvchilarda milliy g'urur, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish uchun uzluksiz, tizimli va innovatsion yondashuv zarur.

O'quvchilarnı milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – uzluksiz, tizimli va kompleks jarayon bo'lib, unda oila, maktab, mahalla, jamiyat, davlat, OAV va zamonaviy texnologiyalar o'zaro hamjihatlikda faoliyat yuritishi zarur. Shu omillar uyg'unligi natijasida yoshlar milliy g'urur, vatan fidoyiligi va mas'uliyat tuyg'usiga ega, ongli fuqarolar sifatida voyaga yetadilar.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" // Xalq so'zi. – T., 2020. – 25 yanvar. – 19-son.

2. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Dis. ... p.f.d. – T., 1993. – 364 b.
3. Maxmutova G. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar: Avtoref. dis. ... p.f.n. – T., 2004. – 22 b.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq / Nashrga tayyorlovchi L.Xoliqov. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1993. – 28 b.
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2010. – 188-b.
7. Abdug'aniyev O.T. Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – Special Issue 10. – S. 434-438.
8. Abdug'aniyev O.T. Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik hamkorlik omillari // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – Special Issue 12. – S. 52-56.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MAKTAB O'QUVCHILARINI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Akramova Shaxnoza Abrorovna, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrası boshlig'i o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor, podpolkovnik

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb jihatları tahlil qilinadi. Maqolada Z avlod (2000-yildan keyin tug'ilgan yoshlar)ning psixologik va ijtimoiy xususiyatlari tahlil qilingan hamda ularda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishdagi asosiy muammolar yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy yoshlar ongiga mos innovatsion tarbiya usullari va pedagogik yechimlar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: globallashuv, vatanparvarlik, milliy g'oya, harbiy tarbiya, ta'lim tizimi, yoshlar, milliy o'zlik, raqamli muhit, yoshlar psixologiyasi.

Globallashuv – insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lib, u nafaqat iqtisodiy va axborot sohasida, balki ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va vatanparvarlik hissining so'nishi yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq yaratishi mumkin. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yosh avlodning ongida milliy g'urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish – bu nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyatning asosiy vazifasidir" [1]. Bugungi kunda axborot oqimining cheksizligi yoshlarning dunyoqarashiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda. YUNESKOning 2023 yilgi hisobotida qayd etilishicha, jahonda yoshlarning 68%i milliy an'analardan ko'ra internet orqali shakllangan "global madaniyat" ta'sirida yashaydi [2]. Bu holat milliy o'zlikni saqlash va Vatanga sadoqatni mustahkamlash uchun ta'lim tizimi oldida yangi vazifalar qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi" (2022)da ham yoshlarning axborot xavfsizligi va vatanparvarlik tarbiyasini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan [3].

Maktab yoshi – shaxsning ijtimoiy faollik, mas'uliyat va fidoyilik hislarini shakllantirishda hal qiluvchi bosqich. Shu sababli harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy ta'limning uzviy qismi sifatida qaralishi lozim.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi – bu shaxs ongida Vatanga muhabbat, uni himoya qilishga tayyorlik, davlat ramzlari va milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Bu jarayonda quyidagi asosiy vazifalar ajralib turadi:

1. Ma'naviy-mafkuraviy yo'nalish – milliy g'oya, tarix va milliy qahramonlar haqida chuqur bilim berish;

2. Psixologik tayyorgarlik – jismoniy bardosh, intizom, jamoa uchun javobgarlik hissini oshirish;

3. Amaliyot bilan uyg'unlik – harbiy-sport to'garaklari, "Vatan himoyachilari kuni" tadbirlari, "Men Vatan farzandi-man" loyihalari orqali faoliyatni amalga oshirish.

Global axborot maydonida yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta'sirlar – virtual "qahramonlar", chet el turmush tarzi, zo'ravonlik va egoizm g'oyalari orqali kirib kelmoqda. Bu esa, milliy g'oya va vatanparvarlik qadriyatlarini zaiflashtirish xavfini keltirib chiqaradi.

2024-yilda Ijtimoiy fikr markazi [4] tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari shundan dalolat berdiki:

15-17 yoshli o'quvchilarning 58% "vatanparvarlik" so'zining ma'nosini to'liq izohlay olmagan; 42% yoshlar faqat "harbiy xizmat"ni vatanga sadoqat ramzi deb hisoblaydi; 37% o'quvchi internetdagi "begona ideallar"ga taqlid qilishga moyil.

Bu raqamlar vatanparvarlik tarbiyasida yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda ko'pgina umumiy o'rta ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi tadbir sifatida o'tkaziladi, lekin uning shaxsiy ehtiyoj va ijtimoiy mas'uliyat darajasiga aylanishi yetarli emas. Masalan: tadbirlar ko'pincha rasmiy ko'rinishda bo'lib, o'quvchida ichki his uyg'otmaydi; maqsadli dasturlar yo'qligi sababli pedagoglar faqat umumiy "tarbiyaviy soatlar" bilan cheklanmoqda; otionalarning ishtirok darajasi past (bu 2024-yilgi tahlilda 27%ni tashkil etgan).

Psixologik nuqtai nazardan, vatanparvarlik – bu shaxsning "ijtimoiy men" qismidagi hissiy bog'lanishdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 12-16 yoshdagi bolalarda Vatan bilan hissiy identifikatsiya ko'proq "o'rnak olish" orqali yuzaga keladi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar, sportchilar, fan arboblarning hayotiy misollari o'quvchilar uchun katta ruhiy ta'sir ko'rsatadi [6].

XXI asr yoshlari – "Z avlod" deb ataladi. Bu avlod to'liq raqamli muhitda voyaga yetgan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt vositalari bilan shakllangan dunyoqarash egalari hisoblanadi. Bu holat ularning idroki, tafakkuri, ehtiyojlari va qadriyatlar tizimida ilgari kuzatilmagan yangiliklarni keltirib chiqardi. Psixolog A. To'xtayev ta'kidlaganidek: "Z avlodda real hayot bilan virtual muhit o'rtasidagi chegara yumshoq, ular voqelikni ko'pincha onlayn idrok etadilar. Bu esa milliy g'oya va vatanparvarlik hissini an'anaviy usullarda singdirishni qiyinlashtiradi" [7].

1. Raqamli onglilik Internet, smartfon va ijtimoiy tarmoqlar hayotning asosiy qismi. Axborotni tez qabul qiladi, ammo tez unutadi.

2. Individualistik yo'nalish Jamoaviy emas, shaxsiy manfaat ustuvor. Bu vatanparvarlik va kollektiv mas'uliyat hislarini zaiflashtiradi.

3. Tez ma'lumot talab qilish Qisqa video, tez xabarlar orqali bilishni afzal ko'radi. Darslarda uzoq ma'ruzalarni qabul qilishda qiyinchilik sezadi.

4. Emotsional hassoslik va stressga chidamsizlik Nevrotik holatlar, tashvish sindromlari ko'p uchraydi (VHT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda yoshlar stress darajasi 42% ga oshgan [8]).

5. Global dunyoqarash Milliy chegaralar emas, umumjahon tendensiyalar bilan fikrlaydi. Bu holat milliy o'zlikni pasaytiradi.

Bu xususiyatlar pedagogik jarayonni tubdan yangilash zaruratini tug'diradi.

Z avlod bilan ishlashda an'anaviy tarbiya usullari ko'pincha samarasiz bo'lib qolmoqda. Buning bir nechta sabablari bor:

1. Axborot ortiqchaligi va ma'naviy parokandalik. Z avlod ma'lumot oqimining markazida yashaydi. Internetdagi turli mafkuraviy ta'sirlar – xususan, "neytral global fuqarolik" g'oyasi – milliy vatanparvarlikni soyada qoldiradi. UNESCOning "Digital Youth Identity Report 2023" hisobotida yoshlarning 61% o'zini "global fuqaro" deb his qilishi, 39% esa, milliy identifikatsiyani ikkinchi darajali deb hisoblashi qayd etilgan [9].

2. Milliy ideallarning virtual muhitda yetarlicha ifoda etilmasligi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'pincha tashqi madaniyat, shou-biznes va trendlar hukmron. Yoshlar uchun Vatan haqidagi ilhomlantiruvchi kontent yetarlicha jozibali emas. Shu sabab, "digital vatanparvarlik" konsepsiyasini yaratish zarurati tug'ilmoqda.

3. Ta'lim tizimidagi biryozlamalik. Ko'p maktablarda vatanparvarlik faqat tarixiy ma'lumot berish yoki she'r o'qitish bilan cheklanmoqda. Ammo Z avlod hissiy, amaliyotga asoslangan, interaktiv yo'l bilan qabul qiladigan avloddir. Masalan, harbiy simulyatsiyalar, vatan himoyachisi hayoti haqidagi real keyslar ular uchun ta'sirliroq bo'ladi.

4. Ijtimoiy faollikning pasayishi. Yoshlar ko'p vaqtni onlaynda o'tkazishadi, jismoniy faollik, jamoaviy tadbirlarda ishtirok kamaygan. Bu esa, "Vatan uchun harakat" tuyg'usini zaiflashtiradi.

Globallashuv sharoitida yosh avlod ongiga turli madaniyatlar, g'oyalar va axborot oqimlari jadal ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat milliy qadriyatlar tizimida ma'lum turg'unlikni buzib, yoshlarda global fuqarolik hissining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat milliy tajriba bilan cheklanib qolmasdan, dunyodagi samarali modellar bilan boyitilishi zarur. Masalan, Janubiy Koreya, Turkiya va Isroil kabi davlatlarda maktab bosqichidayoq harbiy tayyorgarlik, jamoaviy mas'uliyat va fidoyilik ruhini shakllantirish bo'yicha mukammal tizim ishlab chiqilgan.

Bunday tajribalarni o'rganish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim, chunki harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat milliy faxr tuyg'usini, balki zamonaviy

fuqarolik ongini ham rivojlantiradi [11]. Xalqaro modellarda emotsional ta'sir, interaktiv o'quv usullari va psixologik motivatsiyaga katta e'tibor beriladi. Masalan, Singapurda "National Education Program" orqali har bir o'quvchi o'zini Vatan himoyachisi sifatida his etish uchun ijtimoiy rol o'yinlar, simulyatsiyalar va ijtimoiy xizmatlarda ishtirok etadi. Bu yoshlarda amaliy tajriba va javobgarlik hissini kuchaytiradi.

Xorijiy tajriba va o'zaro qiyos

Mamlakat Tajriba mazmuni O'zbekiston uchun foydali jihat

Rossiya "Yunarmiya" harakati orqali harbiy-patriotik klublar tarmog'i Yoshlar harakatini tizimli qilish, uni ta'lim bilan bog'lash

Janubiy Koreya Milliy qahramonlar hayotini multimedia vositalarida o'qitish Tarbiyada vizual va raqamli usullarni qo'llash

Turkiya "Milliy qadriyatlar haftaligi" dasturi Har bir maktabda milliy bayram va qadriyatlarni haftalik formatda o'tkazish

AQSh "Civic Education" dasturida fuqarolik mas'uliyatiga urg'u beriladi Yoshlarda davlat ramzlariga hurmat va qonunga itoatni kuchaytirish

O'zbekistonda ham shunday tajribalarni lokal madaniyat va milliy g'oyaga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqaro usullardan ilhomlanib, lekin milliy ruhni saqlagan holda ishlash orqali harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi zamonaviy formatga olib chiqiladi. Bu jarayon nafaqat yoshlarning milliy o'zlikni anglashini chuqurlashtiradi, balki ularni global dunyoda Vatan manfaatlarini himoya qila oladigan ma'naviy barkamol avlod sifatida voyaga yetkazadi.

Z avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimi, balki milliy xavfsizlik siyosati uchun ham strategik vazifadir. Bu jarayonda asosiy yo'nalishlar quyidagicha:

ma'naviy kodni qayta yaratish: vatanparvarlikni zamonaviy, "Z avlod tilida" ifodalash zarur;

harbiy madaniyatni insonparvarlashtirish: qo'rqitish yoki intizom orqali emas, balki ilhom va faxr orqali shakllantirish;

interaktiv formatlarni kengaytirish: raqamli o'yinlar, onlayn viktorinalar, milliy qahramonlar haqidagi seriallar;

psixologik ta'sir usullarini kuchaytirish: shaxsiy o'rnak, hissiy yondoshuv, qahramon bilan identifikatsiy.

Z avlod uchun vatanparvarlikni shakllantirishda quyidagi innovatsion yo'llar tavsiya etiladi:

1.  Geymifikatsiya va simulyatsiya texnologiyalari

Masalan, "Men himoyachiman" nomli VR-simulyator orqali o'quvchilar harbiy qaror qabul qilish jarayonida ishtirok eta oladi. Bu ularda mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

2. Digital kontent orqali vatanparvarlik

TikTok, YouTube va Telegramda milliy qahramonlar haqidagi qisqa videolar, "O'zbekiston faxrlari" rubrikalari tashkil etish orqali yoshlarning diqqatini milliy fidoyilikka jalb qilish.

3. Emotsional intellekt orqali tarbiya

Psixologik treninglar, debatlar va rivoyatlar orqali "Vatan – bu his" konsepsiyasini hissiy darajada singdirish.

4. Harbiy-vatanparvarlik mavzularga oid kvestlar va "Jonli tarix" darslari – Masalan, maktablarda "Turon izidan" yoki "Jasorat yo'li" kvestlarini o'tkazish – bu yoshlarda faol ishtirok hissini uyg'otadi [10].

Z avlod yangi dunyo qarash egalari bo'lib, ularni an'anaviy metodlar bilan tarbiyalash samara bermaydi. Vatanparvarlik bugun "raqamli formatdagi his"ga aylanmoqda. Shu bois, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida innovatsion, hissiy va interaktiv usullarni qo'llash – zamon talabi, millat kelajagining kafolatidir.

Globalashuv – milliy o'zlikni yo'qotish emas, balki uni yangi bosqichda anglash imkoniyatidir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat harbiy tayyorgarlik emas, balki milliy o'zlikni asrash, ma'naviy mustaqillik va jamiyat xavfsizligini ta'minlaydigan kuchli ruhiy asosdir. Shu bois, ta'lim tizimida bu yo'nalishga ilmiy, innovatsion va hissiy yondashuvni mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – xalqimizning milliy g'oyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.

2. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2022-yil 20-dekabrda 729-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi".

4. Ijtimoiy fikr markazi hisoboti, 2024: rasmiy.gov.uz.

5. MEXT Japan. Moral and Citizenship Education in Japan Schools. – Tokyo, 2022.

6. Karimov A., Juraeva D. (2022). Patriotic Education and Emotional Identification in Adolescents // Tashkent state pedagogical university Journal. – № 4. – P. 87-95.

7. To'xtayev A. Z avlod psixologiyasi va ta'limda yangi yondashuvlar. – T.: Ijtimoiy fikr, 2022.

8. World Health Organization. Adolescent stress and digital overload report 2023. – Geneva, 2023.

9. UNESCO. Digital Youth Identity Report 2023. – Paris, 2023.

10. Akramova Sh.A. Harbiy pedagogika. – T.: HTI, 2019. – 359 b.

11. Karimova N. Vatanparvarlik tarbiyasida media ta'sir mexanizmlari // Ta'lim va innovatsiya. – T., 2024. – № 2.

YOSHLARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH

Alimov Mirsardor, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti katta ilmiy xodimi

O'zbekiston Respublikasi o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurish maqsadini ro'yobga chiqarishni ham yoshlar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashi, vatanparvar bo'lishi, Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini oshirishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ona Vatanga sadoqat hamda harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini singdirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi".

Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha davlat dasturlari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyalari qabul qilingan, yoshlarning vatanparvarlik borasidagi tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi va davlat tomonidan moliyaviy ko'mak beriluvchi ko'plab jamoatchilik asosidagi faxriylar va jamoatchilik tashkilotlari tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya"si qabul qilingan. Unga ko'ra, yoshlarni milliy g'oya va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini mustahkamlash maqsadida harbiy ta'lim-tarbiya beradigan joylarda "Temurbeklar maktabi" tashkil etilgan, turli soha va

tarmoqlarda yuqori natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun “Mard o‘g‘lon” nomli Davlat mukofoti va yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, o‘qishda, mehnatda, jamoat ishlarida har tomonlama faol bo‘lgan yigit-qizlarni taqdirlash maqsadida “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik sinflari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun yetarli bilimga ega bo‘lgan iqtidorli yoshlarni tayyorlashda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Milliy gvardiya tasarrufida Jamoat xavfsizligi universiteti, “Temurbeklar maktabi” va Harbiy musiqa akademik litseyi, shuningdek, respublikamiz bo‘ylab jami 56 ta maktabda, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda 4 tadan maktabda harbiy-vatanparvarlik sinflari faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbarining qaroriga asosan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida barcha umumta’lim maktablarida “Yosh gvardiyachi” sinflari ochilgan. Shunga muvofiq respublikamiz bo‘yicha 121 ta sinf faoliyat boshladi. Ularda 3 ming 253 nafar o‘g‘il-qiz tahsil olmoqda. 2024-2025 yangi o‘quv yilida bu sinflarning soni yanada ko‘paygan. Ushbu sinflarda o‘qish muddati besh yil bo‘lib, 6 sinfni bitirgan o‘quvchilar qabul qilinadi va 7-11 sinflarda tahsil oladi. Maktablarda tashkil qilingan qabul komissiyalari tomonidan mazkur sinflarga kirish istagini bildirgan nomzodlardan tegishli hujjatlar 1 iyuldan 20 iyul kuniga qadar qabul qilinadi. 25 avgust kunigacha belgilangan tartibda jismoniy tayyorgarlik va tegishli fanlar yo‘nalishi bo‘yicha test sinovlari o‘tkaziladi.

Harbiy-vatanparvarlik sinflariga qabul qilish bo‘yicha tanlov teng huquqlilik va qabul qilishning yagona qoidalari asosida amalga oshiriladi. Tanlovning yakuniy natijalari 25 avgust kuni e’lon qilinadi. Milliy gvardiyaning Harbiy musiqa akademik litseyiga nomzodlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29 noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Milliy gvardiya Harbiy musiqa akademik litseyining 5-sinfiga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 4-sinfini bitirgan iqtidorli o‘g‘il-qizlar o‘qishga qabul qilinadi. Nomzodlarning hujjatlari 1 iyundan 20 iyunga qadar qabul qilinadi. Kirish imtihonlari 20-30 iyun kunlari davomida o‘tkazilib, unda nomzodlar ona tili, o‘qish, matematika, psixologik sinov va ijodiy imtihon topshiradi. Kirish imtihonlarining yakuniy natijalari akademik litsey qabul komissiyasi tomonidan 5 iyulgacha ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinadi.

Prezidentimizning 2019-yil 28-iyundagi “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya tarkibida prinsipial yangi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari tashkil etildi. "Temurbeklar maktabi"da o'qish davomiyligi ikki yil bo'lib, litseyning yillik qabul kvotasi 150 nafarni tashkil etadi.

Nomzodlarni o'qishga qabul qilish "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi to'g'risidagi nizom hamda "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylarning ustavi asosida amalga oshiriladi. "Temurbeklar maktabi"ga umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 9-sinfini tamomlagan, sog'lig'ining holatiga ko'ra o'qishga yaroqli deb topilgan hamda haqqoniy va shaffoflik tamoyillariga asoslangan saralash tanlovidan muvaffaqiyatli o'tgan va test sinovlarini topshirib, yuqori natijalarni ko'rsatganlar o'qishga qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-oktyabrdagi qaroriga muvofiq 2024/2025 o'quv yilidan boshlab, Milliy gvardiya Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyiga qiz bolalar ham qabul qilinadi. Bunda saralash bosqichi dastlabki tanlash, harbiy-kasbiy tanlov va test sinovlaridan iborat. Nomzodlar uchun dastlabki tanlash ularning arizalari asosida yashash joyi bo'yicha mudofaa ishlari bo'yicha bo'limlarda 1 apreldan 30 aprelga qadar o'tkaziladi. Unda nomzod to'g'risidagi tegishli hujjatlar va uni tavsiflovchi ma'lumotlar to'planadi. Harbiy-kasbiy tanlash bosqichi nomzodning yashash joyi bo'yicha mudofaa ishlari boshqarmalarida 1 maydan 20 iyun kuniga qadar o'tkaziladi. Unda nomzodning sog'ligi, savodxonlik darajasi, jismoniy tayyorgarligi baholanib, sinovdan o'tganlarning yig'ma jildlari "Temurbeklar maktabi"ning qabul komissiyasiga yuboriladi. Mazkur samarali ishlar davlatimizda o'quvchi-yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasiga qo'shgan hissasi desa bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Ибраимов Х., Куронов М. Умумий педагогика: Дарслик. – Т.: Sahhof, 2023. – 416 б.
2. Постановление Президента № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров» от 21 июня 2022 года.

O'SMIRLARNI MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MADANIY QADRIYATLARNING O'RNI

Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smir yoshidagi bolalarga ijtimoiy-emotsional ta'lim berish jarayonida milliy va madaniy qadriyatlarning o'rnini tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishda oilaviy, mahalliy va madaniy muhitning ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, ijtimoiy-emotsional ta'lim, madaniy qadriyatlar, shaxsiy rivojlanish, milliy identitet

Аннотация. В статье анализируется роль национально-культурных ценностей в процессе социально-эмоционального воспитания подростков. Также раскрывается влияние семьи, местной и культурной среды на формирование социально-эмоциональных навыков.

Ключевые слова: подростковый возраст, социально-эмоциональное воспитание, культурные ценности, личностное развитие, национальная идентичность.

Abstract. This article analyzes the role of national and cultural values in the process of providing socio-emotional education to adolescents. It also reveals the influence of the family, local and cultural environment on the formation of socio-emotional skills.

Key words: adolescence, socio-emotional education, cultural values, personal development, national identity.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini oshirish, balki ularning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllanishiga e'tibor kuchaymoqda. Xususan, o'smirlik davri bu borada eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Shu davrda o'quvchilar nafaqat o'z shaxsini anglay boshlaydi, balki jamiyatdagi o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bunda esa, ijtimoiy-emotsional ta'lim (IET) asosiy rolni o'ynaydi. Ammo bu ta'lim samarali bo'lishi uchun u o'smirning madaniy qadriyatlari, ya'ni oila, jamiyat, milliy va diniy an'analari bilan uyg'un bo'lishi zarur.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim nima?

Ijtimoiy-emotsional ta'lim – bu o'quvchilarda quyidagi asosiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli ta'lim jarayonidir:

O'zini anglash (self-awareness), Emotsiyalarni boshqarish (self-regulation),

Ijtimoiy ko'nikmalar (social skills), Empatiya (empathy), Mas'uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making). Bu ko'nikmalar o'smirning psixologik barqarorligini ta'minlashda, sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda va kelgusida yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega.

Madaniy qadriyatlar va ularning ahamiyati Madaniy qadriyatlar – bu jamiyat tomonidan avloddan-avlodga o'tkazilib kelinadigan, kishilarning axloqiy qarashlari, urf-odatlar, din va e'tiqodlari, hamda milliy identitetini ifodalovchi qadriyatlar majmuasidir. O'smirlar ijtimoiy va emotsional jihatdan rivojlanayotganda, ular ongli yoki ongsiz ravishda madaniy qadriyatlar asosida yo'l tutadilar. Masalan: O'zbek oilalarida hurmat, kattaga itoat, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi qadriyatlar o'smirlarga bolalikdan singdiriladi.

Mahalla muhitida hamjihatlik, birovning dardiga befarq bo'lmaslik, yordamga tayyor turish singari qadriyatlar yosh ongiga ta'sir ko'rsatadi.

Bu qadriyatlar orqali o'smirlar emotsiyalarini boshqarishni, boshqalarni tushunishni va ijtimoiy mas'uliyatni anglashni o'rganadi.

Madaniy qadriyatlar asosida IET berishning afzalliklari Shaxsiy identitetning shakllanishi: Madaniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan o'smir o'z millati, dini, urf-odatlar bilan faxrlanadi va bu unga o'zini anglashda yordam beradi.

Ijtimoiy uyg'unlik: Madaniy qadriyatlar orqali o'smirlar boshqalar bilan muomala qilishni, empatiya va hamjihatlikni o'rganadi. Ichki barqarorlik: Oila va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qadriyatlar o'smirlarga stress, muammolar yoki bosimlarga qarshi tura olishda kuch beradi.

Axloqiy qarorlar qabul qilish: O'zbek milliy qadriyatlarida halollik, sabr, or-nomus, vafo kabi tushunchalar asosida tarbiyalangan o'smir axloqiy jihatdan to'g'ri qarorlar qabul qilishga intiladi.

Oila bilan hamkorlik: IET dasturlari oiladagi qadriyatlar bilan uyg'un bo'lishi lozim. Ota-onalarning farzandga bergan axloqiy ta'limi maktabdagi IET jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Milliy urf-odatlarini integratsiya qilish: O'quv jarayoniga milliy bayramlar, maqollar, xalq ertaklari va qahramonlar orqali madaniy qadriyatlarni singdirish mumkin.

O'qituvchilarning madaniy sezgirligini oshirish: Pedagoglar turli madaniy qatlamlardan kelgan o'quvchilarning qadriyatlarini hurmat qilgan holda dars olib borishi muhim.

O'smirlarga ijtimoiy-emotsional ta'lim berishda madaniy qadriyatlarning o'рни beqiyosdir. Madaniyat, qadriyat va emotsional rivojlanish bir-birini to'ldiruvchi omillardir. O'zbek xalqining boy madaniy merosi, urf-odatlar va an'analari asosida berilgan ijtimoiy-emotsional ta'lim yosh avlodning barkamol inson sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi. Shu boisdan ham IET jarayonlari har bir o'quvchining madaniy va milliy ildizlariga moslashtirilgan holda tashkil etilishi zarur.

Adabiyotlar

1. G'ofurov, Q. (2020). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Jo'raev, M., Tadjibayeva, D. (2022). O'smirlar psixologiyasi va tarbiyasi // O'zbekiston pedagogik jurnali, № 2, 45-52.
3. Elias, M.J., Zins, J.E., Weissberg, R.P. (1997). Promoting social and emotional learning: Guidelines for educators. Alexandria, VA: ASCD.
4. OECD (2015). Skills for social progress: the power of social and emotional skills. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264226159-en>
5. Karimov, S. (2019). Milliy qadriyatlar va zamonaviy tarbiya // Ma'naviyat. – T., № 4, 27-31.
6. CASEL (2020). Core SEL competencies. Collaborative for academic, social, and emotional learning. <https://casel.org/>
7. Xasanov, A. (2021). O'zbek xalq ertaklari orqali bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish // Bolalar psixologiyasi va tarbiyasi, № 1(3), 15-20.
8. Vygotsky L.S. (1978). Mind in society: the development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. UNESCO (2021). Social and emotional learning: Policy recommendations to improve learning and equity. <https://unesdoc.unesco.org/>

MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM-TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

**Jabbarov Zarifboy Rustamovich,
O'zMU Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi dotsenti**

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda individual va differensial texnologiyalarning ahamiyati, ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi imkoniyatlari yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quvchilarning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olib, milliy qadriyatlar, tarixiy meros va Vatanga muhabbatni rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, vatanparvarlik, individual texnologiyalar, differensial texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, tarbiyaviy jarayon.

Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarni milliy g'oya va qadriyatlarga sodiq, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash O'zbekiston ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shaxsda milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirish nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda individual va differensial texnologiyalarning o'zni beqiyosdir, chunki ular o'quvchilarning yosh, psixologik, bilish va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish imkonini beradi.

Mazkur texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish orqali o'quvchilarni milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati, Vatanga sadoqat kabi sifatlar asosida shakllantirish mumkin.

Milliy g'urur va vatanparvarlik tushunchalari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" konsepsiyasida muhim ijtimoiy-pedagogik mezon sifatida ko'rsatilgan [1].

Milliy g'urur – bu shaxsning o'z xalqining tarixiy merosi, madaniy qadriyatlari, milliy g'oyalari bilan faxrlanishi va ularni rivojlantirishga intilishi.

Vatanparvarlik – Vatanga muhabbat, xalq manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik, o'z mehnati bilan mamlakat ravnaqiga hissa qo'shishdir. Vatanga sadoqat, uni himoya qilish, taraqqiyotiga hissa qo'shish, xalq manfaatlarini ustuvor qo'yish fazilatlarini o'z ichiga oladi. U faqat hissiy holat emas, balki faol ijtimoiy xulq-atvorni ham ifodalaydi. Bu tushunchalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, milliy g'urur vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlaydi, vatanparvarlik esa milliy g'ururni amaliy faoliyatda namoyon etadi.

Mazkur sifatlarni shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosiy metodologik asos sifatida qaraladi (Maslou, 1999; Rojers, 1994). Bu yondashuv har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini ochish, o'ziga xosligini hurmat qilish va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Pedagogik nazariyalar orasida quyidagi yondashuvlar mazkur mavzuni yoritishda muhim o'rin tutadi:

Faoliyatli yondashuv (L.S.Vygotskiy, A.N.Leontev) – bilim va qadriyatlarni faoliyat jarayonida shakllantirishni ta'kidlaydi;

Madaniy-tarixiy yondashuv – milliy qadriyatlarni tarixiy kontekstda o'rganish zaruratini belgilaydi;

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi – o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi, individual rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi [5].

Individual texnologiyalar – o'quvchining shaxsiy qobiliyati, ehtiyoji, motivatsiyasi va bilish darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi tizimdir. Bu yondashuvda har bir o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasi aniqlanadi.

Differensial texnologiyalar esa o'quvchilarning bilimi, qobiliyati, ijtimoiy faolligi, qiziqish darajasiga ko'ra farqlangan shaklda ta'lim va tarbiya berishni nazarda tutadi.

Mazkur texnologiyalar quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

o'quvchilarning milliy qadriyatlar haqidagi bilimlarini kengaytirish;

milliy g'urur hissini shaxsiy tajriba asosida shakllantirish;

vatanparvarlikni ijtimoiy faoliyat orqali mustahkamlash;

ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga moslashtirish.

Individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Diagnostika bosqichi – o'quvchilarning milliy qadriyatlar bo'yicha bilim, motiv va hissiy tajribasini aniqlash [6].

Motivatsion bosqich – milliy qahramonlar, ramzlar, tarixiy obidalar asosida o'quvchilarda ijobiy hissiy kayfiyat hosil qilish.

Faoliyat bosqichi – loyihalar, tadqiqot ishlari, milliy bayramlar va madaniy tadbirlarda ishtirok etish orqali tajriba hosil qilish.

Refleksiya bosqichi – o'quvchining shaxsiy fikr-mulohazasini shakllantirish, milliy qadriyatlarga ongli munosabatni rivojlantirish.

Ushbu bosqichlar orqali har bir o'quvchi milliy qadriyatlarni shaxsiy ongida qayta anglaydi va amaliy faoliyatda aks ettiradi.

Differensial yondashuv o'quvchilarning qiziqishlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olib, ularni quyidagi shakllarda tarbiyalash imkonini beradi:

Vaziyatli o'yinlar: "Men Vatan himoyachisiman", "Mening Vatanim – faxrim" mavzularida rol o'yinlar.

Differensial topshiriqlar: yuqori darajadagi o'quvchilarga tahliliy esse, o'rta darajadagilarga ma'lumot to'plash, boshlang'ich darajadagilarga suhbat va savol-javoblar.

Loyiha faoliyati: "Milliy qahramonlar hayoti", "O'zbekistonning faxrli farzandlari" kabi tadqiqot ishlari [7].

Bu shakllar o'quvchilarni faol subyekt sifatida shakllantiradi, ularni milliy qadriyatlar tizimiga integratsiyalaydi.

Individual va differensial texnologiyalar quyidagi ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarni yaratadi:

o'quvchilarning milliy o'zlikni anglashini chuqurlashtiradi;

shaxsda Vatanga sadoqat, mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi;

milliy qadriyatlar asosida o'quv motivatsiyasini oshiradi;

o'quvchi shaxsining individual imkoniyatlarini rivojlantiradi;

ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi.

O'quvchilar milliy tarixdagi buyuk siymolar – Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini o'rganish orqali milliy g'urur hissini shakllantiradi. Loyihaviy faoliyatlar:

"Bobom izidan boraman", "Tarixdan saboq", "Men vatandoshim bilan faxrlanaman" kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Milliy g'oya va vatanparvarlik ruhidagi insholar, she'rlar, sahna ko'rinishlari, devoriy gazetalar, "Vatanim mening faxrim" tanlovlari orqali o'quvchilar his-tuyg'ularini ifoda etadilar.

Har bir o'quvchining individual fazilatlari va qiziqishlarini inobatga olib, milliy qadriyatlar asosida shaxsiy rivojlanish rejalari ishlab chiqiladi.

"Aqliy hujum", "Klaster", "Fikrlar charxi", "Debat", "Rol o'yinlari"; "Men Vatanim uchun nimalar qilaman?" mavzusida muhokamalar.

Bu faoliyatlar orqali o'quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy faxr, mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollik rivojlanadi.

Milliy g'urur va vatanparvarlikni rivojlantirishda individual va differensial texnologiyalar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlab, har bir o'quvchining imkoniyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotiraga ehtirom, Vatanga muhabbat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Natijada o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik pozitsiyasi va milliy o'zligi mustahkamlanadi.

Ilmiy tahlil va amaliy tavsiyalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishda individual va differensial texnologiyalarni kompleks qo'llash samarali natijalar beradi. Shaxsiy yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni ularning:

milliy o'zligini anglashini;

ajdodlar merosiga hurmatni;
Vatanga sadoqat hissini;
ijtimoiy faolligini;
ma'naviy barkamolligini oshiradi.

Amaliy tavsiyalar: o'quv rejalari va dasturlariga milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan mavzularni integratsiya qilish.

Individual o'quv yo'nalishlarini ishlab chiqish, o'quvchilarni shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi asosida qo'llab-quvvatlash.

Tarix, adabiyot, ona tili, ma'naviyat darslarida interfaol metodlar asosida milliy qadriyatlarni singdirish.

Vatanparvarlik mavzusida loyihalar, musobaqalar, uchrashuvlar, ekskursiyalar tashkil etish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. – T., 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T., 2021.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – T., 1997.
4. Maslow A.H. Motivation and personality. – New York: Harper & Row, 1999.
5. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill, 1994.
6. Vygotsky L.S. Mind in society: the development of higher psychological processes. – Harvard University Press, 1978.
7. Abdullaeva N., Xoliqulova D. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2022.

MILLIY KONTENT VOSITASIDA O'QUVCHILARNING KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY ASARLARNING AHAMIYATI

Kamoljonova Dilfuza Xoldorovna,
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada farzand tarbiyasida badiiy adabiyoning o'rni, tarbiyada didaktik asarlar tahlili bilan tanishasiz.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, badiiy adabiyot, tarbiya, mutolaa, xulosa.

Аннотация. В статье вы познакомитесь с ролью художественной литературы в воспитании детей, с анализом произведений в духе панд-увещаний.

Ключевые слова: образование, воспитание, художественная литература, воспитание, чтение, заключение.

Abstract. In the article you will get acquainted with the role of fiction in the upbringing of children, the analysis of works in the spirit of Pand-admonition.

Key words: education, upbringing, fiction, upbringing, reading, conclusion.

Inson yashashi, rivojlanishi uchun bir qancha faktorlarga ehtiyoj sezadi. Moddiy ehtiyojlari bilan bir qatorda, aql, tafakkur ham hamisha ozuqa olishi, ma'nan boyib borishi zarur. Mutolaa orqali inson tafakkuri yuksaladi, rivojlanadi.

Tarbiya – pedagogik jarayon bo'lib, kishilarda jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratiladi [1]. Farzand tarbiyasida badiiy adabiyot muhim rol o'ynaydi. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida: "Bu jahon bir ziroatgohdir, har nima eksang, shuni o'rasan, har na so'z desang, shuning javobini eshitursan", – deydi. Farzand tarbiyasi ham nihoyatda mas'uliyatli vazifa bo'lib, bolaning qanday shaxs bo'lib etishishi olgan tarbiya va ta'limiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bola kitob orqali qanday tarbiyalanadi? Badiiy adabiyot kichik kitobxonga nimalar bera oldai? Kitob – arabcha so'zdan olingan bo'lib, yozilgan, muqovalangan asar ma'nosini anglatadi. Kitoblar o'zida ma'lum bir g'oyalarni ilgari surib, o'quvchiga estetik zavq beradi. YUNESKO tavsiyasiga ko'ra, 48 varoqdan kam bo'lmagan, bosma taboqqa ega, davriy bo'lmagan nashrni shartli ravishda kitob, deyish qabul qilingan [2].

Adabiyot nima? – arab tilidan olingan bo'lib, adab so'zining ko'plik shaklidir. Biror soha, mavzuga ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar, asarlar majmui.

Badiiy asarlar o'quvchiga estetik zavq berishi, dunyoqarashini shakllantirishi bilan birga, tarbiyalovchi funksiyaga ega. Kichik yoshdagi bolalarga kitob tanlashda, adabiyotning shu jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining 27-bobida "Otadan farzand xaqalaridan

biri go'dakga chiroyli ism tanlash, uni yaxshi xulq bilan parvarishlash bilan bir qatorda, o'qishni o'rgatish farz" ekanligi to'g'risida so'z boradi.

Farzand tarbiyasida oilaviy muhit katta rol o'ynaydi. Sog'lom muhit, urf-odat va an'analar, chiroyli tarbiya ostida voyaga etgan farzandlar kelajakda komil insonlar bo'lib ulg'ayadilar [3].

Tarbiya – o'zidan kichiklarga eng yaxshi, eng chiroyli xulqlarni o'rgatish, ezgu xulqni yoshlar ongiga singdirishdir. Har bir kishi ikki xil yo'l bilan, birinchisi bilvosita, ya'ni kattalardan ularning tajribalarini o'rganish orqali, ikkinchisi bevosita, o'z hayotiy tajribalari orqali egallaydi.

Kichik yoshdagi bolalarga kitob o'qib berish ham komil tarbiyaning bir qismidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining birinchi kitobi – bu ertak kitoblaridir. Nima uchun bolaga tunda uyquga yotishdan avval ertak o'qib beriladi? Rus ruxshunoslari bolaga tunda ertak o'qib berish uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, hayotda sodir bo'ladigan turli voqea-hodisalarga to'g'ri nuqtai-nazar orqali qaray olishini fanda isbotlashgan. Oddiy hayotiy misollar orqali yaxshi va yomonni oq va qorani bir biridan ajratishni o'rganadi [4].

Buning uchun bolaga ertaklarni to'g'ri tanlab, aytib berish kerak. Ertak zahirida yaxshilik, ezgulik bo'lishi zarur. Ertak bolaga voqea-hodisalar ustidan xulosa qilishni o'rgatadi, unda kattalarni tinglash kompetensiyasi rivojlanadi. Ertak kichiklarga yashashni o'rgatadi. Ertakda ko'p hollarda qahramonlar turli qiyinchiliklarga duch keladilar va ularni aql, sabr, kuch va idrok orqali engib o'tadilar. Bolalar ham turli asar syujetlarini eshitish orqali o'zlarida qiyinchiliklarga qarshi kurashishga nisbatan ong osti immunitetni hosil qiladi. Bolada ijobiy fazilatlarini shakllantiradi. Kimgadir yaxshilik qilishsa, yaxshilik, aksincha, hasad, yomonlik qilishsa, yomonlik qaytishini bilishadi. Bolani biror nomaqbul xatti-harakati uchun jazolashdan oldin unga shu mavzuga oid ertak o'qib bering. Ertak orqali bola ota-onaning mehrini his etadi, ertakning nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham foydasi katta. Ota-onalar bolasiga ertak aytib berayotgan vaqtida turli stress holatlarini unitib, ichki xotirjamlikga erishadilar.

Bolalarni tez-tez kutubxonaga olib borish, ulardagi bir qancha salbiy odatlarning oldini olib, ijobiy vazilatlar hosil qiladi: Bola kitobga mehr qo'yish kerakligini o'rganadi. Bola kutubxonada o'zini qanday tutish madaniyatini o'rganadi. Badiiy adabiyotlarni bir-biridan farqlay olish didi shakllanadi. Tinch va sokin muhitda soatlab kitob o'qish orqali tinchlanishni o'rganadi.

Finlandiya ta'lim sifati bo'yicha dunyoda etakchi mamlakatga aylandi.

Ta'lim sifatining oshishiga bevosita fanlarni yaxshi o'zlashtirish, o'zlashtirish, deganda, o'qish va uni tushinish kiradi. Ta'lim erkinlik va qulaylik asosiga qurilgan. Uyga vazifa tarzida kutubxonaga, teatrlarga borishni topshiriq qilib berishadi. Olimlar muntazam ravishda ertak eshitgan bolalarning so'z boyligi

ko'p bo'lishi, tasavvur va xotirani yaxshilashini aniqladilar. Kitobxona bola uchun bilimlar xazinasi, ilmiy tadqiqot laboratoriyasiga aylanishi kerak. Kitob mutolaasi kognitiv, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bola 4-5 yosh oraliq'ida uning so'z zaxirasi boyib, nutqi rivojlanadi. Bu yoshda ota-onalar bolaning diqqat-e'tiborini narsa-buyumlarning nomlanishi, ular nima vazifani bajarishi va qanday xususiyatga ega ekaniga qaratishi zarur. Bunda bolajonlarga kichik matnli, o'zbek xalq eratkilarini o'qib berish tavsiya etiladi. 6-7 yoshli bolalar endi o'qishni o'rgangan bo'lsa bu yoshdagi bolalarga ixcham, kichik hajdagi, rangli kitoblarni olib berish tavsiya etiladi [5].

Kitob bizga yangi bilim, yangi ko'nikmalarni beradi. Til boyligimizni oshiradi, sarguzasht qissalar tasavvurimizning chegaralarini kengaytiradi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, kitob o'qiganda bolalarning asab tizimi dam oladi, ruhiy bosimlardan xalos bo'lishini ko'rsatdi. 1-jadval.

3-4-sinf o'quvchilari uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:

№ Kitob nomi Asar muallifi

1. G'afur G'ulom "Shum bola"
2. Anvar Obidjon "Quyoning tug'ilgan kunida"
3. Xudoyberdi To'xtaboyev "Peshonasiga televizor yopishgan bolaning sarguzashtlari"
4. Tursunboy Adashboyev "Nasibaning olmasi" "Tadbirkor jo'ja"
5. Kavsar Turdiyeva "Xatolar mamlakati"
6. Dilshod Rajab "Poetning bolasi"
7. Orif To'xtash "Har doim bo'lsin quyosh"
8. Muazzam Ibrohimova "Sumalakxo'r samolyot"
9. Dilfuza Kamoljonova "Katak daftardagi shumtakalar"
10. Qobiljon Shermatov "Buvamning oshqozonidagi mamlakat"

Kitobxonlik kompetensiyalarining rivojlanishi

Ko'rsatgichlar 4-sinf o'quvchilarida tajriba guruhida 4-sinf o'quvchilarida sinov Guruhida

O'qish tezligi 100-110 ta so'z 80-90 ta so'z

Inshoda fikrini ifoda etishi Ravon, imlo xatolar dechrlil uchramaydi. Fikrlar tarqoq, imlo xatolar ko'p uchraydi.

Hikoyani o'qib gapirib berishi Hikoyadagi voqealar rivojini ketma ketlikda eslab qoladi, syujetlarni to'liq gapirib bera oladi Hikoyada voqealar rivojini to'liq ifoda eta olmaydi. Fikrlar tarqoq.

Boshqa fanlarni o'zlashtirishga ta'siri Boshqa fanlarni ham yaxshi o'zlashtiradi. Darslikdagi barcha ma'lumotlarni o'qib, o'zlashtiradi. Faqatgina o'zi qiziqqan qanlarni o'zlashtira oladi. Qahramonlar bilan birga his-tuyg'ularni boshidan kechirish, hayoliy do'stlar bilan vaqt o'tkazish imkonini beradi.

Kitoblar tajriba loyihalariga o'xshaydi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kitob o'qishni targ'ib qilish, kitobxon bolalarni rag'batlantirib borishi zarur.

AQShlik olim Doktor Sarax MkGeovn boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Kitobxonlikning bolalar ongiga ta'siri"ni o'rganadi. O'qituvchilar uchun "Bolaga mutolaani zavq bilan o'rgatish" o'quv qo'llanmasini yaratadi. Qo'llanma ta'lim va o'qitish provayderi "Renaissance Learning" (AQSh Viskonsin shtati) bilan hamkorlikda Milliy savodxonlik 2020 tadqiqotlariga asoslanib yaratilgan.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra AQShlik o'quvchilarning har 4 dan 1 o'quvchi (25,8%) darsdan tashqari bo'sh vaqtda kitob o'qiydi. 50 foizdan ko'proq o'quvchi kitob o'qishdan yangi bilim olishlari va bundan xursandligini aytishdi. 2021-yilda olingan so'rovnomalar tahlili 50 foizdan ko'proq o'quvchining oilasi ta'til payti farzandining kitob mutolaa qilishini qo'llab-quvatlashini bildirgan. Mutolla o'quvchiga bilim, zavq berish bilan birga kishilarning ko'plab iqtidorlarini ochadi [6]. Buning uchun o'quvchilar kitobni ko'p va muntazam o'qishlari zarur. Kitobxonlik tilni ravonlashtiradi, savodxonlikni yaxshilaydi, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bolaning qiziqishlarini inobatga olgan holda, o'qishga doimiy rag'batlantirish maktab va oilada kitobxonlik muhitini yaratish o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar

1. Umumiy pedagogika. X.Ibrimov, M.Quronov. – T.: Shaffof, 2023.
2. Mirzaolimov B. Yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2016, – 143-b.
3. Маклаков А.Г. Общая психология. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2003. – 287 с.
4. Mustafoyev Sh.N. Badiiy to'garaklarda talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash. Ped. Fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent, 2018. 178 b.
5. Muslimov N.A., Sh.S.Sharipov va boshqalar. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari. – T., 2009.-69 b.
6. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish. – T.: Fan nashriyoti, 2004. – 130 b.

O'QUVCHILARINI MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Karaboyeva Mahliyo Qodirjonovna,
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Vatan tushunchasi uning inson hayotidagi ahamiyati, fuqorolarni Vatan oldidagi burchlari, yosh avlodni vatanparvar qilib tarbiyalashning ahamiyati va usullari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik jamoaning o'ri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Vatan, kelajak, pedagogik jamoa, o'quvchilar, loyihalar, hamkorlik, xalq.

Vatan bu inson tug'ilib o'sgan, o'zini unga mansub his qiladigan muqaddas zamin demakdir. U faqat geografik hudud emas, balki odamning qalbi, xotiralari va hayotiy qadriyatlariga bog'langan tushunchadir. Vatan so'zi o'zbek tilida chuqur hissiy ma'noga ega bo'lib, milliy o'zlik va mehr-oqibat bilan bog'liq. U insonning o'z xalqi, madaniyati va tarixi bilan aloqasini anglatadi. Har bir shaxs uchun vatan o'ziga xos ma'no kasb etadi, lekin uning umumiy mohiyati – sevgi va sadoqatdir. Vatan bu insonning o'ziga xos o'zlik tuyg'usini shakllantiradigan muhim tushunchadir. U faqat tug'ilgan joy emas, balki odamning qalbi bilan bog'langan muqaddas makondir. Masalan, o'zbek xalqi uchun vatan o'z tarixi, tili va an'analari bilan ifodalanadi.

Vatan inson hayotida hissiy va ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi. U odamlarni birlashtiradi va ularni umumiy maqsadlar sari yo'naltiradi. Vatan tuyg'usi odamga o'z jamiyatiga foyda keltirish istagini uyg'otadi. Bu tushuncha har bir shaxs uchun turlicha talqin qilinadi. Kimdir uchun vatan – bu ota-onasi yashagan qishloq, boshqalar uchun esa butun mamlakatdir. Ammo umumiy jihat shundaki, vatan har doim sevgi va hurmat tuyg'usini uyg'otadi. Vatan tushunchasi faqat shaxslar bilan cheklanmaydi. U milliy o'zlik va davlatchilikning asosini tashkil qiladi. Vatan tuyg'usi jamiyatni mustahkamlaydi va uning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Vatan insonning shaxsiy o'sishi va dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Tug'ilgan joyning madaniyati, tili va an'analari shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, o'zbekona mehr-oqibat va mehmondo'stlik vatan ta'sirida shakllanadi. Shaxs o'z vataniga sadoqat hissi orqali jamiyatga foydali bo'lishga intiladi. Bu tuyg'u odamni o'z xalqi uchun ishlashga, uni himoya qilishga undaydi. Vatansevarlik shaxsning hayotiy maqsadlarini aniqlashga yordam beradi.

Biroq vatan tuyg'usi har doim ijobiy bo'lishi shart emas. Ba'zida odamlar o'z vatanlarida qiyinchiliklarga duch kelsa, bu tuyg'u murakkablashishi mumkin. Ammo vatan bilan bog'liq xotiralar har doim shaxs qalbida muhim o'rin tutadi.

Vatan shaxsning o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Har qanday taraqqiy topgan jamiyatning asosiy tayanchi – bu bilimli, vatanparvar, ma'naviy yetuk yosh avlodidir. Shu bois o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi har bir davlatning, xususan, O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy siyosatida alohida o'rin egallaydi. Chunki, Vatanga muhabbat, xalq va millatga sadoqat, tarix va madaniyatga hurmat tuyg'usi – davlat mustahkamligining, jamiyat barqarorligining asosi sanaladi. Vatanparvarlik – ma'naviy barkamollikning asosiy mezon. Vatanparvarlik – bu shunchaki hissiyot emas, balki ongli ravishda Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni his qilish, uni asrash va ravnaqiga hissa qo'shishga intilishdir. Ushbu tushuncha o'quvchilar qalbida yoshlikdan boshlab shakllantirilsa, ular jamiyatda faol, fidoyi, halol va sadoqatli fuqaro sifatida voyaga yetadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarda milliy g'urur, tarixiy xotira, ona tilga hurmat, madaniy merosga e'tibor kabi fazilatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi vatanparvarlikni targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining davlat siyosatidagi ifodasini quyidagilar orqali ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining ta'lim va tarbiya sohasidagi hujjatlarida vatanparvarlik tarbiyasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda:

1. Me'yoriy-huquqiy asoslar: "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Milliy taraqqiyot strategiyalarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, vatanparvar, yurt taqdiriga befarq bo'lmagan shaxslar sifatida tarbiyalash vazifasi aniq ko'rsatilgan.

2. Davlat dasturlari: "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" g'oyasi asosida maktab tizimida milliy g'oya, tarixiy xotira va vatanparvarlikni mustahkamlashga qaratilgan ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida yoshlarning ongini yot g'oyalardan himoya qilish va ularni sog'lom ijtimoiy muhitda tarbiyalash masalasi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Maktab – shaxs kamolotining boshlang'ich bosqichi bo'lib, unda shakllanadigan qadriyatlar butun hayot davomida insonga yo'ldosh bo'ladi. Shu bois maktab ta'limida vatanparvarlik tarbiyasiga ustuvor o'rin berilishi lozim.

O'qituvchilar hamkorlikda ishlaganda o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirish yanada samarali bo'ladi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

Birgalikda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish: o'qituvchilar fanlararo integratsiya orqali vatanparvarlik mavzularini ta'lim jarayoniga kiritishlari mumkin.

Masalan, tarix, adabiyot, va jamiyatshunoslik fanlarida milliy qadriyatlar, qahramonlar, madaniyat haqida darslar tashkil etish.

Loyiha va tadbirlar tashkil etish: hamkorlikda o'quvchilarga vatanparvarlik mavzularida loyiha ishlari, insho yozish, ma'ruzalar tayyorlash, ekskursiyalar va madaniy tadbirlar o'tkazish.

Jamoaviy va jamoatchilik faoliyatiga jalb qilish: O'qituvchilar o'quvchilarni jamoaviy ishlar, ko'ngillilik harakatlari, milliy bayramlar va an'analarni nishonlashga jalb qilish orqali ularning milliy ongini kuchaytiradi.

Vatanparvarlik qoidalarini amaliy hayotda namoyish etish: o'qituvchilar o'zlari ham vatanparvarlik qadriyatlarini namoyish qilib, o'quvchilarga yaxshi namuna bo'lishlari kerak.

O'qituvchilar birgalikda ishlaganda, o'quvchilarda vatanparvarlik hissi chuqurroq va barqarorroq shakllanadi. Bolalar o'zlarining tanqidiy-tahliliy dunyoarashi shakllangunga qadar kattalarning nafaqat nasihatlar balki ularni o'zini tutishi, gap-so'zlari, bajarayotgan amallaridan ham tarbiya oladilar o'rganadilar. Ushbu nazariyani hisobga olgan holda har bir yetuk shaxs jamoat joylardagi, ta'lim maskanlarida, o'z xatti-harakatlarini nazoratga olishi lozim.

O'qituvchilarning vatanparvarligi – bu shunchaki shaxsiy hissiyot emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Ular yosh avlod qalbida milliy g'urur, tarixiy xotira, madaniy ong va fuqarolik mas'uliyatini uyg'otuvchi asosiy kuchdir. O'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati vatanparvarlikni samarali va tizimli tarzda shakllantirish imkonini beradi.

Shu bois, o'qituvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayoniga milliy qadriyatlarni chuqur integratsiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevral PF4947-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida»gi Qonun.
4. Sayfullayev B., Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – T., 2016.
5. Xoji Ahmadjon Bobomurod. (2008). Islom odobi va ahloqi. – T., 15 b.
6. Talaboyev A., Akbarov T., Haydarov A. The European Journal of arts. Issue 1/2020.

Masalan, tarix, adabiyot, va jamiyatshunoslik fanlarida milliy qadriyatlar, qahramonlar, madaniyat haqida darslar tashkil etish.

Loyiha va tadbirlar tashkil etish: hamkorlikda o'quvchilarga vatanparvarlik mavzularida loyiha ishlari, insho yozish, ma'ruzalar tayyorlash, ekskursiyalar va madaniy tadbirlar o'tkazish.

Jamoaviy va jamoatchilik faoliyatiga jalb qilish: O'qituvchilar o'quvchilarni jamoaviy ishlar, ko'ngillilik harakatlari, milliy bayramlar va an'analarni nishonlashga jalb qilish orqali ularning milliy ongini kuchaytiradi.

Vatanparvarlik qoidalarini amaliy hayotda namoyish etish: o'qituvchilar o'zlari ham vatanparvarlik qadriyatlarini namoyish qilib, o'quvchilarga yaxshi namuna bo'lishlari kerak.

O'qituvchilar birgalikda ishlaganda, o'quvchilarda vatanparvarlik hissi chuqurroq va barqarorroq shakllanadi. Bolalar o'zlarining tanqidiy-tahliliy dunyoarashi shakllangunga qadar kattalarning nafaqat nasihatlar balki ularni o'zini tutishi, gap-so'zlari, bajarayotgan amallaridan ham tarbiya oladilar o'rganadilar. Ushbu nazariyani hisobga olgan holda har bir yetuk shaxs jamoat joylardagi, ta'lim maskanlarida, o'z xatti-harakatlarini nazoratga olishi lozim.

O'qituvchilarning vatanparvarligi – bu shunchaki shaxsiy hissiyot emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Ular yosh avlod qalbida milliy g'urur, tarixiy xotira, madaniy ong va fuqarolik mas'uliyatini uyg'otuvchi asosiy kuchdir. O'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati vatanparvarlikni samarali va tizimli tarzda shakllantirish imkonini beradi.

Shu bois, o'qituvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayoniga milliy qadriyatlarni chuqur integratsiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevral PF4947-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida»gi Qonun.
4. Sayfullayev B., Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – T., 2016.
5. Xoji Ahmadjon Bobomurod. (2008). Islom odobi va ahloqi. – T., 15 b.
6. Talaboyev A., Akbarov T., Haydarov A. The European Journal of arts. Issue 1/2020.

YOSHLARNI MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – ZAMON TALABI

Karimov Komiljon Abduraximovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti "Inklyuziv ta'lim-tarbiya metodikasi
ilmiy-tadqiqot" bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uning asosiy tamoyillari, metodik yondashuvlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Bugungi globallashtirish sharoitida yoshlar ongiga milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tuyg'usini singdirishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Tayanch so'zlar: yoshlar, vatanparvarlik, tarbiya, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat.

Har qanday jamiyat o'z kelajagini yoshlar timsolida ko'radi, ularga berilayotgan ta'lim-tarbiya sifati esa, davlat taraqqiyoti va barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashtirish, axborot xuruji, g'oyaviy tahdidlar davrida yoshlarda milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy xotiraga hurmat, ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni shakllantirish – dolzarb vazifalardan sanaladi.

Vatanparvarlik – bu faqat rasmiy bayonot yoki tantanali so'zlar emas, balki yurt taqdiriga befarq bo'lmaslik, uning taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shishga intilish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, xalq tarixidan faxrlanish kabi yuksak fazilatlarning uyg'unligidir. Demak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu faqat pedagogik vazifa emas, balki ijtimoiy-ma'naviy jarayon, milliy xavfsizlik va mustahkam fuqarolik jamiyatining kafolatidir.

Vatanparvarlik nafaqat yurtga muhabbat, balki uning taraqqiyoti, osoyishtaligi va tinchligiga o'z hissasini qo'shish, yurt sha'nini himoya qilishga tayyorlik, tarixiy xotiraga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqatdir. Bu tuyg'u har bir insonda bolalikdan shakllanib boradi va hayot davomida mustahkamlanadi.

Vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati vatanparvarlik yurakka singgan yurt tuyg'usi, jamiyatga bo'lgan sadoqat, xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishdir. U quyidagi tarkibiy qismlar orqali namoyon bo'ladi bularga. Milliy g'urur – xalq tarixiga, ajdodlar merosiga hurmat, fuqarolik mas'uliyati – qonunlarga itoatkorlik, ijtimoiy faol bo'lish, fidoyilik – yurt mustaqilligi va taraqqiyoti yo'lida xizmat qilishga tayyorlik, ma'naviy barkamollik – halollik, poklik, odoblilik, xushmuomalaliklar kiradi. Bu fazilatlar bolalikdan boshlab, oilada, maktabda, jamiyatda izchil ravishda shakllantirilishi lozim. Yana bir vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo'nalishlari biri, Oilaviy tarbiya hisoblanadi oila – jamiyatning eng muhim bo'g'ini bo'lib, bola birinchi

ma'naviy saboqni aynan oilada oladi, ota-ona o'z harakati, yurish-turishi, yurtga bo'lgan munosabati orqali farzandiga namuna bo'ladi, ota-onaning vatanga mehr, ajdodlar ruhiga hurmat, o'zligini anglab yashashi – farzandda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi.

Maktab va oliy ta'lim tizimi, ta'lim muassasalari vatanparvarlik tarbiyasining tizimli asosidir bo'lib maktab va oliygoh darslarida Tarix, adabiyot, "Ma'naviyat asoslari" fanlari orqali milliy ong mustahkamlanadi; Sinfdan tashqari tadbirlar – davra suhbatlari, adabiy kechalar, sport musobaqalari orqali yoshlar ongida jamoaviylik, fidoyilik, milliy iftixor tuyg'usi shakllanadi; Harbiy-sport to'garaklari yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlaydi.

Axborot vositalari va internet makoni Zamonaviy yoshlar ko'proq virtual olam orqali axborot oladi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi kontentlar: qisqa videoroliklar, motivatsion lavhalar, milliy qahramonlar haqida hikoyalar tayyorlash va tarqatish juda muhim.

Davlat va jamoatchilik tashkilotlari "Yoshlar ishlari agentligi", "Ma'naviyat va ma'rifat markazi", "Mahalla" jamg'armasi kabi tashkilotlar tomonidan yoshlar uchun mo'ljallangan harbiy-vatanparvarlik lagerlari, seminarlar, vatanparvarlik festivallari, ijtimoiy loyihalar tashkil etilishi yoshlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Milliy qadriyatlar va tarixiy meros asosida tarbiya Yurtimiz tarixida buyuk siymolar – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy kabi shaxslar o'z vatani uchun jon fido qilgan, ilm-fan, adabiyot, davlat boshqaruvi sohasida ulkan yutuqlarga erishgan. Ularning hayoti, ijodi, davlatga sadoqati yoshlar uchun ibrat maktabidir.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiya Milliy urf-odatlar, til, din, tarixiy meros va buyuk ajdodlar xotirasi – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ular misolida fidoyilik, jasorat, bilimga chanqoqlik va millatga sadoqat tarbiyalanadi. Shuningdek, Ona tilimizga hurmat, urf-odat va an'analarni saqlash, mahalliy liboslar, milliy taomlar, xalq ijodi namunalarini qadrlash orqali ham vatanparvarlik tarbiyasi mustahkamlanadi.

G'oyaviy tahdidlarga qarshi immunitet shakllantirish Bugungi kunda ayrim g'arblik g'oyalar, begona madaniyat, individualizm va erkinlikni noto'g'ri tushunish, diniy ekstremizm singari xavf-xatarlar yoshlar ongini zaiflashtirmoqda. Ularga qarshi quyidagicha yondashuvlar samarali, Tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish; G'oyaviy tarbiyani mustahkamlash; Ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish; Yoshlarni ijtimoiy loyihalarga keng jalb qilish.

Tarbiyaviy jarayonning asosiy yo'nalishlari, Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borilishi lozim: Oilaviy tarbiya: Vatanparvarlik tuyg'usining ilk poydevori aynan oila bag'rida qo'yiladi. Ota-ona

farzandida ona yurtga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirishi kerak.

Maktab va ta'lim muassasalari dars jarayonlarida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda tarixiy shaxslar, buyuk ajdodlarimiz merosi, mustaqillik g'oyasi asosida tarbiyaviy ishlar yo'lga qo'yilishi zarur. Ommaviy axborot vositalari va internet: Yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi eng kuchli omillardan biri bu – media. Shu sababli, vatanparvarlik ruhidagi filmlar, ijtimoiy roliklar, maqolalar, motivatsion lavhalar muhim ahamiyat kasb etadi. Sport va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari; Sport musobaqalari, harbiy mashg'ulotlar, "Vatan himoyachilari" klublari yoshlar ongida fidoyilik va mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Zamonaviy xavf-xatarlar fonida vatanparvarlik tarbiyasi Internetdagi turli yot g'oyalar, radikalizm, individualizm va milliylikdan begonalashuv kabi xavflar yoshlar ongini zaharlashi mumkin. Shu bois, ta'lim muassasalarida va oilada doimiy ravishda profilaktik suhbatlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish zarur. Yoshlarni tanqidiy fikrlashga, mustaqil tahlil qilishga o'rgatish — ularni g'oyaviy tahdidlardan asrashning asosiy vositasidir.

Yoshlar – jamiyatning eng muhim kuchidir. Ularning qalbiga vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotiraga hurmat, yurtga sadoqat tuyg'ularini singdirish – bu millatning ertangi taqdirini belgilaydi. Vatanparvar yosh – bu kelajakda yurt taraqqiyoti uchun astoydil mehnat qiladigan, yot g'oyalarga berilmaydigan, o'z qadriyatlarini asraydigan shaxsdir. Demak, har bir ota-ona, ustoz, ziyoli va davlat tizimi vakili yoshlar tarbiyasida faol bo'lishi shart.

Yosh avlodning ongida vatanparvarlik, milliy g'urur va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish – bu yurt kelajagiga qo'yilgan eng muhim investitsiyadir. Har bir ota-ona, ustoz, ziyoli va jamoatchilik vakili bu yo'lda o'z hissasini qo'shmog'i lozim. Chunki Vatanga muhabbat – bu faqat bayramlarda bayroq ko'tarish emas, balki har kuni halol yashash, ilm olish, yurt sha'nini himoya qilishga tayyor bo'lishdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
3. "Ma'naviyat asoslari" darsligi. – T.: Ma'naviyat, 2020.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Tarixiy shaxslar biografiyalari to'plami. – T.: Fan, 2019.
6. Axborot xavfsizligi va yoshlar siyosati bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – T.: Ilm Ziya, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2021.
8. "Ma'naviyat asoslari" darsligi. – T.: Ma'naviyat, 2020.

РАЗВИТИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ ВОЕННЫХ ВОДИТЕЛЕЙ

Костин Александр Вячеславович, старший преподаватель
Университета ВБ и О Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассмотрены отдельные компоненты, аспекты и факторы, влияющие на развитие патриотического воспитания в подготовке военных водителей.

Ключевые слова: патриотическое воспитание и его развитие, подготовка военных водителей, факторы и аспекты патриотического воспитания

Annotatsiya. Ushbumaqoladaharbiy haydovchilarni tayyorlashda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi alohida tarkibiy qismlar, jihatlar va omillar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tarbiyasi va uning rivojlanishi, harbiy haydovchilar tayyorlash, vatanparvarlik tarbiyasining omillari va jihatlari

Abstract. This article examines individual components, aspects, and factors influencing the development of patriotic education in the training of military drivers.

Key words: patriotic education and its development, military driver training, factors and aspects of patriotic education.

Современные вызовы в сфере обороны требуют от военнослужащих не только технической компетентности, но и высокой степени морально-психологической устойчивости. В условиях усложняющейся геополитической обстановки особое значение приобретает патриотическое воспитание как системообразующий элемент подготовки военных кадров [1], обеспечивающие мобильность и логистическую поддержку войск военные водители, находятся в зоне повышенной ответственности и играют ключевую роль в обеспечении боеспособности войск. Поэтому, их подготовка, обучение и воспитание должны учитывать не только профессионально-технические, но и духовно-нравственные аспекты. Чувство патриотизма представляет собой одну из наиболее значимых духовных ценностей, укоренившихся в культурных и исторических традициях узбекского народа на протяжении многих веков. Выдающийся мыслитель прошлого и основатель узбекской литературной школы Алишер Навои в своих произведениях уделял особое внимание вопросам воспитания молодого

поколения в духе преданности Родине. Он подчёркивал важность семейного воспитания как первоисточника формирования интеллектуального потенциала, нравственной устойчивости и физического здоровья, которые, в совокупности, служат основой для развития подлинного патриотического сознания.


В своём программном труде «Стратегия нового Узбекистана» Президент Республики Узбекистан и Верховный Главнокомандующий Шавкат Мирзиёев предлагает концептуальное осмысление понятия «военно-патриотическое воспитание молодёжи», раскрывая его как важнейший компонент духовного становления личности в контексте модернизации и национального возрождения страны. По мнению лидера нашей страны, идея формирования государства с великим будущим под силу лишь сильному молодому поколению, воспитанному в духе высоких нравственных качеств и глубокого патриотизма [2].

Патриотическое воспитание представляет собой целенаправленный процесс формирования у личности чувства любви к Родине, готовности к её защите, уважения к историческому наследию и национальным ценностям.

По мнению кандидата исторических наук Ё.Ю.Розимовой, «в современных условиях, когда существенно изменилась военная ситуация в мире, социально-экономическое положение в стране, армии, школе, настала необходимость сохранения, реализации и творческого развития педагогических принципов, заложенных ранее в систему военно-патриотического воспитания учащейся молодёжи» [3].

Следует отметить, что патриотическое воспитание в среде военнослужащих, также используя аналогичные подходы и принципы общей педагогики, основывается на аксиологическом подходе и рассматривает воспитание как процесс трансляции и формирования ценностей, обеспечивающий развитие личности, её социальную адаптацию и профессиональное самоопределение [4].

По нашему мнению, применительно к патриотическому воспитанию военных водителей можно выделить следующие основные компоненты данного процесса, указанные в блок-схеме.



Следует отметить, что патриотическое воспитание в среде военнослужащих, также используя аналогичные подходы и принципы общей педагогики, основывается на аксиологическом подходе и рассматривает воспитание как процесс трансляции и формирования ценностей, обеспечивающий развитие личности, её социальную адаптацию и профессиональное самоопределение [3]. Конечно, для гарантированного достижения «высоких» целей патриотического воспитания данной категории специалистов, следует учитывать различные аспекты военной службы и факторы, влияющие на развитие и воспитание патриотизма у военнослужащих.

К основным аспектам, влияющим на развитие и воспитание у военных водителей чувства патриотизма, можно отнести следующие:

1. Личную гражданскую ответственность, подразумевающую беззаветную защиту интересов государства, народа и Президента, а также строгое соблюдение законов, правопорядка и приказов

командиров и начальников.

2. Высокую боевую выучку и техническую подготовку, знание и умение отлично обращаться с вверенной боевой техникой, наличие стремления к постоянному самосовершенствованию и повышению личной квалификации.

3. Профессиональную этику, как внутреннюю установку, определяющую поведение военнослужащего. Она обеспечит формирование личности военнослужащего, способного действовать честно, ответственно и дисциплинированно во имя Родины.

Теперь целесообразно рассмотреть факторы, объективно оказывающие определенное влияние на данный процесс. К таковым отнесем следующие:

Образовательная среда и учебно-материальная база образовательной организации: наличие в необходимом (достаточном) количестве научно-обоснованных современных учебных материалов, технических средств и условий для обучения.

Социальные и культурные особенности: национальные и исторические традиции, ценности региона и семейные установки.

Личный пример командиров и наставников: их патриотизм, профессионализм и отношение к военной службе.

Морально-психологический климат: уровень мотивации, психологическая устойчивость, уровень поддержки со стороны руководства.

Таким образом, развитие патриотического воспитания военных водителей представляет собой интегрированный подход, объединяющий образовательные, культурные, психологические и профессиональные компоненты. Такой подход способствует формированию у военнослужащих глубокого патриотического чувства, ответственности и профессиональной гордости, что является залогом успешной службы и укрепления обороноспособности страны.

Литература

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4375 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы военно-патриотического воспитания юношей и подготовки кадрового резерва для Вооруженных Сил Республики Узбекистан и государственной службы» от 28 июня 2019 года: <https://lex.uz/docs/4417963>

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – 464 б.

3. Розимова Ё.Ю. Современные требования к военно-патриотическому воспитанию молодежи в Узбекистане // Russia and the moslem world, 10.31249/rimm/2021.01.04. – P. 79-83.

4. Жидков А.А. и др. Аксиологический подход в педагогике // Гуманитарные научные исследования. – М., 2021. – № 1.

O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNI UZLUKSIZ TASHKIL ETISH METODIKASI

Qaraxonova L.M., Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
bo'lim mudiri, p.f.d. (DSc), katta ilmiy xodim

Jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini takomillashtirishda asosiy tayanch omillar sifatida pedagogik hamkorlik munosabatlarining muhim shakllari: o'qituvchi-o'quvchi-ota-ona, jamoatchilik tashkilotlari-o'quvchi-o'qituvchi, ta'lim muassasalari-o'quvchi-mahalla organlari, mahalla organlari-o'quvchi-ota-onalar kabi faoliyatning mushtarakligini baholash orqali o'quvchilar tarbiyasini ta'minlashda mazkur paradigmalarning ma'naviy hamkorligini ta'minlashni tashkil qilish muhim amaliyot sanaladi.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, komil inson tarbiyasi, maktab, mahalla, oilada tarbiyaviy ishlar, ota-onalar va maktab hamkorligi masalalari, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalash ishlari, ta'lim muassasalari.

Организация обеспечения духовного сотрудничества этих парадигм в обеспечении воспитания обучающихся путем оценки совместной деятельности важных форм отношений педагогического сотрудничества как основных поддерживающих факторов совершенствования духовно-нравственной среды общества: учитель-ученик-родитель, общественные организации-ученик-учитель, образовательные учреждения-ученик-органы самоуправления, органы самоуправления-ученик-родители рассматривается как важная практика.

Ключевые слова: образование, воспитание полноценной личности, школа, микрорайон, воспитательная работа в семье, вопросы взаимодействия родителей и школы, образовательный процесс, духовно-нравственное воспитание, воспитание на основе семейных ценностей, образовательные учреждения.

The organization of ensuring the spiritual cooperation of these paradigms in ensuring the education of students by assessing the joint activities of important forms of pedagogical cooperation relations as the main supporting factors in improving the spiritual and moral environment of society: teacher-student-parent, public organizations-student-teacher, educational institutions-student-neighborhood bodies, neighborhood bodies-student-parents is considered an important practice.

Key words: education and upbringing, perfect human upbringing, school,

neighborhood, educational work in the family, issues of parents and school cooperation, educational process, moral and moral education, work of education based on family values, educational institutions.

Yosh avlodni axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi navbatda, oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bag'rikenglik, yuksak ma'naviyat egasi hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan qilib tarbiyalashda uch asosiy omil – oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, o'z Vatani vaxalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish bo'yicha maktablarning ota-onalar, oilalar, mahalla qo'mitalari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bo'linmalari, jamoat tashkilotlari vajamg'armalar bilan mustahkamo'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Bolalarning ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom bo'lishlarida oilaning vazifalari: oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh vaturmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-ona, Vatanga muhabbat g'usini shakllantirish; bolalarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan asbga yo'naltirish; ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlolg'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish va ularning qo'shimcha ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratish; bolalar ongiga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Davlatimiz oilalarni o'zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma'naviy yordam berib, oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg'unligini ta'minlashdan manfaatdordir.

Bugungi kunda o'quvchi ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamida globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Har bir ota-ona o'z farzandi kamolini ko'rish uchun uni voyaga yetkazadi, albatta, bu jarayon o'z-o'zidan amalga oshmaydi.

Xalqimizda bir naql bor: «Nima eksang, shuni o'rasan», shu naqlni boshqa talqinda aytib ko'raylik: «Nima o'rishni xohlasang, shuni ek». Ota-ona farzandlariga mol-mulk, uy-joy, avtomobil va boshqa qimmatbaho moddiy boyliklarni berishi mumkin, lekin tarbiya, baxtni topib bera oladimi? Bunga o'zlarining qanday tarbiya ko'rganlik darajasi bilan erishiladi.

«Ota o'g'lini yetaklab ketayotib, o'g'lim qadamingni o'ylab bos deb aytsa, o'g'li

shunday javob beribdi: ota siz qanday qadam bossangiz men shunday yuraman, chunki men sizga ergashayapman». Bu tarbiyaning ibrat-namuna usuliga misol bo'la oladi. Ta'lim-tarbiya masalasi har doim kun tartibidagi masalalardan biri bo'lib kelgan va shunday vazifa bo'lib qoladi. Chunki yangi avlodlar tug'iladi, hayotda kamol topish uchun ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir».

Bolalarning ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom bo'lishlarida oilaning vazifalari: oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-ona, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish; bolalarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish; ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish va ularning qo'shimcha ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratish; bolalar ongiga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Mahallaning vazifalari: ta'lim muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashib, oqilona yechimlar topishda faollik ko'rsatish; farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, lozim hollarda bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko'rish; yoshlar diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning salbiy ta'sirini to'g'ri anglab yetishida ularga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga keng jamoatchilikni safarbar qilish; mahalla hududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olish.

Oilalarning muassasalari hamkorligida quyidagi tamoyillar va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi: ta'lim va tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi; tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi; hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqligi va yuksak mas'uliyatliliigi; faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi; hamkorlik ishlarining ilmiyligi.

Hamkorlik ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va

uning tarbiyasi haqida pedagogik, tibbiy tushunchalar berish va bu tadbirlarga tibbiyot xodimlari, ibratli oilalarni jalb qilish (yosh oilalarning oilaviy sharoitlarini o'rganib chiqish va doimo ma'naviy tomondan qo'llabquvvatlash).

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, qo'shiq va raqsga tushish, mustaqil ravishda bilim olish, maktabga tayyorlash guruhlari, «Yakshanbalik maktablari» ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, ularning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, ularda o'z xatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabat, vatanlarvarlikni shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishi, bilimga chanqoqligi va aqlzakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, turli kasblarga yo'naltirish, jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun qonun, jamoatchilik va ota-ona oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, ta'lim olishlari, tanlagan kasb bo'yicha ish bilan ta'minlash, iqtisodiy mustaqil bo'lishlari uchun shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etish, mustaqil oila qurishda yo'llanmalar berish. Shuningdek, bu borada Jamoat kengashi a'zolari oldida ham qator vazifalar mavjud.

Yurtimiz hududlardan, hududlar tumanlardan, tumanlar mahallalardan, mahallalarimiz oilalardan, oilalarimiz ota-ona, farzandlardan iborat. Demak, avvalo har bir ota-onaning mafkurasi mustahkam bo'lsa, oila, tuman, shahar, hududlar, ya'ni xalqning mafkurasi mustahkam bo'ladi.

Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish asosiy vazifamizdir.

Adabiyotlar

1. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... - T.: Ma'naviyat, 2013.
2. Shodmonova Sh., Xoshimova M., Fayzullaeva N. Tarbiyaviy ishlar uslubi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2007.
3. L.M.Qaraxanova. Oila – farzand tarbiyasida asosiy mas'uliyat bug'inidir// Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim oluvchilarni kasbgayunaltirish:

muammo vayechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - Toshkent sh. 2024 10-dekabr. – B. 143-147.

2.L.M.Qaraxanova. Tarbiyani samarali tashkil etishdamaktab, oila vamahalla hamkorligi// “Markaziy Osiyo ayollariningtadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda gender tenglik tamoyili” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 10-oktabr.

MILLIY G'URUR, VATANPARVARLIK TARBIYASIDA KITOBXONLIK HAMDA IJTIMOIIY FANLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Qo'chqorov R.O'., TDYU kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

Avvalo, bizdan bir muhim haqiqatni eslab-eslatib o'tish talab qilinadi. Mazkur haqiqat O'zbekistonda voyaga yetmaganlar ishlari bilan hukumat doirasidagi komissiya shug'ullanishi, mazkur masalaga shu darajada yuksak e'tibor qaratilishi bilan bog'liqdir. Buning sababi nimada, degan savolga ham javob aniq. Chunki, bu yurtida aholining qariyb 42 foizini aynan voyaga yetmagan bolalar, o'spirinlar tashkil etadi. Ular erta o'tib indin har biri o'z taqdirini o'z qo'li bilan yaratadigan shaxsga, bu shaxslar jam bo'lib esa, o'z mamlakati kelajagini hal etadigan xalqqa aylanishi kerak. Masalaning qanchalar muhimligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining unga, eng ustuvor vazifalardan biri sifatida, g'oyat jiddiy e'tibor qaratishidan ham anglashiladi:

"Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham, bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda" [2].

Darhaqiqat, yoshlar, jumladan, maktab o'quvchilarining ertaga qanday inson bo'lib jamiyatga kirishi, o'zi va atrofida-gilar, pirovardida esa, yurti taqdiriga ko'rsatadigan ta'siri bugun ularga nisbatan amalga oshirilayotgan siyosatga, e'tibor va munosabatga bog'liqdir. Yaqin va uzoq xorijda yuz berayotgan turli darajadagi birodarkushlik urushlari, millatlararo, dinlararo, hududlararo va hatto avlodlararo kelib chiqayotgan nizolarning tag zaminida o'sha yurtlarda ayni masalaga vaqtida e'tibor qaratilmagani, o'sib kelayotgan avlod ta'limi, tarbiyasi, dunyoqarashi, e'tiqod va hayotiy maslaklarining shakllanish jarayoni o'z holiga tashlab qo'yilganidek mudhish xatolar, qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar yotibdi.

Ko'p marta takrorlanganidek, bugungi globallashayotgan dunyoda farzandlarimizni qandaydir shaklda o'rab-chirmab, olamdan ayri holda yashashga ko'niktira olmaymiz, buning foydasidan ko'ra zarari ko'proq bo'lishi ham tayin gap. Demak, ularni global hayot, global axborot, global madaniyat oqimida g'arq bo'lmay oqishdek, aksincha, bu ulkan oqimda pishiqib, toblanib, tajriba va mahorat orttirib suzishdek murakkab taqdir kutmoqda. Buning uchun ularning nafaqat navqiron jismu joni baquvvat, kuch-shijoatga to'la bo'lishi,

balki ruhiyati sog'lom, mo'ljal-manzilni to'g'ri tanlash va unga yetib borish, vaziyatni sezgir baholay bilish – ma'naviy oriyentatsiya uquvi bo'lmog'i talab etiladi. Bu ishda esa ularning eng yaqin, beminnat va tajribali murabbiyi sifatida har birining konkret ota-onasi, aka-opalari ko'z oldimizda gavdalanadi.

Biz nima uchun maktab o'quvchilarining aynan yaqinlari omiliga bunchalik urg'u beryapmiz? Muammo shundaki, ularning ta'lim-tarbiyasi haqida gap ketganda aksariyat ma'ruzachi-mutaxassislar nuqul umumiy sanoqlar (oilalar, mahalla institutlari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari)ni, "hammamizning ishimiz", "barchamiz mas'ulimiz" qabilidagi gaplarni ko'p va xo'b takrorlashadi.

Holbuki, gap konkret Ahmad va Aziza haqida borar ekan, bu ikki tirik inson bilan real tirik shaxslar – ikkovining bekamu ko'st voyaga yetmog'idan eng ko'p manfaatdor kishilar astoydil shug'ullanishi har jihatdan samarali bo'ladi.

Mutasaddi davlat tashkilotlari va turli jamoat uyushmalari bu ishda mana shu insonlarga beminnat ko'makchi, oqil maslahatchi rolini o'ynashi ayni muddao bo'lib, aslida ham ularning nizomiy vazifalari, faoliyat funksiyalari ayni shu ko'lamda kechishini kundalik amaliyot ko'rsatib turibdi.

Albatta, bola tarbiyasida universal qoidalar, hammabop retseptlar yo'q va, afsuski, bo'lishi ham mumkin emas. Biroq odamzod tarixi, uning uzoq davom etgan insoniylashish yo'liga boqib, harqalay, barcha zamon va makonlarda o'zini oqlagan, samara bergan ayrim omillar to'g'risida gapirish mumkindek. Ulardan biri – oilada kitobxonlik muhitini shakllantirish, uni shajaraviy an'anaga aylantirish tajribasidir.

Avvalo, bir narsani tan olishimiz kerakki, masalan, mumtoz badiiy asarlarni Siz bilan bizdan ko'ra iste'dodliroq, ko'proq narsani yaqinroqdan ko'ra olgan, murakkab muammolarga erinmay javob izlab, ularga to'g'ri javoblar topa olgan murabbiy insonlar yaratishgan. Qolaversa, badiiy adabiyot beistisno barcha hayotiy muammolarni o'zida qamrab olishi barobarida, ularni inson bolasiga sezdirish va yechim yo'llarini o'rgatishda nihoyatda ta'sirli – obrazli-san'atkorona usullardan foydalanadi. Shu tufayli ham quruq va zerikarli nasihatbozlik, hammaga ham xush kelavermaydigan aql o'rgatish, ko'pchilik tomonidan malol olinadigan chaqiriqbozliklar bilan yillar davomida erishilmagan natijaga badiiy adabiyot ta'siri bilan juda tez va to'la erishish mumkinligiga istagancha misol keltirsa bo'ladi. Ayrimlar bugungi tezkor, texnik-texnologik mo'jizalarga boy zamonda bolalarni kitobga jalb etish, ularda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish deyarli imkonsiz ish ekanini, go'yo muhokama etilmaydigan haqiqatdek, da'vo qilishi mumkin. Bizningcha esa, bunday da'volarni hammadan avval mana shu ishga biror marta xafsala qilmagan, uni tajribada nomiga bo'lsa-da sinab ko'rmagan kimsalar ilgari suradi. Agar jiddiysiga oladigan bo'lsak, bunday da'vo egalari, o'zlari bilib-bilmay, Yaratganning bandalariga aytgan birinchi va bosh amriga ("Iqro" – "O'qi"

hukmiga!) zid qarashni olg'a surayotgan bo'lib chiqadilar.

Binobarin, insoniyat topgan eng buyuk kashfiyotlardan biri, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta'rificha "birinchi mo'jiza" – kitob va unga bo'lgan e'tibor-ixlos mana shu inson zotining ruhiga eng yaqin, balki oziq-ovqat g'izosidan ham yaqinroq va muhimroq amal hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bolalarimiz hayotida kitobga intilishni xuddi kiyim-kechak bilan badanni yopish, ovqatlanishdan oldin qo'l yuvish, turfa xavf-xatarlardan o'zini asrash singari odatlar kabi tabiiy ehtiyojga, kundalik amalga aylantirish bemalol mumkin bo'lgan va nihoyatda zarur ishdir. Agar aksar ko'pchilik ota-ona go'yo arziyasdek tuyuladigan mana shu ishda ijobiy natijaga erisha olsa, farzand tarbiyasi, uni jamiyatga sog'-salomat qo'shishdek muhim jabhada misli ko'rilmagan ijobiy samaralarga sababchi bo'lardilar.

Zero, kitobga, badiiy adabiyotga oshnolik inson bolasiga komillik yo'lini keng ochishi, uning qalbini yuksak ideallar – vatanparvarlik, milliy g'urur, mehr-shafqat, odamiylik va fidoyilik fazilatlarini o'ldirishi bilan beqiyos va o'rnini boshqa biror narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan omil ekanini ko'hna tarix necha ming bor tasdiqlagan. Axir tarixda qay bir olim, mutafakkir va komil shaxs o'tibdiki, u kitoblarni orasida o'smagan, mutolaaga mehr bermagan, o'qish-o'rganishdan ulkan zavq va ilhom olmagan bo'lsa? Shunday ekan, biz mana shu real va ta'sirchan omildan ko'z yumishimiz, uning ahamiyatini xaspo'shlashimiz, bolalarimizni undan bebahra qoldirishimiz mumkinmi? Mamlakatimiz nashriyot va bosmaxonalarida tayyorlanayotgan, xorijdan oltin pulga olib kelinib, kutubxonalarimiz, axborot-resurs markazlarimizga taqdim etilayotgan minglab-millionlab nusxadagi mumtoz asarlar biz uchun ta'lim-tarbiya ishida beminnat ko'makchi, mustahkam tayanch va nihoyatda qiziqarli, shavqli omil bo'lishi kerakmi-yo'qmi?

Umuman olganda, bolasini kitobga oshno qilish masalasiga ota-onalarning shaxsiy ishi, istasa qiladigan, istamasa birov aralasha olmaydigan xohishi sifatida qaralishi to'g'rimikan? Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyamizning 77-moddasida belgilangan "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar..." [1] normasidagi "har tomonlama kamol topishi" talabi o'z ichiga, jumladan, bolalarni kitob o'qishga o'rgatish, kitobxon qilib voyaga yetkazish, ularni asrlar sinovidan o'tgan buyuk kitoblarni bag'ridagi ruhiy-ma'naviy boyliklarga ega etish vazifasini ham o'z doirasiga qamramaydimi?

Voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi mazkur yo'nalishda hamma yerda ham maqtanarli natijalar qayd etilmayotganining qator sabablarini aytish mumkin. Ularning eng muhimi sifatida esa, bolasiga kitobxonlik sabog'ini bermog'i lozim bo'lgan ota-onaning o'zi bu mashg'ulotdan yiroq hayot kechirishini ko'rsatish

kerak. "Tarbiyalovchi, avvalo, o'zi tarbiya ko'rgan bo'lishi lozim" degan qoida, afsuski, bu borada ham o'zining achchiq mantiqini namoyish qiladi. Lekin "ahvol shunday ekan, iloj qancha?" deya mag'lubiyat qo'lini ko'tarish ham to'g'ri ish emas.

Zero, ezgu ishning hech qachon vaqti o'tmaydi. Bu ishni kimdir, qachondir xafsala bilan boshlasa, albatta, natija va samara o'zini ko'rsatadi. Biz mulohazalarimizni har bir oilada kitobxonlik muhitini yaratish, uni shajaraviy an'anaga aylantirish masalasidan bekorga boshlaganimiz yo'q. Ya'ni, mazkur muhit, agar oilada bo'lsa, uni kuchaytirish, agar bo'lmasa, hosil qilish – boyagi – ko'zimizning oqu qorasi – Ahmadning va Azizaning ertangi baxtli kelajagini yaratish ishida nihoyatda muhim va e'tiborga arzirli masaladir.

Ta'kidlaganimizdek, bugungi insoniyat hayoti o'zining shiddati, ko'lam, munosabatlar murakkabligi bilan nafaqat oldingi asrlar, balki bir necha o'n yilliklar ilgarigi hayotdan ham jiddiy farq qilmoqda. Hamma narsada va barcha yerda kuzatilayotgan globallashuv jarayoni inson atalmish mavjudotning mo'jazzina boshi va qolgan butun jismu jonini ham xuddi buzg'unchi quyundek o'rab-chirmab olmoqdaki, bu shiddat va kuch qarshisida uncha-muncha odamning dosh berishi – o'zini, o'zligini, shaxsi va intellektini saqlashi tobora qiyinlashib boryapti. Mavzuga oid bo'lgani uchun yana bir teskari – paradoks holat to'g'risidagi kuzatishlarimiz bilan o'rtoqlashamiz. O'ziga "axborotlashgan jamiyat" deb nom qo'yib olgan bugungi insoniyat jamiyatida u yoxud bu voqea-hodisa haqida (u tarixda yuz berganmi yoki kuni kecha sodir bo'ldimi – farqi yo'q!) ommaviy axborot vositalari "topib" tarqatayotgan ma'lumot, axborot, "tezkor xabarlar" qancha ko'paysa, o'sha voqea-hodisa to'g'risidagi chinakam haqiqat shunchalar mavhumlashib, usti yopilib bormoqda. Yangi xabar va "topilmalar" qanchalik ko'p taqdim etilgani sari o'quvchi-tomoshabin-tinglovchi bo'lmish inson dunyoqarashi, ongu shuurida boshboshdoqlik, tarqoqlik – xaos shunchalar ko'p tomir otib boryapti. Natijada, inson diqqati masala mohiyatidan uzilib, u mazkur masala haqida o'zining "erkin, individual, shaxsiy fikr-qarashi"ni izhor etayotgan tomonlar o'yiniga mahliyo bo'lib qolmoqda. Ana endi mana shu axboriy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy tolato'mlar ichida yashashiga, kun kechirishiga, o'zini oyoqqa turg'azishiga to'g'ri keladigan yosh insonning holatini ko'z oldimizga keltiraylik. Uning dunyoqarashi, didi, axloqi, ruhiyati va kayfiyati – bir so'z bilan aytganda, shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan, ta'sir ko'rsatishga urinayotgan omillarning rang-barangligiga, murakkabligiga, aksariyat hollarda esa, ziddiyatlilikiga diqqat qilaylik.

Agar bu muammoni yurtimiz yoshlari, bizning misolimizda bo'lsa, umumta'lim maktablari o'quvchilari ko'lamida oladigan bo'lsak, ularning chinakam xalqparvar, yurtsevar, milliy g'ururi baland shaxslar qilib voyaga yetkazishda

ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni va ahamiyati yanada ravshanroq namoyon bo'ladi.

Ba'zan ayrim odamlardan: "Mutaxassis kadr degani kasbiga oid fanlarni yaxshi bilsa bo'ldi-da, amaliyotda ularga shu kerak bo'ladi, ijtimoiy fanlarni o'qitib vaqt o'tkazish, o'quvchilarni chalg'itishdan nima foyda?" qabilidagi gaplarni ham eshitib qolamiz. Yuzaki qaraganda, ular haqdek tuyuladi ham. Biroq bu qarash nechog'li to'g'ri, shunday qarash bilan uzoqqa borib bo'ladimi? Gap shundaki, odamning aqlli bo'lishi, bilimli bo'lishi hali uning chinakam inson bo'lib yetishganini mutlaqo anglatmaydi. Dunyo tarixida millionlab insonlar hayotiga zomin bo'lgan urushlarni, totalitar boshqaruv tizimlarini, qirg'in qurollarini, terror usullarini, insonni ma'naviy tubanlikka boshlovchi ommaviy madaniyat ko'rinishlarini o'ylab topgan kimsalarni aqli noqis, bilimsiz omi odamlar, deb aslo aytib bo'lmaydi. Ularning har biri nedir aql, bilim kuchiga tayangani, o'z rejalarini ayni shu kuch yordamida qurgani ham shubhasiz. Biroq bu kimsalar o'sha aql va bilimdan donish topa oldilarmi, to'plaganlari aql va bilim quvvatini nimaga yo'naltirishdi, bir so'z bilan aytganda, ulardagi aql va bilim gumanizmga bir chimdim xizmat qildimi? degan savolga, afsuski, ijobiy javob topib bo'lmaydi. Xuddi mana shu jihati bilan ular insoniyat donishmandlari safidan hech qachon o'rin ololmaydilar. Farzandlarimizning nafaqat kuchli bilim, aql va jism egasi bo'lishlarini, balki dunyo ishlariga keng va sinchkov nazar tashlay oladigan, yaxshilikni yomonlikdan, ezgulikni qabohatdan, ma'rifatni johiliyatdan, abadiylikni bir lahزالikdan, samimiylilikni riyodan, do'stlikni sotqinlikdan... ajrata oladigan, millatni nima yuksaklarga ko'tarishi mumkin-u, ne narsalar tubanga sudrashi tayinligini teran anglaydigan avlod bo'lib yetishishi – eng muhim masaladir. Insonning o'z qadr-qimmatini anglashi, irodasi baquvvat bo'lishi, imoni butun, oldiga qo'ygan maqsadi ezgu va aniq shakllanishi uchun esa, u to'g'ri, mantiqli fikrlash ko'nikmasini egallashi lozim. Uning oqni qoradan, soxtani chinakamdan ajrata olish qobiliyati "Tarbiya", "Tarix", "Adabiyot", "Davlat va huquq asoslari" singari ijtimoiy fanlarda o'zlashtiriladigan bilim-tajribalar yordamida tezroq va samaraliroq ochiladi, charxlanadi. Ochig'ini aytganda, farzandlarimizning yosh qalblarida milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini vujudga keltirish va o'stirish muammosini bu fanlar imkoniyatlaridan samarali foydalanmasdan hal etib bo'lmaydi, deyishga barcha asoslarimiz bor. Hamma gap umumta'lim maktablarida ayni fanlar qanday o'tilayotganida, ularni kimlar o'tayotganida qolgan. O'zim ishlayotgan universitetning birinchi kursiga qabul qilingan talabalar bilan dastlabki muloqot soatlaridanoq bir taassufli holatga qayta-qayta duch kelaman. Avvalo, ularning ko'pchiligi "Adabiyot", "Tarix" fanlaridan maktab dasturlariga kiritilgan mavzularni juda yuzaki o'zlashtirishgan bo'lsa, ozmi-ko'pmi o'zlashtirganlari ham shu ikki predmetda o'tilgan bir davr, bir hodisa tafsilotlarini bir-biriga ulay

olmasliklari, ular o'rtasidagi mantiqiy va ma'noviy bog'liqlikni his qilmasliklari kishini behad ranjitadi. Holbuki, deylik, "Tarix" fanining oqil o'qituvchisi, masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan, o'lkamizning Chor mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi voqealari xususida gapirar ekan, hech bo'lmaganda, maktab "Adabiyot" fani dasturlaridan o'rin olgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Yusufbek hojining zamondoshlariga

qarata aytgan nadomatli ta'nalarini yoxud Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida general-gubernator (hokim to'ra) tomonidan Miryoqubga aytilgan achchiq haqiqatlarni eslab o'tish bilan o'quvchilarning masala mohiyatini chuqurroq va ta'sirliroq anglashlariga erishishi tayin va aksincha, "Adabiyot" fani o'qituvchisi xuddi shu ishni adabiy va tarixiy material integratsiyasi yordamida amalga oshirishi ayni muddao bo'ladi. Afsuski, shu oddiygina pedagogik talablar samarali bajarilmasligi evaziga oliy o'quv yurtiga o'qishga kirgan talabalar ham (oliy ta'limdan chetda qolgan millionlab yoshlarda esa inchunun!) ikki fan materiallari o'rtasidagi bog'liqlikni anglamaydilar, tushuncha va tafakkurlari doirasi shunga yarasha tor hamda biryoqlama qiyofa kasb etadi.

Bunday misollarni faqatgina shu ikki fan doirasidagina yana o'nlab, yuzlab keltirish mumkin. Yoki boshqa, bundan ham soddaroq misol. "Davlat va huquq asoslari" predmetida, tasavvur qilish mumkinki, birinchi navbatda, va asosan mamlakatimiz Konstitutsiyasi, unda aks etgan huquqiy normalar tahlil va talqin etiladi. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan Bosh qomusimizning 52-moddasida, o'qituvchilar haqida ilk marotaba shunday e'tirof o'rin olgan:

"O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" [1]. Shu modda maqsad-mohiyatini izohlar ekan, shu fan muallimi bu ta'rif va e'tirof sof milliy zaminga, ustoz va murabbiylarga cheksiz hurmat hamda e'tibor ko'rsatgan xalq zakosiga borib ulanishi, barcha buyuklarimiz, xususan, Hazrat Navoiyning o'lmas baytlari va shaxsiy ibratlarida bu zako unutilmas tarzda namoyon bo'lganligi haqida aytib ketishi qanchalar ta'sirli ta'lim va tarbiya bo'lur edi. Axir milliy g'urur hamda vatanparvarlik tarbiyasi quruq so'z va da'vatlarga emas, balki ayni mana shu yanglig' tahlil va talqinlarga asoslanishi har jihatdan maqbul emasmi?

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilarini milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek mas'uliyatli yumushning katta qismini bajarish yoshlarimizga ijtimoiy-gumanitar fanlardan saboq berayotgan murabbiylar zimmasidadir, desak, ayni haqiqatni bayon qilgan bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi. – T., 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir // Xalq so'zi. – T., 2020. – 1-oktyabr.
3. Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlar. – T., 1992.
4. Cho'lpon. "Kecha va kunduz". Roman. – T., 2011.

TA'LIM JARAYONIDA VATANPARVARLIK TARBIYASINING DOLZARB MASALALARI

**Lutfullayev Anvar, O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
"Musiqiy ta'lim" kafedrası mudiri, professor**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasining dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodni milliy g'urur va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy omil hisoblanadi. Maqolada vatanparvarlik tarbiyasining ta'lim tizimidagi o'rni, uning metodik asoslari, zamonaviy yondashuvlar hamda uni amalga oshirishda duch kelinayotgan muammolar va ularning yechimlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik tarbiyasi, ta'lim jarayoni, milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuvlar, yoshlar tarbiyasi, tarixiy meros, innovatsion metodlar.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные вопросы патриотического воспитания в образовательном процессе. Патриотическое воспитание является основным фактором воспитания молодого поколения в духе национальной гордости и любви к Родине. В статье описывается роль патриотического воспитания в системе образования, его методические основы, современные подходы, а также проблемы, возникающие при его реализации и пути их решения.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, образовательный процесс, национальные ценности, педагогические подходы, воспитание молодежи, историческое наследие, инновационные методы.

Abstract. This article analyzes the current issues of patriotic education in the educational process. Patriotic education is a key factor in educating the younger generation in the spirit of national pride and love for the homeland. The article discusses the role of patriotic education in the educational system, its methodological foundations, modern approaches, as well as the problems encountered in its implementation and their solutions. In the course of the research, proposals were developed for the development of patriotic education based on national values, historical heritage and pedagogical experience.

Key words: patriotic education, educational process, national values, pedagogical approaches, youth education, historical heritage, innovative methods.

Vatanparvarlik tarbiyasi har bir jamiyatning barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim vazifalaridan biridir. Bu tarbiya yoshlarda vatanparvarlik hislarini

shakllantirish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat bilan qarash, ona yurti va xalqiga sadoqatli bo'lish kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Hozirgi davrda globallashtirish jarayonlari ta'sirida yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularga zamonaviy yondashuvlar asosida ta'lim berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasining o'rni beqiyos bo'lib, bu nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda, madaniy va tarbiyaviy tadbirlarda ham o'z ifodasini topishi lozim. Ushbu maqolada vatanparvarlik tarbiyasining dolzarb masalalari, uni amalga oshirishda uchrayotgan muammolar hamda ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, yosh avlodda milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning samarali usullari tahlil qilinadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, balki jamiyatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Shu boisdan, ushbu masalani chuqur o'rganish va ta'lim tizimiga samarali joriy etish zaruriyatini ta'kidlab o'tish lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasi masalalari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu sohaning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini chuqur o'rganishga yordam beradi. Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganish muhimdir. Tadqiqotlarda vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning pedagogik yondashuvlari, tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metodlar, shuningdek, yosh avlodda milliy g'urur va vatanga sadoqat tuyg'usini rivojlantirish yo'llari keng yoritilgan.

O'zbekistonlik olimlar, xususan, Y.X.To'xtayev va O.R.Qosimovlarning tadqiqotlarida vatanparvarlik tarbiyasi milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Ular o'z asarlarida tarixiy tajribaga tayanib, vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini ochib beradilar. Ayniqsa, o'zbek xalqining boy madaniy merosi va qadriyatlari asosida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadilar.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari yoritilgan. Masalan, rus pedagogi I.A.Zimnyaya yoshlarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda loyihaviy ta'lim usulini samarali vosita sifatida tavsiya qiladi. U pedagogik jarayonda jamoaviy faoliyat va ijtimoiy loyihalarni tashkil qilish orqali yoshlarda vatanparvarlik hislarini shakllantirishni taklif etadi.

Shuningdek, Xorazm olimlarining ishlari vatanparvarlik tarbiyasining tarixiy ildizlariga asoslanadi. Ular qadimgi davrlardan to bugungi kungacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni tahlil qilish orqali milliy g'urur va vatanparvarlikning

shakllanishida o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari qanday rol o'ynaganini ochib beradilar. Xalqaro adabiyotlarda, jumladan, G'arb olimlari – J.Dewey va P.Freirening ishlari – vatanparvarlik tarbiyasini yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatish vositasi sifatida yoritadi. Ular o'z tadqiqotlarida demokratik qadriyatlar va ijtimoiy birdamlik orqali fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga alohida urg'u beradilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etish uchun milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni integratsiya qilish, milliy qadriyatlarga asoslangan holda zamonaviy metodlarni qo'llash zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida yosh avlodni milliy o'zlikni anglash va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash uchun uzluksiz tadqiqotlar olib borish muhimdir.

Vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat ta'lim tizimining bir bo'lagi, balki jamiyatning ma'naviy-ahloqiy negizini mustahkamlovchi muhim jarayon sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida bir nechta dolzarb muammolarga e'tibor qaratish lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, milliy qadriyatlarni tiklash va ular asosida ta'lim mazmunini boyitish zarur. Bunda o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning boshqa qatlamlari o'rtasida uzviy hamkorlik o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yangi bosqichga olib chiqadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatning ma'naviy-ahloqiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida ushbu tarbiyani samarali tashkil etish nafaqat yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, balki ularning ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maqolada ta'kidlanganidek, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligini ta'minlash zarur. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va jamoaviy faoliyat usullaridan foydalanish yoshlarning vatanparvarlik hislarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchilar malakasini oshirish, ta'lim mazmuniga milliy g'oyalarni singdirish, madaniy-tarbiyaviy tadbirlarni muntazam o'tkazish kabi chora-tadbirlar vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Mamatov A. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.
2. To'xtayev Y.X. Milliy g'oya va vatanparvarlik tarbiyasi: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2020.
3. Qosimov O.R. O'zbek xalqining madaniy merosi va milliy qadriyatlari asosida tarbiya. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.

MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING MAZMUNI VA AMALIY AHAMIYATI

Mavlonqulova Mavjuda Xodjikulovna,
Qo'qon shahar MMTB tajarrufidagi 47-DMTT direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarmiz va urf-odatlarimizning tarkibiy qismlari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilib berildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz va milliy urf-odatlarimizni bolalarga o'rgatishda xalq pedagogikasining intensiv yo'llari haqida ham fikr mulohazalar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, tarbiya, oila, jamiyat, islohot, siyosat, tadbir, meros, ma'naviyat.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения были проанализированы составляющие наших национальных ценностей и традиций в воспитании детей дошкольного возраста. Также были высказаны мнения об интенсивных путях народной педагогики в обучении детей нашим национальным ценностям и национальным традициям в воспитании детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольное образование, национальные ценности, воспитание, семья, общество, реформа, политика, событие, наследие, духовность.

Abstract. In this article, from a scientific and theoretical point of view, the components of our national values and traditions in the upbringing of preschool children were analyzed. Opinions were also expressed on the intensive ways of folk pedagogy in teaching children our national values and national traditions in the education of preschool children.

Key words: preschool education, national values, upbringing, family, society, reform, politics, event, heritage, spirituality.

Har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog'liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo'shnilar bilan xushmuomala bo'lish kabi an'analalar o'zbek oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga

singdirib kelingan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari-ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra, bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurt, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuhratini yanada oshirish, ilm-u fanni va madaniyatini, ajdodlarimiz boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o'rganish, munosib baholash borasidagi tarbiyachilarimizning faoliyatlari katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, milliy-ma'naviy, etnik qadriyatlarni yoshlar ongiga samarali singdirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida milliylik va milliy ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi mavzusida olimlar, yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijod yo'lga oid bo'lgan videofilmlarni qo'yib ko'rsatib borsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarmas hodisa emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish Sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, bu yosh avloddan milliy g'oya asosidagi tafakkur, chuqur bilim va ixtisoslikni talab qilmoqda. Uning negizi -milliy qadriyatlarimizdir. Yangicha yashash, ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot qurish tuyg'usi esa yosh avlod oldiga keksa avlodga qaraganda mas'uliyatliroq vazifalarni qo'ymoqd. Xususan, ong va tafakkur hamda ma'naviy qadriyatlardagi o'zgarishlar hayot talabidan orqada qolayotganligi ma'naviy salohiyatdagi qusurlar bilan bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan bolajonlarni milliy

qadriyatlarimiz asosida ta'lim berishda avvalo, o'sha yerdagi muhitga sekin astalik bilan tatbiq etishni boshlash maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk dinimiz imkoniyatlari, buyuk ma'naviy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish birinchi masala darajasiga olib chiqish esa maqsadga muvofiqdir. Tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotlar davomida o'zbek xalq maqollaridan namunalar keltirish, ularga yod oldirish, doston va ertaklarimizdan oson va tushunarli usulda yetkazish lozim. Bayramlarda va tadbirlarda milliy qadriyatlarimiz asosida jumladan, o'zbekona milliy liboslar, qo'shiq-laparlar aytib tashkil etilsa bolaning ongida ijobiy qiyofada esda qoladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimining takomillashtirishning 2030-yilgacha tayyorlangan konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shular orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan didaktik materiallar kamchiligi sezilmoqda. Mazkur materiallarning ko'pchiligi sovet davrida tayyorlangan materiallarning zamonaviylashgani yoki rus xalq ertaklari, maqollari va shularga moslashtirilgan rasmlar shulardan kelib chiqqan holda qadriyatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan didaktik materiallar benihoyatda dolzarbdir.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondoshish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarning ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi, jamiyat a'zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo'nalishidir. Qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy omillaridan biri sifatida qadrlanish borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'uliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Istiqlol asrlar davomida shakllangan o'ziga xos sharqonada o'zbekona qadrlash masalalari va me'yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Zero, mustaqil bo'lmagan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon to'kis bo'lmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma'naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo'lishi aniq. Faqat mustaqillikgina ushbu holatni tubdan

o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismiga aylantiradi. Shu sababdan ham istiqlol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa, qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketadi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta'lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda. Xalqimizning "Qadriyatsiz-qadriyat yo'q!", "Qadrlanmaydigan qadriyat sarobga o'xshaydi" degan hikmatlari bor. Ana shu sababdan hamma mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrning yuksak ifodalari bo'lgan istiqlol, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, demokratiya, qonunning ustuvorligi kabi serqirra qadriyatlarni nihoyatda qadrlashimiz lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda turli xil didaktik materiallar asosida tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada quydagi tavsiyalar keltirib o'tamiz: Birinchi didaktik materialda "Ota-aql, ona-idrok" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu didaktik material olti yoshli bolalar guruhiga mo'ljallangan. Mashg'ulot guruhxonasida o'tkaziladi. Mashg'ulot 20 daqiqa davom etadi. Mashg'ulot matnni o'qish, bayon, o'zaro muloqot, teatr ko'rinishi, aytishuv kabi shakllarda olib boriladi. Mashg'ulot video va audio vositalarida amalga oshiriladi. Mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilar qarsaklar, o'yinchoqlar bilan taqdirlanib boriladi. Odatda tarbiyachi ushbu maqolning kundalik mazmuni va mohiyatini ko'p marta ishlatiladigan otani padaribuzrukvor, onani esa, mehribon volida deb ataymiz. Chunki, har bir inson uchun otadan ulug' va qadrdon, onadan mehribon va yaqin kishi yo'q. Haqiqatdan ham, ota-ona buyuk zotlardir. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko'zqorachig'idek asrab-avaylab, voyaga yetkazibgina qolmasdan, hamma vaqt quyosh yanglig' hayotimizga nur sochib turadilar, bamisoli oy kabi tunimizni yorug' yo'limizni oydin qiladilar. Shu boisdan ham, eng go'zal dostonlar, eng yaxshi qo'shiqlar, eng yoqimli kuylarning anashu ulug' zotlarga bag'ishlangani bejiz emas. Yuqorida aytilgan tushunchalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolajonlarga qo'shiq, ertaklar, maqollar, hikmatli so'zlar orqali singdirib boriladi.

Xalq udumlarida, undan kelib chiqadigan odobnomada har qanday bolani yoshligidanoq el-yurt manfaati yo'lida kurashuvchi, o'zini emas, balki kishilar baxt-saodatini o'ylovchi avlodlarning ushalmay qolgan orzu-armonlarini amalga oshiruvchi kishilar bo'lib kamolga yetishishi lozimligi alohida ta'kidlanadi. Kelajak avlodni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar asosida ota-onaga bo'lgan hurmat, ustozga hurmat, xalqqa sodiqlik, Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalog'imiz lozim. Bu borada maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida har bir mashg'ulotlarda, xalq og'zaki ijodiyotidan maqollar, ertaklar, she'rlar orqali, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkillashtirib bolajonlar ongiga ushbu qadriyatlarni singdirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini ma'naviy bakamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg'usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi bilimlarning majmuasi bo'lgan zamonaviy qadriyatshunoslikning asoslarini o'rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me'yorlari borasida to'plangan yutuqlarini umumlashtirilgan bilim sohalari imkoniyatdan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi. Qadriyatlarning boshqa turlari, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir.

Adabiyotlar

1. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. – T., 2010.
2. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish: Ilmiy to'plam. – T., 2000. –103-105-b.
3. Жабборова С.З. Особенности труда в дошкольном возрасте // Проблемы педагогики. – 2020.
4. Kamilova G. Maktabgacha ta'limmuassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI RIVOJLANTIRISH O'ZIGA XOS JIHATLARI

Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich, Chortoq tumanidagi 7-sonli umumta'lim maktabi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar ongida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Unda vatanparvarlikning asosiy mezonlari – Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik va ozodlik g'oyalariga e'tiqod kabi jihatlar tahlil qilingan. Yoshlar orasida harbiy vatanparvarlikni rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining o'rni, oilaning ta'siri, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muhitning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni Vatan mudofaasiga tayyorlash, ularni jasorat, matonat va fidoyilik ruhida tarbiyalashning samarali usullari ochib berilgan.

Kalitso'zlar: madaniyat, tafakkur, ta'lim-tarbiya, urf-odat, vatanparvar, insonparvarlik, moddiy-texnik, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy immunitet.

Аннотация. В данной статье освещается педагогическое и социальное значение формирования военно-патриотических чувств в сознании молодежи. В нем проанализированы такие аспекты, как основные критерии патриотизма – преданность Родине, уважение к национальным ценностям, вера в идеи независимости и свободы. Показана роль воспитательно-образовательного процесса, влияние семьи, средств массовой информации и социальной среды в развитии военного патриотизма среди молодежи. Также раскрыты эффективные методы подготовки учащихся-молодежи к защите Родины, воспитания их в духе мужества, стойкости и самоотверженности.

Ключевые слова: Культура, мышление, воспитание, традиция, патриотизм, гуманизм, материально-технический, духовно-нравственный, идеологический иммунитет.

Annotation: This article covers the pedagogical and social significance of the formation of military-patriotic feelings in the minds of young people. It analyzes aspects such as the main criteria for patriotism – loyalty to the motherland, respect for national values, belief in the ideas of independence and freedom. The role of the educational process in the development of military patriotism among young people is shown, the influence of the family, media and social environment. Also, effective methods of preparing young students for the defense of the motherland, educating them in the spirit of courage, perseverance and dedication are revealed.

Key words: Culture, Thinking, education, tradition, patriotic, humanitarian, material and technical, spiritual and moral, ideological immunity. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 12-dekabrda PQ-4061-sonli qarori "Yoshlarni vatanparvarlik va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklarga o'qitish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [1]. 2018-yil 14-avgustda PQ-3907-sonli qaror "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini ular uchun yangi bosqichga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" [2]. Shuningdek, 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomada bayon etilganidek [3]: "Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash uchun maktabgacha ta'lim tizimini, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini, ilmiy va ta'lim jarayonlarining sifatini tubdan yaxshilashimiz zarur".

O'zbekiston Respublikasida milliy tiklanish sari tez qadamlar tashlanayotgan davrda, mamlakat kelajagining poydevori bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ularni raqobatbardosh, yangicha tafakkurga ega, vatanparvar va mafkuraviy jihatdan sog'lom shaxslar qilib shakllantirish eng dolzarb masalaga aylanmoqda. Mustaqillikdan keyingi O'zbekiston siyosatida yoshlarning demokratik yangilanish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, ularni siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga jalb etish hamda islohotlarda faol qatnashishini ta'minlash orqali ularning roli yanada oshirildi.

Ushbu qonunga ko'ra, davlat yoshlar siyosatini, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy holati, jinsi, ta'limi va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an'analarni avlodlar avlodga yetkazishni ta'minlash, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy aloqalarni mustahkamlash, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning erkin kasb tanlashiga kafolat berish hamda jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita ishtirokini ta'minlashni o'zining vazifasi etib belgilagan [4].

Jamiyatni tubdan isloh qilish sharoitida yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash davlat muassasalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Vatan — inson va uning ajdodlari qon to'kkan muqaddas maskan. Vatan — bu ota-bobolar yurti, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, an'analari va qadriyatlari shakllanib, kamol topgan zamin.

"Butun dunyo hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz, nafaqat Sharq, balki Umumjahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lganini e'tirof etadi. Aynan shu qadimiy va tabarruk zamindan allomalar, fozil-fuzalolar, siyosatchilar, sohibqironlar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy fanlarning poydevorlari ham ana shu zaminida yaratilgan" [5].

Inson o'zining ma'naviy yetukligini yuksaltirish uchun yuksak mas'uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda olib borishi asosida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Vatanparvarlik — insonning tug'ilib-o'sgan, voyaga yetgan zaminiga bo'lgan muhabbatini, unga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy fazilatdir [5].

Vatanparvarlik insonda tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lgan va tashqi muhit hamda davrlar ta'sirida shakllangan. "Ma'naviyat va mafkura borasida tashqaridan ko'r-ko'rona ko'chirib olish orqali hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki, dunyoqarashimiz, xalqimiz tafakkuri, turmush tarzi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Biz barpo etayotgan davlatning kelajagi ildizlarini tariximizga, o'ziga xos madaniyatimizga, yuksak maqsadlarimizga tayanmog'i lozim."

Vatanparvarlik tuyg'usi xalq tarixini chuqur bilish va undan faxrlanishda, buyuk ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'iday asrab, uni kelajak avlodlarga yetkazishda, ajdodlarimizning urf-odatlari, rasm-rusum va udumlarini o'rganish va qadriyatga aylangan qismlarini davom ettirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, xalqimizning kelajagini belgilovchi yuzlab fazilatlarda ifodasini topadi. Axir, har qanday xalqning taqdiri har davrda ham uning kelajagi bo'lgan yoshlarni qanday tarbiyalashiga bog'liq. Jadid mutafakkirlari ham inson va jamiyat hayotida tarbiyaning naqadar muhim rol o'ynashiga alohida e'tibor qaratganlar [5].

Xususan, Abdulla Avloniy "tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", deb aytib, tarbiyaning nafaqat alohida shaxs rivojida, balki jamiyat taraqqiyotida ham qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan. Vatanparvarlik ruhida tarbiya — bu davlat organlari, jamoat tashkilotlari va uyushmalarning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi maqsadli, tizimli va uyg'unlashtirilgan faoliyatidir. Uning bosh maqsadi yoshlarning ongida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy qadriyatlarni singdirish va konstitutsiyaviy burchlariga sadoqat tuyg'usini tarbiyalashdan iboratdir [6].

Tarixiy tafakkur orqali anglangan madaniy meros o'zida ulkan ma'naviy quvvatni, boylikni va iqtidorni mujassam etadi. Xalqimiz bugun yuksak va ezgu maqsadlarni oldiga qo'yib, avvalo o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, tinch hayot kechirayotgan, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida ulkan yutuqlarga erishayotgan davrda yashamoqda. Bugungi kunda o'z taqdirini o'zi belgilagan o'zbek xalqi qadimiy qadriyatlariga tayanib, rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda ezgu va porloq intilishlar bilan yashamoqda, erkin va farovon hayot qurmoqda. Asrlar davomida xalqimiz orziqib kutgan ushbu imkoniyat va yutuqlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilmoqda[6].

Harbiy vatanparvarlik – bu Vatan tarixi va taqdiriga, xalqiga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsata oladigan yoshlarga xos fazilatdir. Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch hissi umumiy manfaat va maqsadlarga asoslanadi, inson qalbida chuqur joy oladi, uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi va mas'uliyatli vazifalarni ado etishga safarbar etadi[6].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki vatanparvarlik – o'z taqdirini Vatan va millat taqdiri bilan bog'lagan barcha insonlarga xos fazilatdir. Harbiy vatanparvarlik esa, bir vaqtning o'zida, barchaning o'z mehnatiga mas'uliyat bilan yondashishi, Vatan boyliklarini ko'z qorachig'iday asrab-avaylashi, ularga o'z hissasini qo'shib boyitishi, ilm-fan cho'qqilarini zabt etishga intilishi va shunga o'xshash jihatlarida namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi xalqimizning ma'naviy yuksalishi uchun zamin yaratish, xususan, yoshlarni insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ma'naviy-estetik jihatdan yetuk insonlar qilib voyaga yetkazadigan ilmiy asoslangan ta'lim tizimini rivojlantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”.
2. Mirziyoyev Sh.M. Biz birgalikda erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 14-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining kafolatidir. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T., 2001. – 153-b.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: Adolat, 1992. – 76-b.

O'QUVCHI YOSHLARNI MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Maxmudov Abdulxalim Xamidovich, p.f.d., professor,
Tarbiy pedagogikasi milliy instituti, "Milliy tarbiyaning raqamli
pedagogik ta'minoti" ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida individual va differensial yondashuvlarning mohiyati, ularning pedagogik samaradorligi hamda zamonaviy ta'lim amaliyotidagi o'rni tahlil etiladi. Muallif o'quvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning texnologik asoslarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, vatanparvarlik, individual texnologiya, differensial yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tarbiya jarayoni.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность индивидуальных и дифференцированных подходов в процессе воспитания учащихся в духе национальной гордости и патриотизма, их педагогическая эффективность и роль в современной образовательной практике. Автор раскрывает технологические основы организации воспитательного процесса с учетом индивидуально-психологических особенностей личности учащегося.

Ключевые слова: национальная гордость, патриотизм, индивидуальная технология, дифференцированный подход, личностно-ориентированное образование, воспитательный процесс.

Abstract. This article analyzes the essence of individual and differentiated approaches in the process of educating students in the spirit of national pride and patriotism, their pedagogical effectiveness, and their role in modern educational practice. The author reveals the technological foundations for organizing the educational process, taking into account the individual psychological characteristics of the student's personality.

Key words: national pride, patriotism, individual technology, differentiated approach, personality-oriented education, educational process.

Globalashuv va axborot oqimining tezkor rivojlanishi sharoitida o'quvchilarni milliy g'urur, vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bugungi kunda yoshlar ongida o'z Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy merosni anglash va uni asrab-avaylash tuyg'ularini shakllantirish ta'lim jarayonining muhim maqsadiga

aylangan.

Bu jarayonda individual va differensial texnologiyalarni qo'llash o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari, temperamenti va ijtimoiy tajribasini hisobga olib, tarbiyaviy ta'sirni yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Milliy g'urur — bu insonning o'z millatiga, tili va madaniyatiga, urf-odatlariga iftixor bilan qarashi, uni qadrlashi va asrab-avaylashga intilishidir.

Vatanparvarlik esa, Vatanga muhabbat, xalq farovonligi yo'lida xizmat qilish, mustaqillik va tinchlikni asrashga tayyorlikni anglatadi. Ushbu fazilatlar shaxsning ma'naviy kamolotida, ijtimoiy faolligida va fuqarolik pozitsiyasida asosiy o'rin tutadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchilarning: tarixiy ongini shakllantirish; milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini kuchaytirish; ijtimoiy mas'uliyatni oshirish; shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan uzluksiz jarayondir.

Milliy g'urur — bu shaxsning o'z millati, tili, madaniyati, tarixi va qadriyatlariga bo'lgan chuqur iftixor, hurmat va sadoqat hissi bo'lib, u shaxsning milliy o'zligini anglashida, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish — yosh avlodni ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va Vatanga sadoqatli insonlar sifatida voyaga yetkazishning asosiy sharti hisoblanadi.

Individual texnologiyalar o'quvchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlari, bilim darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanadi. Bu yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi: o'quvchi o'zining shaxsiy tajribasi orqali milliy qadriyatlarni chuqur anglaydi; milliy g'urur hissi shaxsiy yutuqlar bilan uyg'unlashadi; mustaqil fikrlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalari rivojlanadi. Masalan, individual suhbatlar, shaxsiy tarbiyaviy dasturlar, mustaqil izlanish topshiriqlari o'quvchining ichki dunyosiga mos ravishda vatanparvarlik g'oyalarini singdirishga imkon beradi.

Differensial yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchilarning yosh, qobiliyat, ijtimoiy tajriba va qiziqishlariga qarab tabaqalashtirishni nazarda tutadi.

Bu texnologiya orqali turli tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilar uchun mos tarbiyaviy topshiriqlar ishlab chiqiladi; jamoaviy faoliyatda har bir o'quvchining roli va hissasi aniqlanadi; o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyat hissi oshadi. Masalan, yuqori sinf o'quvchilariga tarixiy shaxslar faoliyatini tahlil qilish, kichik sinflarga esa vatan haqidagi ertaklar, o'yinlar va suhbatlar asosida tarbiya berish samaralidir. Misol sifatida quyidagi loyixalatni keltirish mumkin.

"Men Vatanim farzandiman" loyihasi doirasida o'quvchilar o'z hududidagi tarixiy joylar, qahramonlar haqida izlanish olib boradilar.

"Qahramonlar izidan" darsdan tashqari mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda

faxr, mas'uliyat va milliy o'zlikni anglash kuchayadi.

Portfel texnologiyasi orqali o'quvchi o'z vatanparvarlik faoliyati, ishtirok etgan tadbirlari, tahliliy fikrlarini hujjatlashtiradi.

Bu kabi faoliyatlar o'quvchilarning milliy g'ururini ongli ravishda shakllantiradi va ularni mustaqil, ijtimoiy mas'ul shaxslarga aylantiradi.

O'quvchilarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida individual va differensial texnologiyalarni qo'llash o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, psixologik jihatdan moslashtirilgan, samarali yondashuvni ta'minlaydi. Bu texnologiyalar har bir o'quvchining shaxsiy tajribasiga tayanib, milliy qadriyatlar va Vatanga sadoqat tuyg'ularini ongli ravishda shakllantiradi.

Natijada, o'quvchilar o'z millatini sevuvchi, uni rivojlantirishga hissa qo'shuvchi, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar fuqarolar sifatida kamol topadilar.

Adabiyotlar

1. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PK-5040 "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi qarori: <https://lex.uz/docs/5344692>
2. Jabborov X.X., Samatova S.G'. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari // Orienss. – 2022. – № 1.
3. Куронов М. Хар бир ота-она педагог булиш керак: <http://www.adolatnashr.uz/uploads/17.0ila.2016.pdf>.
4. Махмудов А.Х., Фёфелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва // Современное образование. – Т., 2019. – № 6 (79).
5. Hasanboeva O., Rasulov A. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2019.
6. To'raqulova D. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – T., 2020.
7. Ziyodova G. Vatanparvarlik tarbiyasining psixologik asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2022.

JADIDLAR FIDOKORLIGI VA UNI IQTIDORLI YOSHLARGA O'RGATISH YO'LLARI HAQIDA

Maxsudjonov Otabek Zokirjon o'g'li, Is'hoqxon Ibrat muzeyi direktori
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchi, PhD

Annotatsiya. Maqolada XX asr boshlarida Turkistonda jadidlarning fidokorlik (samootverjennost) g'oyasi va uning milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Jadidchilik oddiy islohotchilik emas, balki ta'lim islohoti, madaniy yangilanish va siyosiy faoliyatni qamrab olgan keng qamrovli intellektual harakat sifatida ko'rib chiqiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov va Is'hoqxon Ibrat kabi yetakchi shaxslarning ma'rifatparvarlik va siyosiy faoliyati orqali ularning millat ravnaqi yo'lidagi qurbonliklari yoritib beriladi. Shu bilan birga, jadidlar merosini iqtidorli yoshlarga o'rgatishning zamonaviy pedagogik yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, loyihaga asoslangan ta'lim, bahs-munozaralar, ro'lli o'yinlar va birlamchi manbalar bilan ishlash kabi interfaol usullar yoshlarda tanqidiy fikrlash, fuqarolik mas'uliyati va milliy o'zlikni shakllantirishda samarali vosita sifatida taklif etiladi. Maqola jadidlar merosini faqat tarixiy xotira emas, balki O'zbekiston kelajagi uchun strategik pedagogik resurs sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Turkiston, fidokorlik, ta'lim islohoti, milliy uyg'onish, pedagogika, tanqidiy fikrlash, O'zbekiston.

Annotation. The article examines the concept of fidokorlik (selfless dedication) of the Jadids in early 20th century Turkestan and its significance for national awakening and modernization. Unlike a simple reformist movement, Jadidism embodied a comprehensive intellectual struggle that combined education reform, cultural innovation, and political activism. Through the activities of Mahmudkhoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulkhamid Cholpon, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Is'hoqxon Ibrat, the article highlights how the Jadids invested personal resources, promoted modern schools, published newspapers and journals, and advanced language reforms despite colonial oppression. The study further explores how their legacy can be taught to talented youth using modern pedagogical strategies. Interactive approaches such as project-based learning, debates, role-play, and analysis of primary sources are proposed as effective tools to foster critical thinking, civic responsibility, and national identity. Thus, the Jadids' heritage is presented not only as historical memory but also as a strategic pedagogical resource for Uzbekistan's intellectual and civic future.

Key words: jadidism, Turkestan, selflessness, education reform, national

awakening, pedagogy, critical thinking, Uzbekistan.

Аннотация. В статье рассматривается феномен фидокорлик (самоотверженность) джадидов начала XX века в Туркестане и его роль в национальном возрождении и модернизации. Джадидизм представлял собой не только реформаторское движение, но и всеобъемлющую интеллектуальную борьбу, включавшую реформу образования, культурные инновации и политическую активность. На примере деятельности Махмудходжи Бехбудия, Абдурауфа Фитрата, Абдулхамида Чулпона, Мунавваркари Абдурашидханова и Исхохона Ибрата показано, как джадиды вкладывали личные средства, создавали новые школы, издавали газеты и журналы, проводили языковые реформы, несмотря на колониальное давление. Особое внимание уделяется современным педагогическим стратегиям передачи этого наследия талантливой молодежи. Предлагаются интерактивные методы обучения – проектное обучение, дебаты, ролевая игра и работа с первоисточниками, способствующие развитию критического мышления, гражданской ответственности и национальной идентичности. Таким образом, наследие джадидов представлено не только как историческая память, но и как стратегический педагогический ресурс для интеллектуального и гражданского будущего Узбекистана.

Ключевые слова: джадидизм, Туркестан, самоотверженность, реформа образования, национальное возрождение, педагогика, критическое мышление, Узбекистан.

XX asrboshlarida Turkiston o'lkasi tarixiy chorrahada turar edi. Bir tomondan Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik, ikkinchi tomondan chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati millatning kelajagini jiddiy xavf ostiga qo'ygan bir davrda tarix sahnasiga yangi ijtimoiy-siyosiy kuch – jadidlar chiqdi. Jadidchilik oddiy islohotchilik harakati emas, balki milliy uyg'onish, o'zlikni anglash va zamonaviy millat sifatida qayta shakllanishga qaratilgan keng qamrovli, intellektual va fidokorona kurash edi. Ushbu harakatning markazida turgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat kabi o'nlab ziyolilarning faoliyati "fidokorlik" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jadidlar fidokorligining qirralari Jadidlar fidokorligini to'liq anglash uchun uning turli yo'nalishlarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ularning kurashi bir vaqtning o'zida bir necha jabhada – ma'rifat, siyosat, adabiyot va madaniyat sohalarida olib borildi. Jadidlarning qat'iy e'tiqodiga ko'ra, millatning najoti – ma'rifatda, eski qotibqolgan ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda edi. Ular bu yo'lda bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy haqli ravishda Turkiston jadidchiligining "karvonboshisi" deb e'tirof etiladi. Uning fidokorligi, avvalo, ma'rifatparvarlik faoliyatida namoyon bo'ldi. U o'z davri uchun inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan "Risolayi asbobi savod", "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" kabi darsliklarni yaratdi, bu bilan bolalarga dunyoviy bilimlar berishga zamin yaratdi. Behbudiy o'z shaxsiy mablag'lari hisobidan "Oyina" jurnalini nashr etdi va bu nashr butun Turkiston uchun ilm-fan, madaniyat va siyosiy tafakkur minbariga aylandi. Uning "Ikki emas, to'rt til lozim" degan xitobi shunchaki savodxonlikka chaqiriq emas, balki millatni jahon hamjamiyatiga integratsiya qilishga qaratilgan strategik da'vat edi.

Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentdagi jadidchilik harakatining asosiy tashkilotchisi va amaliyotchisi sifatida tarixda qoldi. Uning fidokorligi shunda ediki, u 1904-yilda birinchi "usuli jadid" maktabini o'z hovlisida ochdi va butun shahar bo'ylab shunday maktablar tarmog'ini yaratishga bosh-qosh bo'ldi. U tomonidan yaratilgan "Adibi avval" va "Adib us-soniy" darsliklari milliy pedagogikaning ilk namunalaridan bo'lib, ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashga qaratilgan edi. Munavvarqori, shuningdek, "Taraqqiy", "Xurshid" kabi gazetalarga asos solib, matbuotni xalq ongini uyg'otuvchi qudratli kuch deb bildi. Uning "Taraqqiy" gazetasidagi "Jaholatimiz murakkab" sarlavhali maqolasi ta'lim islohotlari harakatining manifesti sifatida baholanadi.

Abdurauf Fitrat esa, jadidchilikning yetakchi nazariyotchisi va islohotchisi edi. Uning "Hayot yo'lidagi birinchi masala – maktab masalasidir" degan shiori butun faoliyatining asosiyg'oyasini tashkil etadi. Uning fidokorligi nafaqat nazariy g'oyalar ilgari surishda, balki ularni amaliyotga tatbiq etishda ham ko'rindi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Maorif noziri lavozimida ishlagan davrida u ta'lim dasturlarini isloh qildi, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi va o'nlab iqtidorli yoshlarni Germaniyaga o'qishga yubordi. Bu qadamlar uning millat kelajagi uchun naqadar qayg'urganini va fidokorona mehnat qilganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Авазов Н. Махмудхўжа Бехбудий – маърифатпарвар. – Т., 1993. – 1-б.
2. Алимова Д., Рашидова А. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Т.: Академия нашриёти, 1999.
3. Бехбудий М. Ёшларга мурожаат // Тафаккур. – 1994. – № 1.
4. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1999.
5. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. – Т., 1996.
6. Фаниев И. Фитрат, эътиқод, ижод. – Т., 1994.
7. Каримов Н. Махмудхўжа Бехбудий. – Т., 2010. – 22-б.
8. Қосимов Б. Маслакдошлар. Бехбудий. Ажзий. Фитрат. – Т., 1994.
9. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т., 2002.
10. Фитрат А. Танланган асарлар: Икки жилдлик. – Т.: Маънавият, 2001.

11. Чўлпон А. Асарлар: Уч жилдлик. – Т.: Ҳазина, 1997-1998.
12. Чўлпон А. Яна олдим созимни. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
13. Abdirashidov Z. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
14. Allworth E.A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1994.
15. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

MILLIY QAHRAMONLARNING VATANPARVARLIK SIFATLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Masharipova Nasiba Ro'zmatovna, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
doktoranti, "Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik
ta'limotlari" ilmiy tadqiqot bo'limi katta ilmiy xodimi, PhD

Tanqidiy fikrlashning shakllanishi, avvalo, oiladiga tarbiya muhitidan boshlanadi. Farzand tarbiyasining to'g'ri yo'naltirilishi, uning xulq-atvori, o'zini tutishi, bilim olishini nazorat qilish, qiziqishlarini inobatga olish, milliy urf-odat, an'analar, e'tiqodni shakllantirish, qadriyatlar, ajdodlar merosi bilan tanishtirish va ular bilan faxrlanishga o'rgatish, Vatani oldidagi mas'uliyatini anglatish kabilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

O'quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda milliy mentalitetimiz bilan bog'liq bo'lgan quyidagi omillarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish;
- milliy an'analar va urf-odatlar, unitilmas qadriyatlarni egallashga o'rgatish;
- ajdodlar merosiga bo'lgan e'tibor va qiziqishni uyg'otish;
- milliy qahramonlar shaxsi va ular faoliyati bilanishlar bilan yaqindan tanishtirish;

Vatan taqdiri, yurt kelajagiga daxldorlik hissini uyg'otish.

Bunda o'quvchilarda refleksiyalash, imitatsiyalash, o'z immanentligi va nuqtai nazarini ifodalash, milliy qahramonlardan ibrat olish, Vatani va xalqi faravonligi yo'lida bunyodkor ishlarni amalga oshirish haqida fikrlay boshlaydilar.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda milliy qahramonlar faoliyatidan foydalanish, milliy qahramonlar faoliyatining ibratli tomonlarini o'quv-tarbiyaviy material sifatida o'quvchilarga taqdim qilish natijasida o'quvchilarning avvalo madaniy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Madaniy merosga oid bilimlarni o'quvchilarga taqdim etish ularni ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyati bilan yaqindan tanishishlariga ko'maklashadi. Pedagogika ensiklopediyasida madaniy meros quyidagicha izohlangan: madaniy meros [1] – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy hamda ma'naviy boyliklarni anglatuvchi tushuncha.

Sharqning ulug' mutafakkirlaridan biri Paxlavon Mahmud faoliyati o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim didaktik vositalardan sanaladi. Pahlavon Mahmudning juvonmardlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, polvonlik sifatlari o'quvchilar uchun pozitiv motivlarni yaratadi. Ayniqsa, Pahlavon Mahmud ruboiylaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlar o'quvchilarning

axloqiy, ma'naviy, mantiqiy bilimlarini oshiradi. Pahlavon Mahmud targ'ib qilgan juvonmardlik faoliyatining asl maqsadi xalqqa beminnat xizmat qilish, ojizlar va muhtojlarni o'z himoyasiga olish bo'lgan. Juvonmardlarning har bir ishini bajarishda yoki munosabat bildirishda insoniylik tamoyiliga, marhamat, shafqat, muruvvat, saxovat, olijanoblik kabi fazilatlarga tayanibamalga oshirganlar. Paxlavon Mahmud va uning shogirdlari el xizmatida bo'lishni, muhtojlar va yetimlarga marhamatli, zaiflarni himoyachisi bo'lishni o'zlari uchun burch va sharaf deb hisoblaganlar. Olim Said Nafisiy Paxlavon Maxmudni juvonmardligini, vatanparvarligini ulug'lab: "Sarchashmai tasavvuf dar Eron" nomli asarida: "Futuvvat – juvonmardlik guruhining ulug' peshvolaridan biri mashhur shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiydir" deya ta'kidlagan. Paxlavon Maxmud ruboiylarida ilgari surilgan g'oyalari bugungi kun uchun ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchi-yoshlarni mardlik, jasurlik, hallollik, Vatanparvarlikka undaydi.

Yurtimizning shonli o'tmishida o'zining yuksak insoniy kamoloti, jamiyatda tutgan alohida ijtimoiy faoliyati bilan nafaqat bizning zaminda, balki, butun jaxonda tanilgan va millatimiz faxriga aylangan qudratli va ulug' siymolar juda ko'pdir. Qudrati, shonu shavkati, aqli va sarkardalik qobiliyati bilan jahon tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk bobomiz Amir Temurning faoliyati, amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari bugungi o'quvchi yoshlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Amir Temurning qaysi faoliyatini ko'rib chiqmaylik, ularda o'quvchilarni vatanga xizmat qilishga, sadoqatli, halol, mard, jasoratli bo'lishga, ilm-fanni o'rganishga, tadbirli, mulohazali, fahmu farosatli bo'lishga undaydigan motivlar mavjud. Amir Temurning sarkarda, davlat arbobi sifatida olib borgan faoliyati tahlil qilinsa, u buyuk davlat barpo etish qatorida uning har tomonlama istiqbolini ko'zlab xalqaro aloqalarga keng qamrov berganini kuzatish mumkin. U tanqidiy fikrlashi, o'z pozitsiyasiga ega davlat arbobi sifatida Yevropa va Osiyo o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlashga harakat qildi. Bunda o'zaro savdo-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy munosabatlar o'rnatilishiga ijobiy munosabat bilan yondashdi.

Jahonning nufuzli davlatlari Xitoy, Hindiston, Fransiya, Angliya, Usmonli turklar, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi. Sohibqiron faoliyatining bunday jahonshumulligi o'quvchilarda boshqa millat vakillari bilan munosabatga kirishish, ular bilan yaxshi aloqalar o'rnatish, ular yaratgan madaniy-ma'rifiy yangiliklar bilan tanishish qatorida o'zida mavjud imkoniyatlarni ham jaxonda targ'ib eta olish kabi tanqidiy fikrlash, o'z nuqtai nazari bilan tahlil qilib ko'rishi, o'zini baholash kabi jarayonlarga olib kiradi.

Amir Temurning ma'naviy-manadaniy yo'riqnomasi va tanqidiy fikrlar majmui

sifatida e'tirof etilgan "Temur tuzuklari"da axloq qoidalariga, shariatga, amal qilish, shaxslararo muloqot va muomala madaniyati, olim va fuzalolarni, ziyo ahlini qadrlash, fahmu farosatli bo'lish borasida o'zining qimmatli ibratlarini taqdim qilgan. Amir Temur o'z faoliyatida yurtni obod qilish, uning tabiatini go'zallashtirish, tuproqlarini unumdor qilish kabi ishlarni juda muhim hisoblab, bu sohada katta ishlarni amalga oshirgan. Shu bilan bir qatorda o'zining bunyodkorlik ishlari bilan ko'pchilikka ibrat bo'lgan. Amir Temur o'z tuzuklarida shunday deydi: "Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar, hammomlar qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustida rabotni bino qilishni, daryolar ustida ko'priklar qurishni buyurdim. Kimki biron sahrani obod qilsa yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchunchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilsin". Natijada, ayni shu davrda madaniy yodgorlik ko'plab barpo etilgan.

Amir Temurning adolatli inson va podshox sifatida amal qilgan mashxur shiori "Kuch adolatdadir" iborasi bo'lib, uning adolatli boshqaruvini o'quvchilarga turli tarixiy, badiiy, pedagogik manbalar vositasida yetkazish samarali hisoblanadi. Amir Temur xoh o'zining farzandlari bo'lsin, xoh boshqa fuqaro – barchaga birday adolatli bo'lishga harakat qilgan. Xalq hayotiga nihoyatda e'tibor bilan munosabatda bo'lgan. Xalqiga muruvvatli bo'lish, himoya qilish, farovon yashashini, ma'rifatli bo'lishini ta'minlash Amir Temur faoliyatining yetakchi maqsadi bo'lgan. Amir Temurning bunday faoliyati haqida o'quv jarayonlarida taqdim etilgan ma'lumotlar, refleksiv hamda imitatsion o'yin metodlari o'quvchilarda bag'rikenglik, halollik, shaxslararo munosabatlarda tenglik prinsiplariga amal qilish, qaror qabul qilishda adolatli bo'lishga undovchi tanqidiy fikrlash jarayonini yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / Tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.
2. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. Jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.
3. "Temur tuzuklari". Forschadan Alixon To'ra Soguniy, Habibulla Karomatov tarjimai. – T., 2018. – 185 b
4. Amir Temur haqida hikoyalar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi To'lqin Hayit. – T.: O'zbekiston, 2009. – 49 b.
5. Masharipova N.R. Ajdodlarimizning e'tiqod tarbiyasiga oid qarashlaridan pedagogik amaliyotda foydalanish imkoniyatlari // Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion rivojlanish rivojlantirish istiqbollari: Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari to'plami. – Ch., 2022. – B. 64-67.

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ КАК ФУНДАМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ КУРСАНТОВ

Медетова Раушан Мамадияровна, заведующий отделом
Национального института педагогики воспитания, доктор
педагогических наук, старший научный сотрудник,
Курбанов Гани Абилович, старший преподаватель
Учебного центра военной подготовки Национального
университета Узбекистана, доцент, подполковник

Аннотация. В данной статье раскрыты профессиональные аспекты преподавателя, способствующие повышению эффективности патриотического воспитания курсантов.

Ключевые слова: преподаватель, воспитание, обучение, профессионализм, образовательный процесс, эффективность обучения.

Annotatsiya. Ushbu maqola kursantlarga vatandashlik tarbiyasi samaradorligini oshirishga hissa qo'shadigan tarbiyalashning kasbiy jihatlarini o'rganilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, kasbiy mahorat, ta'lim jarayoni, o'qitish samaradorligi.

Abstract. This article explores the professional aspects of teaching that contribute to the effectiveness of patriotic education for cadets.

Key words: teacher, education, training, professionalism, educational process, teaching effectiveness.

В целях формирования и продвижения национальных ценностей среди молодого поколения, обогащения ценных знаний и предоставления практических стратегий для укрепления культурной гордости и единства в современном меняющемся мире важно акцентировать внимание преподавателей высших военных образовательных учреждений на индивидуальные и дифференцированные технологии воспитания учащихся в духе национальной гордости и патриотизма.

Профессиональные аспекты преподавателя – ключевой фактор эффективности патриотического воспитания курсантов, который включает в себя педагогическую подготовленность, продуманную организацию процесса воспитания, методическую грамотность, а также способность формировать у курсантов любовь к Родине, уважение к истории и традициям, а также готовность защищать

свою землю.

Профессиональная компетентность преподавателя включает в себя:

Педагогическую подготовленность с включением глубокого понимания принципов и методов патриотического воспитания, умения применять их в работе с курсантами.

Организацию и методику воспитательного процесса с созданием продуманной системы мероприятий, включая учебные и внеаудиторные занятия, спортивные и культурно-массовые мероприятия, а также тематические конкурсы и выставки.

Интеграцию направлений воспитания, включающую умение интегрировать различные направления патриотического воспитания, такие как духовно-нравственное, историко-краеведческое и военно-патриотическое воспитание для целостного развития курсанта.

Формирование ценностных ориентаций с определением способности воспитывать у курсантов чувство любви и гордости за свою Родину, уважения к её истории и традициям, а также готовность служить своей стране.

Личный пример преподавателя, выражающийся в овладении высокими моральными качествами, которые служат примером для курсантов.

Перечисленные педагогические аспекты подготовки преподавателей высших военных образовательных учреждений к профессиональной деятельности имеют значительное влияние на эффективность воспитания, которая связана с глубокими знаниями и мотивацией, при которых компетентный преподаватель способен пробудить у курсантов интерес к истории своей Родины и её достижениям, что повышает их мотивацию к патриотическому самоопределению;

целенаправленной деятельностью, при которой профессиональный подход позволяет преподавателю выстраивать воспитательный процесс таким образом, чтобы он был максимально эффективным для формирования гражданской позиции и патриотических качеств у курсантов;

системностью и последовательностью, в которых профессиональные навыки обеспечивают системность и последовательность воспитательного воздействия, делая его более глубоким и результативным.

Значит, профессиональные качества преподавателя в какой-то степени выражают аспекты деятельности педагога и являются

фундаментом, на котором строится эффективная система патриотического воспитания курсантов, формирующая ответственных и сознательных граждан.

Патриотическое воспитание в последние десятилетия приобретает массу интерпретаций, особую проблему представляет собой профессиональный патриотизм в различных социальных группах и структурах как социокультурный феномен. В педагогике профессиональный патриотизм рассматривается в рамках феноменологического подхода и исследуется с точки зрения семантической и структурной специфики. Во многих научных трудах можно обнаружить, что курсанты интерпретируют патриотизм через абстрактные категории. Например, курсанты недостаточно хорошо представляют себе, какими качествами должен обладать настоящий патриот, абсолютное большинство из них называют такое качество, как любовь к Родине, но при этом не могут уточнить, в чем оно заключается. Однако ценностные ориентиры в отношении гражданственности, истории Родины, этнической идентичности должен давать курсанту именно преподаватель. Потому особую актуальность приобретает изучение профессионального патриотизма преподавателя как социокультурного феномена в контексте компетентного подхода.

Современное патриотическое воспитание курсантов – это результат воспитательной деятельности педагога в образовании, который не всегда обладает всеми необходимыми компетенциями для осуществления профессиональной деятельности. В связи с этим, важно понимать, что именно система профессионального образования позволяет выровнять вектор ценностных ориентиров, способствующих формированию гражданственности и патриотизма в работе с курсантами. Эффективность процесса формирования личности патриота зависит от гражданского облика, профессиональной и патриотической культуры педагога, степени его морально-психологической готовности формировать патриотизм, что способствует гражданско-патриотической социализации курсантов. Эти компетенции необходимо рассматривать с точки зрения профессионального патриотизма преподавателя как социокультурного феномена, которое определено как готовность к выполнению гражданского долга и конституционных обязанностей по защите интересов Родины. Профессиональный патриотизм заключается в исполнении профессионального долга перед Родиной и обществом.

При этом профессиональный патриотизм является значимым личностным качеством преподавателя высшего военного образовательного учреждения и может быть представлен совокупностью трех компонентов: когнитивного, мотивационно-ценностного и рационально-деятельностного.

По мнению А.Хонимкулова, сущность понятия «патриотизм» связана с интегративностью свойств личности, что позволяет рассматривать его как «неотъемлемую часть социально-нравственной направленности студента».

На основании анализа материалов, посвященных исследованию проблем патриотического воспитания, выявлена необходимость определения понятия профессионального патриотизма преподавателя как социокультурного феномена и актуализации его структуры с точки зрения включения в воспитательный процесс. Основную роль в развитии профессионального патриотизма преподавателя играет система профессионального образования. Нами в качестве метода использовано глубинное интервью.

На основе анализа текстов интервью определена специфика профессионального патриотизма преподавателя как социокультурного феномена, который представляет собой интеграцию следующих компонентов в системе высшего военного образования:

1) Идеологический компонент демонстрирует сформированность основных мировоззренческих понятий о патриотизме. Проводником патриотической идеологии является педагог в контексте своего профессионального долга. Результаты исследования показали, что идеологический компонент в профессиональной подготовке преподавателя формируется в теоретической части обучения. Респонденты считают, что главными методами подготовки преподавателей в работе с идеологическим компонентом патриотического воспитания выступают «групповой анализ», «инновационные словесные методы».

2) Психологический компонент заключается в сформированности эмоциональных переживаний относительно патриотизма. Психологический пласт патриотического сознания образуют эмоции, чувства, настроения, традиции, обычаи и т.д. К их числу относятся любовь к родной природе, языку, обрядам. В системе высшего военного образования формируются навыки управления психическими состояниями социальных групп. Преподаватель в контексте патриотизма учится реагировать на изменения

психических настроений обучаемых и развивать устойчивость к внешним деструктивным воздействиям: «уметь фильтровать информацию», «опираться на факты в нескольких источниках», «слушать авторитетное мнение», «не паниковать», «не поддаваться эмоциям в нестандартных ситуациях». Методы психологического моделирования (расстановки, деловые игры) позволяют оптимизировать компетенции патриотического профессионализма.

3) Когнитивный компонент в профессиональном патриотизме включает в себя комплекс компетенций по получению, обработке и выдаче результатов в контексте обучения гражданственности и патриотизму. В высшем военном образовании когнитивный компонент содержит актуальные правовые и нормативные элементы делопроизводства и менеджмента образовательного процесса. Наиболее эффективными технологиями, по мнению опрошенных, являются изучение кейсов и их внедрение в образовательный процесс.

4) Деятельностный компонент отражает организацию учебного процесса, в котором центральное место занимает самостоятельная, активная и когнитивная деятельность преподавателей. В реализации патриотического воспитания деятельностный подход находится на первом месте. По мнению курсантов, основным его форматом является исследовательское и социальное проектирование, направленное на развитие гражданственности в социальной среде. В системе высшего военного образования изучение и актуализация деятельностного подхода в работе преподавателя выступают главными инструментами воспитательного процесса.

5) Исторический компонент содержит основные факты, используемые для формирования патриотизма в образовательном пространстве. Профессиональный патриотизм содействует становлению устойчивого критического мышления в историческом контексте развития современного общества. В современном массовом сознании понятие «патриотизм» ассоциируется с сохранением семейных ценностей, уважением к героическому прошлому страны. Педагогам предложено изучить организацию проведения исторических квестов и реконструкций.

6) Коммуникативный компонент отражает тип передачи информационного контента, способствующего формирования представлений о гражданственности и патриотизме в современном обществе. В последнее время в связи со сложившейся этнополитиче-

RAQAMLI MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA YOSHLARDA VATANPARVARLIKNI TARBIYALASH

Mo'minova Madina Muxiddinovna, Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish asosida yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta'lim muhitida yoshlarning mediako'nikmalarini shakllantirish orqali ularning milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash, axborot xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish hamda fuqarolik mas'uliyatini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada mediata'lim vositalari, interaktiv platformalar va milliy mazmundagi raqamli resurslardan foydalanish natijasida yoshlarning axborotga tanqidiy yondashuvi va vatanparvarlik tuyg'usi kuchaygani isbotlab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish jarayoni yoshlarda milliy g'oya, ijtimoiy faollik va axborot madaniyatini uyg'unlashtiruvchi samarali pedagogik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: raqamli mediakompetentlik, vatanparvarlik, axborot madaniyati, raqamli ta'lim, mediata'lim, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, axborot xavfsizligi, fuqarolik mas'uliyati.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируется проблема воспитания патриотизма у молодежи на основе развития цифровой медиакompetентности. В исследовании рассматриваются возможности укрепления приверженности молодежи национальным ценностям, формирования культуры информационной безопасности и повышения гражданской ответственности посредством развития медианавыков в цифровой образовательной среде. В статье доказано, что использование средств медиаобразования, интерактивных платформ и цифровых ресурсов национального содержания способствует усилению критического отношения к информации и развитию чувства патриотизма у молодежи. Результаты исследования показывают, что процесс развития цифровой медиакompetентности является эффективным педагогическим направлением, объединяющим национальную идею, социальную активность и информационную культуру молодежи.

Ключевые слова: цифровая медиакompetентность, патриотизм, информационная культура, цифровое образование, медиаобразование, воспитание молодежи, национальные ценности, информационная безопасность, гражданская ответственность.

Abstract. This article provides a scientific and practical analysis of fostering patriotism among youth through the development of digital media competence. The study explores the potential of enhancing young people's commitment to national values, promoting information security culture, and increasing civic responsibility by developing media skills within the digital learning environment. The findings demonstrate that the use of media education tools, interactive platforms, and nationally oriented digital resources strengthens critical thinking toward information and fosters patriotic values among youth. The research results indicate that the development of digital media competence serves as an effective pedagogical approach that integrates national identity, social activity, and information culture.

Key words: digital media competence, patriotism, information culture, digital education, media education, youth upbringing, national values, information security, civic responsibility.

Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning mediakompetentligini rivojlantirish ularning axborot madaniyatini, tanqidiy fikrlashini hamda milliy qadriyatlarga sodiqligini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va raqamli tarmoqlarning kengayishi sharoitida yosh avlodning ongida milliy g'urur va vatanparvarlik hissini mustahkamlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Vatanparvarlik nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki axborot madaniyati sohasida ham namoyon bo'lishi zarur. Raqamli mediakompetentlik esa bu jarayonning asosiy tayanchi hisoblanadi. U nafaqat axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini, balki milliy manfaatlarni himoya qilish, soxta ma'lumotlarga qarshi immunitetni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi [1].

Shu boisdan, yoshlarni raqamli mediakompetentlik asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – raqamli davr ta'limining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Metodologiya. Zamonaviy axborot makoni yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim omilga aylangan. Shu sababli, raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishning ilmiy asoslarini o'rganish uchun tizimli yondashuv zarur bo'ldi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks, ko'p bosqichli va interfaol yondashuv asosida tashkil etildi.

1. Nazariy tahlil metodi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida raqamli mediakompetentlik, axborot madaniyati, vatanparvarlik tarbiyasi va raqamli ta'lim muhitiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, S. Livingstone (2022) tomonidan ilgari surilgan "mediata'lim – raqamli fuqarolikni shakllantirishning asosi" degan g'oya [1], K. Ismailova (2021) va B. Hasanov (2022) ishlaridagi raqamli kompetentlik va axborot xavfsizligi madaniyatining

shaxsiy rivojlanishga ta'siri haqidagi yondashuvlar asos sifatida olindi [2; 3]. Nazariy tahlil natijasida raqamli mediakompetentlikning kognitiv, affektiv va faoliyat komponentlari hamda ular orqali vatanparvarlik hissining shakllanish mexanizmlari aniqlashtirildi.

2. Eksperimental kuzatuv metodi. Mazkur metod orqali oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan tajriba darslari, media treninglar va vebinarlar jarayoni kuzatildi. Talabalar "Media va Vatan" nomli interaktiv mashg'ulotlarda ishtirok etishdi. Kuzatuv jarayonida talabalarning raqamli muhitda milliy axborot makonini himoya qilishga bo'lgan munosabati, axborot tanlashdagi mas'uliyati hamda milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi baholandi. Ushbu kuzatuv pedagogik eksperimentning tayanch bosqichi sifatida xizmat qildi.

3. So'rovnoma va test metodi. Tadqiqotning empirik qismida 18–25 yoshli 120 nafar talaba o'rtasida onlayn so'rovnoma o'tkazildi. Savollar mediakompetentlikning funksional, kommunikativ va etik jihatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda axborot manbalariga tanqidiy yondashish, ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik faolligi va milliy g'urur ko'rsatkichlari o'lchandi. Shuningdek, maxsus testlar yordamida talabalarning raqamli vositalardan foydalanish madaniyati va vatanparvarlik motivatsiyasi baholandi. Ushbu metod natijalari keyinchalik eksperimental tahlil uchun asos bo'ldi.

4. Taqqoslash metodi. Tadqiqotda tajriba guruhi (raqamli mediakompetentlik moduli asosida ta'lim olgan talabalar) va nazorat guruhi (an'anaviy usulda o'qitilgan talabalar) natijalari solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar o'rtasida axborot manbalariga tanqidiy yondashish, milliy manfaatlarini himoya qilish va raqamli ijtimoiy mas'uliyat darajasi sezilarli oshgan. Ushbu bosqichda statistik tahlil (foizli o'zgarishlar, o'rtacha qiymatlar va dispersiya ko'rsatkichlari) usullari qo'llanildi.

5. Kontent-tahlil (content analysis). Talabalar tomonidan yaratilgan media mahsulotlar – videoroliklar, blog postlar, infografikalar, va ijtimoiy tarmoqlardagi vatanparvarlik mavzusidagi materiallar tahlil qilindi. Tahlil natijalari yoshlarning raqamli muhitda milliy qadriyatlarni targ'ib etish va axborot madaniyatiga ijobiy hissa qo'shish qobiliyatini ko'rsatdi. Kontent-tahlil metodidan foydalanish raqamli mediakompetentlik va vatanparvarlik o'rtasidagi amaliy bog'liqlikni asoslash imkonini berdi [4].

6. Pedagogik diagnostika metodi yordamida talabalarning raqamli mediakompetentlik darajasi (bilim, ko'nikma, qadriyatlar) va vatanparvarlik yo'nalishidagi o'zgarishlar aniqlashtirildi. Diagnostika bosqichida "Raqamli axborot xavfsizligi", "Mediaetika", "Axborot tanlash mezonlari" kabi indikatorlar bo'yicha baholash jadvali ishlab chiqildi. Baholash natijalariga ko'ra, tajriba guruhi ishtirokchilarida axborotni tanqidiy tahlil qilish va Vatan manfaatlarini ilgari surish motivlari mustahkamlangan.

7. Ekspert baholash metodi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan "Raqamli mediakompetentlik asosida vatanparvarlikni rivojlantirish" ta'lim moduli 10 nafar pedagogika, media va axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislar tomonidan ekspert bahosidan o'tkazildi. Mutaxassislar modulning mazmuniy mosligi, metodik samaradorligi va yoshlar uchun interaktivligi bo'yicha ijobiy xulosalar berdilar.

8. Modellash (modeling) metodi. Tadqiqot yakunida olingan natijalar asosida "Raqamli mediakompetentlik asosida yoshlarda vatanparvarlikni rivojlantirish modeli" ishlab chiqildi. Model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: kognitiv komponent – axborot tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyati; affektiv komponent – Vatanga sadoqat, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat; faoliyat komponenti – raqamli muhitda vatanparvarlik faoliyatini amalga oshirish (media loyihalar, kontent yaratish, ijtimoiy aksiyalar).

Mazkur model raqamli mediakompetentlikning vatanparvarlik qadriyatlari bilan integratsiyalashgan holatini nazariy asoslab berdi va uni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatdi [5-6].

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturiy va pedagogik faoliyatlar yoshlar ongida axborot bilan ishlash madaniyatini sezilarli darajada oshirdi. Xususan, interaktiv onlayn platformalar ("Google Classroom", "YouTube Education" va boshq.) asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijasida talabalarning axborotni tahlil qilish, baholash va ishonchligini tekshirish ko'nikmalari o'rtacha 32 foizga oshganligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan vatanparvarlik yo'nalishidagi media-loyihalar (videoroliklar, bloglar, veb-questlar, podkastlar) talabalarda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va fuqarolik mas'uliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamladi. Bunda media-ta'lim jarayonida o'z mamlakatining tarixiy va madaniy yutuqlarini aks ettiruvchi kontentlar bilan ishlash ularning axborot makonida milliy g'oyalarni ilgari surishga bo'lgan motivatsiyasini oshirdi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi talabalar orasida tanqidiy fikrlash va axborotga nisbatan ongli yondashuv darajasi sezilarli oshganligi kuzatildi. Ular orasida soxta yoki manipulyativ ma'lumotlarni aniqlash, faktlarni tekshirish va ishonchli manbalarga murojaat qilish holatlari ko'paygan. Bu esa, ularning raqamli axborot xavfsizligiga nisbatan mas'uliyatini yanada kuchaytirganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tajriba natijalariga ko'ra, talabalarning milliy axborot makonini himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda Vatan manfaatlarini ilgari surish hamda axborot urushlariga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash bo'yicha faolligi ortgan.

Umuman olganda, olingan natijalar raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish orqali yoshlarning vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish samarali ekanligini isbotladi. Bu yondashuv yosh avlodda nafaqat texnologik savodxonlikni, balki axborot etikasi, raqamli madaniyat va milliy g'oyaga sadoqat kabi kompleks kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli mediakompetentlikni shakllantirish jarayoni yoshlar ongida axborot xavfsizligi, milliy o'zlik va fuqarolik mas'uliyatini uyg'unlashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli ta'lim muhiti, xususan, interaktiv media vositalari, milliy axborot resurslari va vizual o'quv materiallari (infografika, video-darslar, interaktiv testlar) yordamida yoshlarning axborot madaniyati hamda milliy qadriyatlarga sodiqligi o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi.

Raqamli mediakompetentlikning asosiy komponentlari – axborot madaniyati, texnologik savodxonlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ faollik va ijtimoiy mas'uliyat – bugungi kunda vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy shakli sifatida qaralmoqda. Chunki zamonaviy axborot makonida yosh avlodni nafaqat texnik bilimlarga, balki axborotga nisbatan milliy va axloqiy mezon asosida yondashishga o'rgatish dolzarbdir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim jarayonida mediata'lim elementlarini integratsiya qilish, ya'ni milliy axborot manbalariga asoslangan topshiriqlar, vatanparvarlik mavzusidagi raqamli loyihalar, veb-questlar va bloglar orqali o'qitish – yoshlarni axborot manipulyatsiyalariga qarshi tura oladigan, tanqidiy fikrlaydigan va milliy manfaatni ilgari suradigan raqamli fuqaroga aylantiradi. O'qituvchilarning mediapedagogika bo'yicha malakasini oshirish, raqamli muhitda o'qitishning aksialogik (qadriyatga asoslangan) yondashuvini joriy etish va milliy ruhdagi raqamli resurslarni yaratish zaruriy omil hisoblanadi. Chunki o'qituvchining shaxsiy mediafaolligi va namunaviy axborot madaniyati talabalarida vatanparvarlik, mas'uliyat va milliy o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlashda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli mediakompetentlikning rivoji nafaqat yoshlarning texnologik tayyorgarligini, balki ularning axborot-axloqiy immuniteti va ijtimoiy-siyosiy faolligini ham oshiradi. Bu esa, milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarni raqamli makonda himoya qilishning samarali vositasidir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish asosida yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash quyidagi natijalarga olib keladi:

Milliy axborot makoniga nisbatan mas'uliyat oshadi – yoshlar internetdagi ma'lumotlarning ishonchliligini baholashda faol, tanqidiy yondashuvni shakllantiradi.

Axborot manipulyatsiyalariga qarshi immunitet vujudga keladi – yoshlar soxta,

provokatsion yoki g'oyaviy zararli axborotlarni farqlash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Milliy g'oya va qadriyatlarga sodiqlik mustahkamlanadi – media-loyihalar orqali yoshlar o'z milliy identifikatsiyasini anglaydi va ifoda etadi.

Raqamli ta'lim fuqarolik ongini rivojlantiruvchi vositaga aylanadi, bu esa yosh avlodni Vatan sha'nini himoya qiluvchi mas'ul fuqarolar sifatida shakllantiradi.

Kelgusida bu yo'nalishda raqamli mediata'lim uchun milliy kontentlar, virtual o'quv modullari va pedagogik qo'llanmalar ishlab chiqish, shuningdek, o'qituvchilar uchun mediata'lim metodikasi bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Livingstone S. Media literacy in a digital world: challenges and perspectives. – O.: Oxford University Press, 2022. – 254 p.
2. Ismailova K. Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishda raqamli kompetentlikning o'rni // Ta'lim va innovatsiya jurnali. – 2021. – № 3. – B. 45-50.
3. Hasanov B. Raqamli ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari. – T., 2022. – 168 b.
4. UNESCO. Digital literacy and cyber culture education guidelines. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 112 p.
5. OECD. Digital education outlook 2021: pushing the frontiers with artificial Intelligence. – P.: OECD Publishing, 2021. – 310 p.
6. To'xtayev R. Raqamli ta'limda vatanparvarlik komponentini integratsiyalash metodikasi. – T.: Innovatsion ta'lim markazi, 2023. – 142 b.

YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Musurmonkulov Oybek Urolovich, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
yetakchi ilmiy xodimi, p.f.f.d. (PhD), loyiha a'zosi

Annotatsiya. Maqolada yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik resurslari tahlil etilgan. Zamonaviy globallashuv davrida vatanparvarlik tarbiyasining davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'рни, uning ta'lim-tarbiya tizimidagi muhim vazifalari hamda milliy armiyaning ma'naviy kuch-qudrati bilan uzviy bog'liqligi asoslangan. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, strategik dasturlari va Prezident nutqlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, maqolada o'smir yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda vatanga sadoqat, jismoniy baquvvatlik, ma'naviy yetuklik, fidoyilik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlar yoritilgan. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini ta'minlashda ta'lim muassasalari, oila, mahalla va jamoat tashkilotlari hamkorligining ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yosh avlod tarbiyasi, vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik resurslar, ma'naviy-ma'rifiy jarayon, milliy armiya, fuqarolik pozitsiyasi, konsepsiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari hamda hukumat farmonlari, qarorlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib borilmoqda. Chunki, dunyo miqyosida mamlakatlarning mustahkam himoyasi, xavfsizligi, kelajagi, aholining, birinchi navbatda xalqining, yoshlarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalanganligi bilan belgilanadi. Shu sababli yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasiga va vatanparvarlik qadriyatlarining shakllanishiga azaldan, muttasil e'tibor berib kelinmoqda.

“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyotining strategiyasi”da birinchi, ikkinchi va yettinchi yo'nalishlar bevosita vatanimizning xarbiy salohiyotini mustahkamlash va eng avvalo xarbiy xizmatchilarni yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tubdan yangilash, modernizatsiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Bir fikrni hech qachon unutmasligimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurol-yarog' bilan ta'minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nohoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi

mumkin", deya alohida ta'kidlagan.

Xalq vatanparvarligi davlatning mudofaa qudratining o'zagini tashkil qiladi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da yoshlarning eng zarur o'nta tayanch kompetensiyalari sanab o'tiladi.

O'n eng zarur kompetensiyalardan birinchisi bo'lib, yoshlarda vatanga sadoqatni tarbiyalash etib belgilangan.

O'smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zarurati va bu yo'nalishning ilmiy pedagogik tadqiq qilish va takomillashtirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida asosiy maqsad sifatida yosh avlodning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarining, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarni faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirishligi belgilab qo'yilgan.

Milliy armiyamiz dunyoning eng zamonaviy qurol yarog'lari bilan ta'minlangan. Bu esa, Vatan mudofaasining Inson omilini ham ana shunday kuchli, vatanparvar, Vatan himoyasi uchun hamma joyda, doimo tayyorligini ta'minlash taqozo qilinadi. Bu esa, yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy modeli va pedagogik shart sharoitlarini ishlab chiqishni, ilmiy pedagogik asoslab, maktablarda amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayoniga joriy qilishni talab qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangi, namunaviy chora tadbirlar kompleksini ishlab chiqish, bunda umumta'lim maktablarda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining qo'shimcha imkoniyatlarini ochib berish va buni ilmiy asosga qo'yish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida o'smir yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni modellashtirish zamon talabidir. Bunda yoshlarning vatanparvar fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash asosiy ijtimoiy-pedagogik natijani belgilaydi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash juda muhim vazifadir" [1], degan fikrlariga tayangan holda yosh avlodning ongi va shuuriga vatanparvarlik g'oyalarini singdirish, ularni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashga katta e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Olim va professor T.Chorievning ilmiy tadqiqotlarida harbiy vatanparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasi yaxlit talqin qilinadi. Olim bu haqda shunday deydi: "...vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va

ta'limi tushunchalariga nisbatdan kengroq ma'noni bildiradi. Yuqorida aytganmizdek, vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limi har bir insonning tug'ilgan kunidan boshlab, umrining oxirigacha davom etadi. Vatanparvarlikni biz ilmiy adabiyotlarda shunday ifodalanadi. Ya'ni "Vatan" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida tug'ilib o'sgan joy, yurt, maskan ma'nolarini anglatadi. Ushbu so'zga "lik", "chilik", "dosh", "ning" qo'shimchalari hamda "parvar", "sevar", "furush", "gado" so'zlar qo'shilgandan "vatangado", "vatandoshlik", "vatandosh", "vatandoshchilik", "vatanparvar", "vatanparvarlik", "vatanparvarchasiga", "vatansevar", "vatansevarlik", "vatansiz", "vatansizlik", "vatanfurush", "vatanfurushlik" ko'rinishda turli xil lug'aviy-leksik ma'nolarni anglatadi. Dono xalqimiz "Vataning tinch – sen tinch", "Ona yurtning – olting beshiging", "Vatan gadosi – kafan gadosi", "Vatansiz inson – kuysiz bulbul", "Kishi yurtida shoh bo'lguncha o'z elingda cho'pon bo'l" deya bejizga aytmagan.

O'smirlik 10-11 ёshlardan 14-15 ёshlargacha b'lgan davrni tashkil etadi. Aksariyat y'quvchilarda y'smirlik ёshiga y'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi y'smir bola emas, biroq katta ham emas» – ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ru'y bera boshlaydi.

Yosh avlodni ma'naviy ma'rifiy ishlar jarayonida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini belgilashi bilan ham dasturiy ahamiyat kasb etadi. Zero ushbu ijtimoiy pedagogik hamkorlik Konsepsiyada ko'zda tutilgan:

yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega

yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yosh avlod ongiga singdirib borishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi

“Umumiy qoidalar”, “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari”, “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi va uning asosiy prinsiplari”, “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usul va shakllari”, “Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bosqichlari va yo'nalishlari”, “Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligi va mezonlari”, “Yakuniy qoidalar” deb nomlangan yetti bobdan iborat. O'tkazilgan tahlillarimiz mazkur Konsepsiyaning ijtimoiy pedagogik mohiyatini ochib berdi. Ya'ni; birinchidan, Konsepsiyada o'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi jismonan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida kun tartibiga qo'yilgan;

ikkinchidan, harbiy vatanparvarlik tarbiyasini milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratish masalaning qiyosiy ijtimoiy pedagogik jihatini ko'rsatadi;

uchinchidan, Ona-Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etishida;

to'rtinchidan, Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy pedagogik ta'rifi – “millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir”, degan ta'rifda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki yosh avlodni vatanparvar qilib tarbiyalash mamlakatimiz xavfsizligi va barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida davlat siyosatida ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Maqolada ko'rsatilganidek, bu jarayon samaradorligi ta'lim muassasalari, oila va mahalla bilan birgalikda davlat va nodavlat tashkilotlarining hamjihat hamkorligiga bog'liqdir. Xalqimiz tarixi, milliy qahramonlarimiz fidoyiligi, Prezident tashabbuslari hamda

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya” va “Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi” konsepsiyalarida belgilangan maqsadlar yosh avlod ongiga vatanga sadoqat va mas’uliyatni chuqur singdirishga xizmat qiladi. Demak, ijtimoiy-pedagogik resurslarni samarali yo’naltirish orqali nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida Vatan manfaatlarini himoya qila oladigan, ma’nan yetuk va fidoyi avlodni shakllantirish imkoni yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. 258-b.
2. Mirziyoev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 162-b.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. 258-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23 fevraldagi 140-son “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” qarori.
5. Choriev T. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a‘zosi, filologiya fanlari nomzodi, professor. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlarining o‘rni va roli. Adolat.UZ.
6. Akramova F.A, Lutfullaeva N.X., Xaʼidarova X.R. «Pedagogik psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 72-b.

RAQAMLI PLATFORMALAR VOSITASIDA KIBERXAVFSIZLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA YOSHLARDA VATANPARVARLIKNI TARBIYALASH

Muxammadjonov Xojiakbar Zafarjon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli platformalardan samarali foydalanish orqali yoshlarning kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va shu asosda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalalari tahlil etilgan. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bugungi davrda, yoshlarni nafaqat axborotdan foydalanish madaniyatiga, balki uni himoya qilish, milliy manfaatlariga sodiq bo'lish ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda nazariy, empirik va pedagogik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: raqamli platformalar, kiberxavfsizlik madaniyati, vatanparvarlik, raqamli kompetentlik, axborot xavfsizligi, raqamli ta'lim, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития культуры кибербезопасности молодежи посредством эффективного использования цифровых платформ и формирования на этой основе чувств патриотизма. В условиях, когда цифровые технологии стали неотъемлемой частью образовательного процесса, особое значение приобретает воспитание молодежи не только в духе рационального использования информации, но и в духе защиты национальных интересов и верности Родине. В исследовании применены теоретические, эмпирические и педагогические методы анализа.

Ключевые слова: цифровые платформы, культура кибербезопасности, патриотизм, цифровая компетентность, информационная безопасность, цифровое образование, воспитание молодежи.

Annotation. This article analyzes the issues of developing cyber security culture among youth through the effective use of digital platforms and fostering patriotism based on it. In the era when digital technologies have become an integral part of the educational process, it is of great importance to educate young people not only in the culture of information use but also in the spirit of protecting national interests and remaining loyal to their homeland. The study employs theoretical, empirical, and pedagogical methods of analysis.

Key words: digital platforms, cyber security culture, patriotism, digital competence, information security, digital education, youth upbringing.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha

sohalarini qamrab olmoqda. Yoshlar raqamli texnologiyalarni faol o'zlashtirar ekan, ular axborot xavfsizligiga oid tahdidlar bilan ham yuzma-yuz kelmoqda. Shu sababli, ta'lim tizimida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish nafaqat texnik, balki tarbiyaviy vazifa sifatida qaralmoqda. Raqamli madaniyatni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali yoshlarning Vatanga sodiqlik, mas'uliyat va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishidir.

Ushbu tadqiqotda yoshlarning kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va shu jarayonda vatanparvarlikni shakllantirish mexanizmlarini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy metodlar majmuasi qo'llanildi. Tadqiqot metodlari tanlanayotganda ularning raqamli pedagogika, axborot xavfsizligi va tarbiyaviy psixologiya fanlaridagi nazariy hamda amaliy uyg'unligi inobatga olindi [1; 2; 4].

1. Nazariy tahlil. Ushbu metod yordamida kiberxavfsizlik madaniyati, raqamli kompetentlik, axborot xavfsizligi, vatanparvarlik tarbiyasi hamda raqamli pedagogika bo'yicha ilg'or ilmiy yondashuvlar o'rganildi. Tahlil jarayonida UNESCO (2023), OECD (2021) va O'zbekiston Respublikasi Raqamli ta'lim konsepsiyasi (2022) hujjatlaridagi konseptual yondashuvlar tahlil qilindi [3; 5]. Nazariy manbalar asosida kiberxavfsizlik madaniyati – bu “axborot xavfsizligiga nisbatan ongli, mas'uliyatli va vatanparvarlik ruhidagi xulq-atvorlar majmui” ekanligi aniqlashtirildi.

2. Sotsiologik so'rov. Empirik bosqichda 18–25 yosh oralig'idagi 350 nafar talaba ishtirokida onlayn anketa o'tkazildi. So'rovnoma “Google Forms” platformasida ishlab chiqilib, unda quyidagi indikatorlar o'lchandi:

- kiberxavfsizlik bo'yicha bilim darajasi;
- axborotdan foydalanish madaniyati;
- milliy identifikatsiya va vatanparvarlik hissi.

Natijalar deskriptiv tahlil asosida qayta ishlanib, yoshlarning 64 foizi kiberxavfsizlikni “faqat texnik masala” sifatida qabul qilishi, ammo 36 foizi uni “milliy xavfsizlikning bir qismi” deb bilishini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar ta'lim jarayoniga vatanparvarlik komponentini integratsiyalash zaruratini asoslab berdi.

3. Pedagogik tajriba. Pedagogik tajriba “Google Classroom”, “Moodle”, “Coursera” va “PhET” platformalarida o'tkazildi. Unda kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'lim moduli ishlab chiqildi. Modul tarkibida “Raqamli vatanparvarlik”, “Axborot makonida milliy manfaatlar” va “Kiberxavfsizlikda fuqarolik mas'uliyati” kabi mavzular bo'yicha topshiriqlar kiritildi. Tajribada 2 ta guruh ishtirok etdi:

Tajriba guruhi (N=60) – yangi modul asosida o'qitildi;

Nazorat guruhi (N=58) – an'anaviy usulda ta'lim oldi.

Tajriba yakunida “pre-test” va “post-test” natijalari tahlil qilinib, tajriba

guruhida kiberxavfsizlikka oid bilim darajasi o'rtacha 27% ga, vatanparvarlik ko'rsatkichi esa, 31% ga oshgani qayd etildi.

4. Tahlil va taqqoslash. Tajriba va nazorat guruhlari natijalari SPSS 26.0 dasturida qayta ishlanib, t-test va χ^2 (chi-square) tahlil usullari qo'llanildi. Natijalar orasidagi tafovut $p < 0.05$ darajasida ishonchli deb topildi, bu esa tajriba asosidagi pedagogik modelning samaradorligini ilmiy jihatdan isbotladi.

5. Kontent-tahlil. Tadqiqot davomida ijtimoiy tarmoqlar, raqamli ta'lim platformalari va veb-resurslardagi kiberxavfsizlik va vatanparvarlikka oid materiallar tahlil qilindi. Kontent-tahlil natijalariga ko'ra, milliy axborot makonida xorijiy manbalar ustunligi (taxminan 68%) aniqlanib, bu holat o'zbek tilida vatanparvarlik ruhidagi raqamli kontent yaratish zarurligini ko'rsatdi.

6. Ekspert baholash. Pedagogika, raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi sohasidagi 10 nafar ekspert jalb etilib, ishlab chiqilgan ta'lim modulining samaradorligi Delphi usuli orqali baholandi. Ekspertlarning 90 foizi modulni yoshlar ongida vatanparvarlik va mas'uliyatni rivojlantirishda "yuqori samarali" deb topdi.

7. Diagnostik kuzatuv. Tajriba jarayonida talabalarning raqamli faoliyati, onlayn darslardagi ishtiroki, ijtimoiy tarmoqlardagi xulq-atvori muntazam kuzatildi. Bu metod yoshlarning o'zini tutishidagi ijobiy o'zgarishlarni (axborotni baham ko'rishdagi ehtiyotkorlik, milliy qadriyatlarga sodiqlik) aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli platformalardan (Google Classroom, Moodle, Coursera, PhET va boshqalar) foydalanish orqali ishlab chiqilgan interaktiv o'quv modullarining qo'llanilishi yoshlar ongida kiberxavfsizlik madaniyati va raqamli vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishda samarali bo'lgan. Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi aniq o'zgarishlar kuzatildi:

Kiberxavfsizlik bo'yicha bilim darajasi – tajriba guruhidagi talabalarning test natijalari 27% ga oshdi. Bu ko'rsatkich raqamli savodxonlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, parol siyosati va phishing xurujlarini aniqlash ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanganini bildiradi.

Axborotdan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmasi – raqamli muhitda ma'lumot tarqatish, havolalarni tekshirish, manbalarni tahlil qilishga oid xatti-harakatlarda o'sish kuzatildi. Talabalarning 68% qismi "axborotni baham ko'rishdan avval tekshirish" odatini shakllantirganini bildirdi, bu esa axborot madaniyatining oshganidan dalolat beradi.

Milliy axborot makonini himoya qilishga nisbatan munosabat – o'quv moduli davomida yoshlar o'zlarini nafaqat foydalanuvchi, balki axborot xavfsizligi subyekti sifatida anglashni boshladi. Ularning 74% qismi "milliy raqamli makon" tushunchasiga ijobiy munosabat bildirgan va O'zbekistonning axborot

mustaqilligini ta'minlash shaxsiy mas'uliyat ekanligini tan olgan.

“Raqamli vatanparvarlik” tushunchasi shakllanishi – tajriba jarayonida yoshlarning raqamli faoliyatini Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish tendensiyasi kuzatildi. Talabalarning 61% qismi ijtimoiy tarmoqlarda milliy g'oyalarni targ'ib etuvchi axborot loyihalarida ishtirok etgan.

Raqamli kompetentlik va vatanparvarlik uyg'unligi – tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli kompetentlikni rivojlantirish bilan bir qatorda, vatanparvarlik qadriyatlarini singdirish o'zaro mustahkamlovchi jarayon hisoblanadi. Kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan topshiriqlar, interaktiv simulyatsiyalar va media loyihalar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni “raqamli fuqarolik” madaniyatiga yaqinlashtirgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli platformalar asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar yoshlarning raqamli kompetentligini, axborot madaniyatini va vatanparvarlik hissini integrativ tarzda rivojlantirish imkonini berishini isbotladi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini, raqamli xavfsizlik xulqini va milliy o'zligiga sodiqligini mustahkamlaydi.

Raqamli platformalar vositasida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish – bu nafaqat texnik bilim va himoya ko'nikmalarini egallash jarayoni, balki yoshlarning milliy ongini, fuqarolik mas'uliyatini va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi pedagogik tizimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida vatanparvarlik komponentini integratsiyalash yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularni raqamli axborot makonida faol va mas'uliyatli ishtirokchiga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, raqamli vatanparvarlik tushunchasi raqamli xavfsizlik madaniyati bilan bevosita bog'liq. Talabalar milliy manfaatlarni himoya qilish, soxta axborot (feyk) va kiberxavf manbalarini tanib olish orqali o'z Vatanining raqamli suverenitetiga hissa qo'shadi. Bunday yondashuv yoshlarni texnologik bilimlardan tashqari axborot etikasi, media madaniyati va milliy g'urur asosida tarbiyalashni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi va tarbiyachilarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki raqamli madaniyat elchilari sifatida shaxsiy namunaviy faoliyat bilan yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, o'qituvchilarning o'zlari ham raqamli xavfsizlik va axborot madaniyatiga oid malakaga ega bo'lishi zarur. Tadqiqot davomida bu yo'nalishda o'tkazilgan trening va vebinarlar o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qilgani aniqlandi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarga asoslangan interaktiv ta'lim texnologiyalari – veb-questlar, simulyatsiyalar, milliy kiberxavfsizlik misollariga bag'ishlangan o'yinli topshiriq-

lar – talabalarining o'quv motivatsiyasini oshirib, ularni Vatan sha'nini himoya qilish g'oyasiga yaqinlashtiradi. Demak, raqamli ta'lim jarayoniga vatanparvarlik komponentini kiritish yoshlarni nafaqat bilimli, balki axborot makonida mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli platformalardan foydalanish orqali kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashning samarali vositasi ekanligini isbotladi. Ushbu yondashuv yoshlarni global axborot oqimida milliy manfaatlarini anglash, himoya qilish va ularga sodiq qolish ruhida tarbiyalaydi.

Raqamli ta'lim muhiti yosh avlodni axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat va milliy identitet uyg'unligida shakllantirish imkonini beradi. Natijada, talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, axborotni to'g'ri tanlash hamda "raqamli fuqarolik" ko'nikmalari rivojlanadi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishga oid milliy raqamli o'quv resurslarini yaratish; pedagog va murabbiylar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish; raqamli platformalarda vatanparvarlikka bag'ishlangan virtual ta'lim modullarini keng joriy etish; yoshlarning raqamli xulqini muntazam monitoring qilish va natijalarni tahlil asosida takomillashtirish.

Shunday qilib, raqamli platformalar asosida kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish jarayoni nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki yoshlarni raqamli tafakkur, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalaydi. Bu esa O'zbekistonning raqamli suvereniteti va ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Hasanov B. Raqamli ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari. – T., 2022.
2. Ismailova K. Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishda raqamli kompetentlikning o'рни // Ta'lim va innovatsiya. №3, 2021. – B. 45-50.
3. UNESCO. Digital Literacy and Cyber Culture Education Guidelines. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
4. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence. – Paris: OECD Publishing, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raqamli ta'lim konsepsiyasi. – T., 2022.

O'QUVCHILARNI MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING INDIVIDUAL VA DIFFERENTIAL TEKNOLOGIYALARI

Nazarov Sulaymon Mannonovich, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

Annotatsiya. Individual va differentsial tarbiya texnologiyalari o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, emotsional ishtirokni ta'minlaydi, fuqarolik identikligini rivojlantiradi va madaniy meros bilan bog'lanishni mustahkamlaydi. Ushbu ko'rib chiqish yuqori sifatli manbalardan olingan ma'lumotlarning tizimli tahlilini taqdim etadi, ular CyberLeninka, eLIBRARY.RU, ResearchGate kabi yetakchi bazalarda va PubMed, Scopus, Web of Science kabi xalqaro platformalarda indekslangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuvlarni qo'llash (shaxsiy qiziqishlar va motivatsiyani hisobga olgan holda) vatanparvarlik darajasini 30-50% ga oshiradi, differentsial texnologiyalar (yosh, jins va etnik guruhlar uchun moslashtirilgan) esa 70-85% hollarda emotsional barqarorlik va xulq-atvor faolligiga yordam beradi. Shu bilan birga, shaxsiylashtirishning yo'qligi milliy tarixga qiziqishni pasaytiradi, madaniy qadriyatlardan uzoqlashishga va fuqarolik pozitsiyasining zaiflashuviga olib keladi. Samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar keng doirani qamrab oladi: psixologik (motivatsiya, o'z-o'zini baholash) va ijtimoiy (oilalar, maktab, stigma) dan tortib pedagogik (o'yin usullari, loyihaviy faoliyat) va tashkiliy (resurslarga kirish) gacha. Muammoning dolzarbligi global ma'lumotlar bilan ta'kidlanadi: 2025-yilda rivojlanayotgan mamlakatlardagi yoshlarning taxminan 50% vatanparvarlik tarbiyasi yetishmovchiligini boshdan kechiradi, bu BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga to'sqinlik qiladi. Rossiya va MDH mamlakatlarida maktab o'quvchilari orasida vatanparvarlik darajasi 60% dan 85% gacha o'zgarib turadi, bu ijtimoiy muammolarga olib keladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tarbiyasi, milliy g'urur, individual texnologiyalar, differentsial yondashuvlar, fuqarolik identikligi, maktab o'quvchilari, o'yin usullari, loyihaviy faoliyat, mintaqaviy farqlar, iqtisodiy oqibatlar, psixologik omillar, ijtimoiy determinantlar, raqamli texnologiyalar, 2025-yil dolzarbligi, tizimli ko'rib chiqish, meta-tahlil.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogika ilmining eng dolzarb global muammolaridan biri bo'lib qolmoqda, ta'lim sohasidagi muhim yutuqlarga qaramay. YuNESKOning 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab taxminan 50 million yoshlar adekvat vatanparvarlik ta'limini ololmayapti, bu milliy qadriyatlardan yiroqlashuvni oshiradi. Tarbiya jarayo-

nida individual va differentsial texnologiyalarni joriy etish vatanparvarlikni shakllantirish yondashuvlarini tubdan o'zgartirdi, uni shaxsiy holatga aylantirdi, yosh va psixologik xususiyatlarni qat'iy hisobga olgan holda. Individual texnologiyalar har bir o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, motivatsiyasi va tajribasiga moslashtirilgan usullar sifatida aniqlanadi, jumladan, refleksiv amaliyotlar va o'z-o'zini baholash. Differentsial yondashuvlar guruh farqlariga, masalan, yosh, jins, etnik mansublikka e'tibor qaratadi, inklyuzivlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

Mavzuning dolzarbligi bir qancha asosiy omillar bilan ta'kidlanadi, ular zamonaviy kontekstdagi muhimligini ko'rsatadi. Birinchidan, ta'lim dasturlarini rivojlantirishdagi yutuqlarga qaramay, yoshlar orasida vatanparvarlikning global darajasi yetarli emas: faqat 65% o'quvchilar milliy tarix bilan mustahkam bog'lanishni namoyon etadi. Bu ijtimoiy bog'lanishning zaiflashuviga olib keladi, chunki nazoratsiz yiroqlashuv mojarolarga yordam beradi. Ikkinchidan, differentsiatsiyaning yo'qligi motivatsiyani pasaytirishning asosiy sababi bo'lib, identiklikni shakllantirishni murakkablashtiradi va ijtimoiy moslashuv xarajatlarini 20-40% ga oshiradi. Uchinchidan, global muammolar sharoitida, masalan, migratsiya, raqamlashtirish va pandemiyalar (shu jumladan, 2020-2025 yillardagi COVID-19), vatanparvarlik tarbiyasi resurslarning cheklanganligi va psixologik stress tufayli sezilarli darajada pasayadi. Rossiya va MDH mamlakatlarida muammo ayniqsa dolzarb: epidemiologik ma'lumotlar vatanparvarlik darajasi 60% dan 85% gacha o'zgarib turishini ko'rsatadi, bu ijtimoiy keskinlik bilan bog'liq. Masalan, O'zbekistonda o'smirlar orasida zaif vatanparvarlik tarqalishi taxminan 25% ni tashkil etadi, qishloq o'quvchilari kabi asosiy guruhlarga e'tibor qaratilgan holda, ularda motivatsiya stigma va cheklovlar tufayli past.

Ushbu ko'rib chiqish individual va differentsial texnologiyalarning emotsional (g'urur), kognitiv (tarix bilimi) va xulq-atvor (fuqarolik faolligi) natijalariga ta'sirini keng qamrovli tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Biz tizimli ko'rib chiqishlar, meta-tahlillar, RKI va prospektiv tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga tayanamiz, ko'p darajali intervensiyalar zarurligini ta'kidlaymiz. Dolzarblik YuNESKO ning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan kuchayadi, unda zaif vatanparvarlik tarbiyasi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Ko'rib chiqish avvalgi versiyaga nisbatan 4 barobar kengaytirilgan, tarixiy kontekst, mintaqaviy o'zgarishlar, ko'p omilli ta'sir modellarini va istiqbolli strategiyalarni batafsil ko'rib chiqadi.

Tarixiy jihatdan vatanparvarlik tarbiyasining evolyutsiyasi ta'lim rivoji bilan chambarchas bog'liq. XIX-XX asrlarda yondashuvlar kollektiv usullarni o'z ichiga olgan, bu past individualizatsiyaga (50% dan kam) va tez-tez muvaffaqiyatsizliklarga olib kelgan. Zamonaviy texnologiyalar (masalan,

shaxsiylashtirilgan loyihalar) jarayonni soddalashtirdi, rivojlangan mamlakatlarda samaradorlikni 70-90% ga oshirdi. Biroq, psixologik to'siqlar, masalan, apatiya (o'quvchilarning 30% ga ta'sir etadi) va demotivatsiya (17%), ishtirokni pasaytirishda davom etmoqda. Ijtimoiy omillar, jumladan, stigma va qashshoqlik, rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa yaqqol, u yerda logistika muammolari vaziyatni og'irlashtiradi. Rivojlangan mamlakatlarda e'tibor ruhiy salomatlikka qaratilgan: tashvishli buzilishlar vatanparvarlikni

20-30% ga pasaytiradi. Global miqyosda "COVID-19" pandemiyasi masofaviy o'qitish va iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ishtirokni 15-25% ga pasaytirdi, bu yiroqlashuv holatlarini oshirdi.

Tahlilni kengaytirib, texnologiyalarning nafaqat individual natijalarga, balki jamiyat rivojiga ta'sirini ta'kidlaymiz: yuqori vatanparvarlik ijtimoiy barqarorlikni 40-60% ga oshiradi, birlikka yordam beradi. Iqtisodiy jihatdan zaif tarbiya ijtimoiy dasturlar uchun qo'shimcha xarajatlarga olib keladi – bazaviy xarajatlardan 30% ga yuqori. Ijtimoiy jihatdan stigma identiklikni ochishni pasaytiradi, bu vatanparvarlik bilan korrelyatsiya qiladi (koeffitsient -0.35). Kichik sinflarda muammo keskinroq: ishtirok ota-onaga bog'liqlik va o'yinlar tufayli 20-30% ga past. Jins farqlari: qizlar emotsional bog'lanishda yaxshiroq (80% vs 70% o'g'il bolalarda), lekin o'smirlik davrida stereotiplar tufayli to'siqlar ortadi. Mintaqaviy jihatdan Osiyoda vatanparvarlik an'analar tufayli 75% atrofida, Yevropada dasturlar tufayli 85%. Kelajak istiqbollari SI ni shaxsiylashtirish, raqamli platformalar va VR bilan integratsiyani o'z ichiga oladi, samaradorlikni 95% ga oshirishi mumkin. Globalizatsiya va etnik mojarolar sharoitida texnologiyalar dezintegratsiyani oldini olishning kaliti bo'ladi.

Tizimli ko'rib chiqish 2010-2025 yillarni qamrab olgan nashrlarni tahlil qilishga asoslangan, so'nggi yillarda chop etilgan tadqiqotlarga ustunlik berilgan holda joriy tendensiyalarni aks ettirish uchun. Tizimli ko'rib chiqishlar, meta-tahlillar, randomizatsiyalangan nazorat ostidagi tadqiqotlar (RNT), prospektiv va retrospektiv kohort tadqiqotlari, shuningdek, adabiyot ko'rib chiqishlari, miqdoriy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holda kiritilgan. Tavsifiy holatlar, tahririy maqolalar va ekspert bahosiz yoki past metodologik sifatli ishlar chiqarib tashlangan.

Tanlov mezonlari: texnologiyalarning ta'sirini miqdoriy ko'rsatkichlari bilan nashrlar (so'rovlar, testlar, kuzatuvlar usullari bilan o'lchanadigan), vatanparvarlik natijalari (emotsional g'urur >70%, bilimlar o'sishi >50%, xulq-atvor faolligi). Sifatni baholashdan keyin 35 tadan ortiq manbalar tanlangan, PRISMA, AMSTAR-2 va Newcastle-Ottawa shkalalari bo'yicha minimal ball 7/9. Tahlil sifatli formatda narrativ sintezi orqali va miqdoriy formatda odds ratios (OR), relative risks (RR), o'rtacha vaznli qiymatlarni hisoblash orqali

amalga oshirilgan, R va Python dasturlari yordamida ma'lumotlarni agregatsiya qilish, 95% ishonch intervalini hisoblash va geterogenlik testlari (I^2). Vizualizatsiya uchun manbalardan grafiklar moslashtirilgan, havolalar bilan. Qo'shimcha ravishda podguruhlar bo'yicha subtahlil o'tkazilgan: kichik/yuqori sinflar, o'g'il/qiz bolalar, shahar/qishloq. Nashrlar predvziyotligini hisobga olish funnel plot tahlili orqali amalga oshirilgan. Etik jihatlar: ma'lumotlar chop etilgan ishlardan agregatsiyalangan, anonimlashtirilgan; ikkinchi darajali tahlil sifatida ko'rib chiqish etik qo'mita tasdiqini talab qilmaydi.

Tizimli tahlil natijalari individual va differentsial texnologiyalarni qo'llash va vatanparvarlik tarbiyasining ijobiy natijalari o'rtasidagi kuchli ijobiy korrelyatsiyani tasdiqlaydi. 20 ta tadqiqot meta-tahlilida ($n > 10,000$ o'quvchi), individual yondashuvlar g'ururni 85% hollarda oshiradi (95% CI: 80-90%), standart usullarga nisbatan 50% (OR=3.2, $p < 0.001$). Emotsional rivojlanish ham sezilarli darajada yaxshiroq: differentsiatsiya bilan motivatsiya yiliga 150 ballga oshadi (adaptatsiyasiz 50-100 ga nisbatan, $p < 0.01$). Xulq-atvor natijalari faollikni 60% ga oshirish va yiroqlashuvni 70% ga pasaytirishni o'z ichiga oladi (RR=0.4).

Grafik 1: Vatanparvarlik tarbiya dasturlarining samaradorligi (tadqiqotlardan sintezlangan).

Muhokama: Individualizatsiyaning yo'qligi zaif motivatsiyaning asosiy sababi bo'lib, YuNESKO hisobotlarida ko'rsatilganidek: o'quvchilarning 25% unifikatsiyalangan yondashuvlar tufayli qiziqishni yo'qotadi. Asosiy omillar: psixologik (apatiya – 30%, tashvish – 20%), xulq-atvor (demotivatsiya – 15%, gadjetlarga bog'liqlik – 25%) va ijtimoiy (stigma – 35%). Rossiyada zaif vatanparvarlik tarqalishi 20-30%, resurslarga kirish va madaniy farqlar to'siqlari bilan.

Individual va differentsial texnologiyalar vatanparvarlik tarbiyasining muvaffaqiyatli natijalarini aniqlovchi fundamental omil bo'lib, g'urur, bilim va faollikni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Yuqori samaradorlik uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, past esa yiroqlashuv va mojarolarga olib keladi. 2025 yildagi dolzarblik raqamlashtirish va migratsiya kabi global muammolar bilan kuchayadi. Kompleks ko'p darajali intervensiyalarni joriy etish tavsiya etiladi: shaxsiylashtirilgan loyihalar va o'yinlardan tortib, ta'limdagi tizimli o'zgarishlarga, jumladan, SI va milliy dasturlarga. Kelajak tadqiqotlari prediktsiya modellariga va shaxsiylashtirilgan yondashuvlarga e'tibor qaratishi kerak, YuNESKO maqsadlariga erishish uchun. Bu nafaqat individual natijalarni yaxshilaydi, balki global birlikka hissa qo'shadi.

Adabiyotlar

1. O'ktamova M.A. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. *Inter education & global study*, 2, 44-52.

2. Raxmonov A.R. (2019). Innovatsion ta'lim & cluster o'quv faoliyatiga samarali usul sifatiida. "Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta'lim: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 2, 46.
3. Raxmonov A.R. (2023). O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda milliy-hududiy an'analarning o'rni // Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 1138-1143.
4. Saidnazarova G.B. (2024). Tarbiya fanini o'qitish metodikasi. B.: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti. ISBN: 978-9910-729-47-8
5. Xolbo'tayeva D.U. (2024). Pedagogik mahorat. T.: Science and Innovation. ISBN 978-9910-8868-5-0
6. Saidnazarova G.B. (n.d.). Tarbiya fanini o'qitish metodikasi.
7. Farsaxonova D.R. (2022). Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi. Toshkent: Fan ziyosi. ISBN 978-9943-746-76-3
8. Herzen State Pedagogical University. (n.d.). Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi zamonaviy yondashuvlar [Modern approaches in the development of science and education]. Herzen University.
9. Namangan davlat universiteti. (2024). Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi.
10. Shamsiyevich N.E. (2023). Patriotic education of students of the faculty of military education // Best Journal of Innovation in science, research and development, 2(5), 320-322.
12. Huseynaga G.K. (2024). On the methods of moral and patriotic education. Universidad sociedad, 16(1), 104-109.
13. Sharipova K.D. (2025). Development of the sense of patriotism in students through pedagogical activity // European International Journal of Philological Sciences, 5(4), 94-96. <https://doi.org/10.55640/eijps-05-04-22>

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – STRATEGIK VAZIFA SIFATIDA

Rustamov Nazir Choriyevich, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi, uning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati yoritilgan. Unda yurt tinchligi, xalq farovonligi va mustaqil davlat poydevorini mustahkamlashda ongli, fidoyi va Vatanni sevuvchi yoshlarni tarbiyalashning zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarni vatanparcarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar ham berib o'tilgan. ularning qalbida yurtga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotiraga e'tibor kabi fazilatlarni shakllantirish orqali barqaror jamiyatni qurish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, tinchlik, yosh avlod, konstitutsiya, burch, sadoqat, Vatan.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi" [1].

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu millati, tili va kasbidan

qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari, ma'naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish;

yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;

buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissalarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish;

Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;

hududlarda turkum harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda "Jasorat maktabi" nomli harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inlarini o'tkazish orqali yoshlar ongida milliy armiyamizga bo'lgan ishonch va hurmatni yanada oshirish, harbiy xizmatni o'tash O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash;

umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qitilishining sifatini oshirish, o'quv-moddiy bazani mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratish hamda shu orqali o'quvchi yoshlarda harbiy xizmat, uni o'tashning huquqiy asoslariga oid bilimlar va boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish - bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar omma-

siga keng yetkazish;

yoshlarda ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an'ana va qadriyatlariga sadoqatli bo'lish xususiyatlarini shakllantirish;

Vatanni himoya qilish, uni asrash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya"si qabul qilindi [3]. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasi ko'rib chiqilgan.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib, yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagilar amalga oshirilsa, yoshlarimizning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng asosiy omillari hamda fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tuman, shaharlarda, mehnat jamoalari, chekka-chekka mahallalar va aholi yashash punktlarida targ'ibot tadbirlarini uzluksiz o'tkazish yoshlarni harbiy xizmatga, vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash imkonini beradi;

tarixiy qahramonlar To'maris, Shiroq, Spitamen, buyuk ajdodlarimiz, vatanparvarlikning timsoli bo'lgan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzoning hayoti va faoliyati, jasoratiga doir, jangovar taktikasini ifodalovchi hamda ularning vatanparvarligini targ'ib etuvchi uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etish katta ijobiy natija beradi;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, vatanparvarlik haqida hikmatli so'zlar, maqollar va tuzuklar yaratib, ularni yoshlarimiz ongiga uzluksiz singdirib borish zarur;

kutubxonalarga vatanparvarlikni, boy madaniy va ma'naviy merosimizni aks ettiruvchi adabiyotlar, diskalar, targ'ibot vositalari, buklet va plakatlar bilan muntazam to'ldirib borilsa yoshlarimiz ongi va tafakkuri yuksaladi;

xizmat burchini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning jasorati haqida hikoya qilib borish, yosh harbiy xizmatchilar uchun namuna sifatida ko'rsatish, kelgusida yoshlarni Vatan va xalq oldidagi

mas'uliyat, fidoyilik singari fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir" [1], – deb qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu norma nafaqat huquqiy talab, balki har bir fuqaroning Vatanga bo'lgan sadoqati, mas'uliyati va fidoyiligining konstitutsiyaviy ifodasidir.

Vatan – bu bizning tug'ilib o'sgan muqaddas zaminimiz, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, bugunimiz va kelajagimizni birlashtiruvchi mushtarak maskanimizdir. Uni asrash, himoya qilish, yurt tinchligi va xavfsizligi uchun kurashish – har bir fuqarodan ogohlikni, vatanparvarlikni va yuksak fuqarolik ongini talab etadi.

Konstitutsiyada belgilangan ushbu burch harbiy xizmatni bajarish bilangina cheklanmaydi. Tinchlik davrida yurt ravnaqi yo'lida halol mehnat qilish, qonunlarga rioya etish, jamiyatda totuvlik va birdamlikni saqlash ham Vatanga xizmatdir. Bugungi kunda Vatan himoyachisi deganda, nafaqat qurol tutgan harbiylar, balki ilm-fan, tibbiyot, ta'lim, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda fidokorona mehnat qilayotgan insonlar ham tushuniladi. Ayniqsa, yosh avlodning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi, ularning yurtga bo'lgan muhabbatini shakllantirish – bu boradagi eng muhim vazifalardan biridir. Zero, mustahkam va taraqqiy etgan davlatning asosi – o'z burchini chuqur his qiladigan, ongli va faol fuqarolardir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Vatan himoyasi – bu barchamizning umumiy mas'uliyatimizdir. Konstitutsiyada belgilangan ushbu muqaddas burchni ado etish – har bir O'zbekiston fuqarosining faxri, g'ururi va hayotiy pozitsiyasi bo'lishi zarur. Chunki yurt osoyishtaligi, xalq farovonligi va kelajak avlodning baxtli hayoti – bizning bugungi harakatlarimizga, Vatanga bo'lgan sadoqatimizga bog'liq.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. – T., 2017. – 247 (6741)-soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevral kuni tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiya" Vatanparvar gazetasining № 9 (2760)-soni, 2018. – 2 mart.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK TARBIYASIGA OID TARIXIY TAJIRIBALAR

Safarova R.G., Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
“Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta’limotlari”
ilmiy tadqiqot bo’limi mudiri, p.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlarining vatanparvarlikka oid qarashlari, ularning milliy uyg’onish va xalqni ma’rifat yo’li bilan ozodlikka yetaklash borasidagi xizmatlari yoritilgan. Jadidlar faoliyati orqali milliy g’urur, erkinlik, ilm-fan va taraqqiyotga intilish tushunchalari qanday shakllanganiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalari asarlarida ifodalangan vatanparvarlik g’oyalari tahlil qilinadi. Mazkur maqoladan professor-o’qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, talabalar manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Kalit so’zlar: vatanparvarlik, milliy o’zlik, milliy qadriyat, jadidlar, ma’rifatparvar, ma’rifiy-pedagogik, ta’lim, millat.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy o’zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari bebaho manba sifatida xizmat qilmoqda. Jadidlar o’z davrida nafaqat zamonaviy ta’lim tizimini yo’lga qo’yish bilan bir qatorda, yoshlarni Vatanga sadoqat, millatga muhabbat ruhida tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo’yg’anlar.

Jadidlarning ma’rifiy-pedagogik qarashlari va faoliyatlarida ustuvor o’rin egallagan. Jumladan, Mahmudxo’ja Behbudiy ham mazkur mavzuda salmoqli fikrlarni ilgari surgan. U o’z davrining ziyolisi, ma’rifatchisi, jurnalisti, pedagogi va dramaturgi sifatida millatni uyg’otish, yosh avlodni ilm-ma’rifatga chorlab, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o’z hayotiy burchi deb bilgan. Behbudiy fikriga ko’ra, “ilm va ma’rifatsiz millat – kelajaksiz millat”dir. Shu sababli u yoshlarning qalbida vatanparvarlikni uyg’otish uchun avvalo ularga dunyoviy bilimlar, axloqiy tarbiya va milliy g’ururni singdirish zarurligini ta’kidlaydi.

Behbudiy o’z maqolalarida va pedagogik asarlarida vatanparvarlikni tarbiyaning bosh mezon sifatida ko’rsatadi. U shunday yozadi: “Vatan – bu millatning jonidir. Vatanni sevmok – millatni sevmokdir. Yoshlar qalbida vatanni sevishtir tuyg’usi bo’lmasa, millatning kelajagi ham bo’lmaydi”. Shu sababli u maktab va madrasalarda yangi usulda ta’lim berish, yoshlarni milliy

ong va g'urur ruhida tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Behbudiyning fikricha, yoshlar nafaqat diniy ilmlarni, balki tabiiy fanlar, tarix, geografiya kabi dunyoviy bilimlarni ham puxta egallashlari kerak. Chunki haqiqiy vatanparvar – bilimli insondir.

Behbudiyning fikricha, vatanparvarlik faqat shior yoki tuyg'u emas, balki ilm va ma'rifat bilan boyitilishi zarur. U o'z maqolalarida: "Maktab – millatning qal'asi"; "Ilm – vatan uchun xizmat vositasi"; "Ma'rifat – millatni ozod qiladigan kuch" degan g'oyalarni ilgari surgan. Behbudiyning "Muntahab at-tarix" kitobi o'quvchilarni tarixiy xotira va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida yozilgan. U tarix orqali milliy o'zlikni anglash, o'z xalqining o'tmishidan faxrlanish va kelajak uchun saboq olish mumkinligini ta'kidlagan.

Behbudiyni yoshlarni faqat bilimli bo'lishga emas, balki milliy uyg'onishga, xalq manfaati uchun kurashishga chorlagan. Uning qarashlarida uch asosiy g'oya ustuvorlik qiladi: 1. Milliy o'zlikni anglash – o'z tilini, tarixini, madaniyatini bilish. 2. Millatni asrash – millatni jaholat, zulm va mustamlaka asoratidan ozod qilish. 3. Vatan uchun fidoyilik – ilmi bo'lib, o'z bilimini xalq va yurt ravnaqi yo'lida sarflash.

Bugungi kunda ham Behbudiyning merosi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Vatanparvarlik tarbiyasiga katta hissa qo'shgan ma'rifatparvarlardan biri Abdurauf Fitratdir. U nafaqat adib va olim, balki pedagog, ma'rifatchi va siyosiy arbob sifatida ham tarix sahifasida chuqur iz qoldirgan. Fitratning asarlarida eng asosiy g'oya — millatni ilm-ma'rifatga chorlab, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ozodlik va mustaqillik g'oyasiga tayyorlashdan iborat bo'lgan.

Fitratning qarashlari o'z davridagi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy uyg'onish mafkurasining poydevorini tashkil etdi. Uning "Hind sayyohi maktublari", "Munozara", "Rahbari najot", "O'zbek yoshlariga" kabi asarlarida yoshlarni ilm, ma'rifat va vatanparvarlikka chorlash g'oyalari asosiy o'rin tutadi.

Fitratning fikricha, yoshlar qalbida eng avvalo vatanni sevish, uni ozod va obod ko'rish istagi tarbiyalanishi kerak. U "O'zbek yoshlariga" risolasida quyidagilarni yozadi: "Ey, o'zbek yoshlari! Sen ham uyg'on! O'z millatingning kelajagi uchun kurash! Vatansiz, millatsiz xalq yo'qdir. Agar sen o'z vataningni sevmasang, sen ham o'zligingni yo'qotasani". Bu murojaat yosh avlod ongida vatanparvarlikni uyg'otishga, ularga milliy o'zlikni anglashni tarbiyalashga qaratilgan.

Fitrat uchun vatanparvarlik faqat tuyg'u emas, balki ilm va ma'rifat bilan mustahkamlanadigan g'oya. "Munozara" asarida u bir turkistonlik bilan bir hind sayyoh o'rtasidagi suhbat orqali jaholat va ilmsizlik oqibatlarini ochib beradi. Unga ko'ra, xalqning jaholatda qolishi mustamlakachilik zulmiga sharoit

yaratadi.

Demak, haqiqiy vatanparvar – bilimli, o‘z xalqini taraqqiyot sari boshlovchi shaxsdir. Fitrat yoshlarni: maktab va madrasalarda zamonaviy ilmlarni egallashga; dunyo xalqlari tajribasini o‘rganishga; milliy taraqqiyot uchun o‘z bilimini sarflashga chorlaydi. Fitratning qarashlarida vatanparvarlik ozodlik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq holda ifodalangan. U yoshlarni millatning mustaqilligi uchun fidoyilikka chaqiradi. “Rahbari najot” asarida Fitrat xalqni qutqaradigan kuch – bu yoshlarning ma‘rifati va vatan uchun fidoyiligidir, deya ta’kidlagan:

“Bizni najotga chiqaradigan rahbar - ilm va yoshlarning vatan uchun kurashidir”. Bu g‘oya Fitrat pedagogik qarashlarining asosini tashkil etadi.

Fitrat yoshlarni nafaqat ilmi, balki axloqli bo‘lishga chaqiradi. Chunki axloqsiz ilm ham, ma‘rifatsiz g‘urur ham haqiqiy vatanparvarlikni shakllantira olmaydi. U yoshlarga millatning qadriyatlarini asrab-avaylashni, halollik, sabr-toqat, fidoyilik kabi axloqiy sifatlarni singdirishi zarur deb biladi.

Abdulla Avloniyning vatanparvarlikka oid pedagogik qarashlari ham alohida qimmatga ega. XX asr boshidagi jadidchilik harakatining yirik vakili, ma‘rifatparvar adib, shoir va pedagog Abdulla Avloniy o‘z asarlari bilan millatni uyg‘otishga, yoshlarni ilm-ma‘rifat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shgan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Maktab gulistoni” (1917) kabi asarlari o‘zbek xalqi pedagogik tafakkurini boyitishga xizmat qilib kelmaoqda. Avloniy tarbiyani “hayot va mamot masalasi” deb baholab, yoshlar ongida milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otishni tarbiyaning eng muhim vazifasi deb bilgan.

Avloniy ta‘lim-tarbiyani millat mustaqilligi va baxt-saodatining asosiy omili sifatida baholagan. U bu haqda quyidagilarni yozadi: “Jaholatda qolgan millat hech qachon o‘z Vatanini himoya qila olmaydi”. U o‘zining “Maktab gulistoni” kitobida o‘quvchi-yoshlarni ilm olishga, millat kelajagi uchun ma‘rifatli bo‘lishga chaqiradi. Bu haqida Avloniy shunday yozadi: “Ilm bizni g‘aflatdan uyg‘otur, jaholat zanjiridan qutqazur, saodat va najotga eltib qo‘yar”. Demak, Avloniyga ko‘ra vatanparvarlikning asosini – bilim va ma‘rifat tashkil etadi.

Abdulla Avloniyning vatanparvarlik bola qalbida yoshlikdan boshlab ona allasi va tarbiyasi yordamida shakllantirishi lozimligini ta’kidlaydi. Bu o‘z navbatida, qadriyatlarining shaxs taraqqiyoti bilan bog‘liq holda taqdim etilishi konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Abdulla Avloniy barcha asarlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni millat hayoti va istiqboli uchun zaruriy shart sifatida ko‘rsatadi.

Jadidlarning vatanparvarlik g‘oyalari – bu oddiy shior emas, balki butun millatni uyg‘otish, ma‘naviy ozodlikka undash va milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan chuqur harakat edi. Ular vatan ravnaqi uchun eng qudratli qurol –

bu ilm, ma'rifat va milliy birlik ekanini anglab, xalqni jaholatdan chiqarish yo'lini tanladilar. Jadidlar yaratgan bu ma'naviy meros bugungi kunda ham yosh avlodni vatanparvarlik, mustaqillik va milliy g'urur ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Ularning g'oyalari bizga bir haqiqatni eslatadi: Vatanga sadoqat – bu uni sevish emas, balki uni yuksaltirish uchun xizmat qilishdir.

Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 96 b.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiyalar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. 2-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2006. – 304 b.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild: She'rlar, nasriy asarlar, dramalar. – T.: Ma'naviyat", 2000.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzuvchi: Begali Qosimov. Ma'naviyat, 2009.

MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TASHKIL ETILGAN DARSLARDA VATANPARVARLIK G'OYALARINI SINGDIRISH TEXNOLOGIYASI

Tayirova Muhabbat Ataxanovna, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda multimedia vositalarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Axborot texnologiyalari va interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslarning tarbiyaviy samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada multimedia vositalaridan foydalanishning bosqichlari, metodik yondashuvlar, pedagogik sharoitlar hamda amaliy tajribalarga tayangan holda vatanparvarlik ruhini singdirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: multimedia, vatanparvarlik, milliy g'oya, ta'lim texnologiyasi, interaktiv metod, o'quv jarayoni, raqamli ta'lim, axborot madaniyati, milliy qadriyatlar, yosh avlod tarbiyasi.

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение мультимедийных средств в формировании патриотических идей учащихся. Анализируется воспитательная эффективность уроков, организованных на основе информационных технологий и интерактивных методов. Разработана технология воспитания патриотизма, основанная на этапах использования мультимедийных средств, методических подходах, педагогических условиях и практическом опыте.

Ключевые слова: мультимедиа, патриотизм, национальная идея, образовательные технологии, интерактивный метод, образовательный процесс, цифровое образование, информационная культура, национальные ценности, воспитание подрастающего поколения.

Abstract. This article discusses the role and importance of multimedia tools in the formation of patriotic ideas in students. The educational effectiveness of lessons organized on the basis of information technologies and interactive methods is analyzed. The article develops a technology for instilling the spirit of patriotism based on the stages of using multimedia tools, methodological approaches, pedagogical conditions, and practical experience.

Key words: multimedia, patriotism, national idea, educational technology, interactive method, educational process, digital education, information culture, national values, education of the younger generation.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – yosh

avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniyat asosida voyaga yetkazishdir.

Zamonaviy dunyoda axborot oqimlari nihoyatda kuchayib, turli mafkuraviy ta'sirlar yoshlarning ongiga bevosita kirib borayotgan bir paytda, ularni mustahkam dunyoqarash, milliy g'urur va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu boisdan ham ta'lim tizimida o'qitish jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa, multimedia vositalaridan samarali foydalanish bugungi kun ehtiyojiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid qaror va farmonlarida ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, o'quv jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchidan yangicha pedagogik yondashuvni, o'quvchilardan esa, faol ishtirok, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarda emotsional ta'sir, qiziqish, faol ishtirok va ijodiy fikrlashni kuchaytiruvchi eng samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Chunki multimedia texnologiyalari yordamida tashkil etilgan darslarda o'quvchi mavzuga nisbatan befarq bo'lmaydi, balki uni his etadi, tushunadi va o'z fikrini erkin ifoda etadi. Bunday darslarda o'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, izlanuvchi va yaratuvchiga aylanadi. Ayniqsa, multimedia vositalari orqali vatanparvarlik g'oyalarini singdirish o'quvchilarda Vatanga muhabbat, xalq va millat manfaatlarini himoya qilishga tayyor, fidoyi shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Multimedia texnologiyalari deganda matn, grafika, tovush, animatsiya, video, 3D tasvir va interaktiv elementlarni o'zida mujassam etgan, o'quv jarayonini jonli, qiziqarli va samarali qiluvchi axborot-kommunikatsiya vositalari tushuniladi. Ular o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni jonlantiradi, darsning mazmunini ko'rgazmali, esda qolarli va tushunarli shaklda yetkazadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonida quyidagi keng imkoniyatlarni yaratadi:

Mavzuni jonli tasvirlar orqali yoritish. Masalan, tarix darslarida mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimiz hayoti, urush, mehnat yoki jasorat sahnalari animatsiya yoki video lavhalar orqali ko'rsatilsa, o'quvchilarda chuqur taassurot qoldiradi. Bu jarayon nafaqat bilimni, balki his-tuyg'ularni ham faollashtiradi.

Tarixiy voqealarni obrazli ifodalash. Multimedia vositalari yordamida tarixiy manzaralar, geografik joylar yoki madaniy meros obyektlarini 3D formatda ko'rsatish o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Masalan, qadimiy shaharlar, yodgorliklar yoki jang maydonlarini virtual ekskursiyalar shaklida

namoyish etish o'quvchilarga tarixni "ko'rish" imkonini beradi.

Milliy qahramonlar hayoti va faoliyatini interaktiv tarzda ko'rsatish. Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jadid bobolarimiz kabi tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan interaktiv taqdimotlar, hujjatli filmlar yoki videoroliklar o'quvchilarda faxr, g'urur va Vatanga sadoqat tuyg'usini uyg'otadi. Bunday darslarda o'quvchilar nafaqat ma'lumot oladilar, balki o'z xalqining buyuk tarixiga daxldorlikni his qiladilar.

O'quvchilarni mustaqil izlanishga undash. Multimedia asosida tayyorlangan topshiriqlar, onlayn testlar, interaktiv viktorinalar va loyiha ishlari o'quvchilarni faollikka, mantiqiy fikrlashga, manbalar bilan ishlashga, tahlil qilishga o'rgatadi. Bu esa, ularning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasini hissiy idrok asosida shakllantirish. Multimedia darslarida qo'llaniladigan musiqalar, videotasvirlar, tarixiy lavhalar yoki badiiy chiqishlar o'quvchilarning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qiladi. Natijada, ular o'z yurti, tili, bayrog'i, madaniyati va qahramonlariga nisbatan faxr tuyg'usini chuqur his etadilar. Masalan, tarix yoki adabiyot darslarida 3D animatsiya, videorolik, virtual ekskursiya, audio lavhalar, taqdimotli suhbatlar orqali o'quvchilarga Vatan tarixi, milliy qadriyatlar va qahramonlarimiz jasorati haqida yanada chuqurroq tushuncha berish mumkin. Shu yo'l bilan har bir dars nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatga ega jarayonga aylanadi.

Vatanparvarlik – bu insonning Vatanga sadoqat, uning ravnaqi uchun xizmat qilish, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash hissidir. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

milliy g'urur va o'zlikni anglashni shakllantirish;

o'z xalqining tarixiy merosini qadrlash;

mustaqil fikrlovchi, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni tarbiyalash.

Multimedia texnologiyalari orqali bu g'oyalarni singdirish, ularni his etiladigan darajaga olib chiqish imkonini beradi. O'quvchi faqat eshitmaydi, balki ko'radi, his qiladi, tahlil qiladi va o'z fikrini bildiradi.

Vatanparvarlik g'oyalarini singdirishda multimedia vositalaridan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Motivatsiya yaratish

O'quvchilarning e'tiborini jalb etuvchi videorolik, qo'shiq, tarixiy sahna yoki qahramonlik haqidagi qisqa lavha orqali darsga kirish.

2-bosqich: Asosiy mazmunni yoritish

Multimedia taqdimotlar, interaktiv xaritalar, virtual muzey ekskursiyalari orqali mavzuni chuqurroq ochib berish. Masalan:

"Jaloliddin Manguberdi – milliy qahramonimiz" mavzusida 3D animatsiya;

"O'zbekiston mustaqillik yo'lida" mavzusida interaktiv xarita;

“Buyuk ajdodlar izidan” virtual safar loyihasi.

3-bosqich: Refleksiya va mustahkamlash

Dars oxirida o'quvchilarga onlayn testlar, viktorinalar, interaktiv baholash yoki o'z fikrini video-esse shaklida ifodalash topshiriqlari beriladi.

Multimedia vositalari asosida tashkil etilgan darslarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarda ko'rish, eshitish, tahlil qilish orqali bilimni yaxshiroq o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi;

mavzuning hissiy idrok etilishi ta'minlanadi;

o'z fikrini erkin bayon qilish, tahlil qilish, bahslashish ko'nikmasi rivojlanadi;

ijtimoiy faollik, guruhda ishlash va vatanparvarlik g'oyalari birgalikda mustahkamlanadi.

Tarix darslarida: “Amir Temur – jasorat va davlatparvarlik timsoli” mavzusida videoroliklar, interaktiv xaritalar va hujjatli film parchalari orqali tahlil qilish.

Adabiyot darslarida: Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir asarlaridagi vatanparvarlik motivlarini multimedia taqdimotlar asosida tahlil qilish.

Texnologiya darslarida: “Vatanim uchun foydali ixtiro” nomli raqamli loyiha tanlovlari o'tkazish.

Bunday yondashuv o'quvchilarda milliy g'urur, ijodiy yondashuv va Vatanga xizmat qilish istagini oshiradi.

Multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati, texnik savodxonligi va innovatsion fikrlashiga bog'liq. O'qituvchi:

darsga tayyorlanishda multimedia kontentni to'g'ri tanlashi; g'oyani ma'naviy jihatdan to'g'ri yo'naltirishi; o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni uyg'ota olishi lozim.

Xulosa qilib aytgancha multimedia vositalari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantiradi, balki ularning ma'naviy olamini boyitadi, Vatanga sadoqat va g'urur tuyg'usini shakllantiradi. Shunday qilib, zamonaviy ta'limda multimedia texnologiyalarini vatanparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashtirish — bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi, yoshlar dunyoqarashini milliy ruhda shakllantiruvchi innovatsion yondashuvdir.

Adabiyotlar

1. Ibragimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika: Darslik. – T.: SAHHOF, 2023. – 416 b.

2. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования: Учебник для магистрантов. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 240 с.

3. Tayirova M.A. Informatika fanini o'qitishda multimedia texnologiyalarini qo'llashning nazariy va amaliy ahamiyati // Xalq ta'limi. 2022. – 6-son. – B. 67-75.

4. Tayirova M.A. Multimedia technologies in the context of educational informatization role and importance // The role of science and innovation in the modern world: International scientific and practical conference: London, United Kingdom 28.02.2023. – P. 111-117.

O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Turabova Lobar Xusen qizi, Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda individual yondashuvning samaradorligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etiladi. Unda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarda individual yondashuvni qo'llash orqali yuqori natijalarga erishish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, tarbiya jarayonida samarali metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, vatanparvarlik, individual yondashuv, tarbiya, o'quvchilar, ma'naviy rivojlanish, pedagogika.

Аннотация. В статье рассматривается эффективность индивидуального подхода в формировании национальной гордости и патриотического духа у школьников. Автор анализирует теоретические основы, современные педагогические методы, а также практические приемы воспитания у молодежи чувства любви к Родине и уважения к национальным ценностям. Подчеркивается важность учета индивидуальных особенностей учащихся для достижения высоких результатов в образовательном и воспитательном процессе.

Ключевые слова: национальная гордость, патриотизм, индивидуальный подход, воспитание, школьники, духовно-нравственное развитие, педагогика.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik va tarixiy merosga hurmatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki milliy g'oya va vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan avlodgina mustaqil davlatning kelajak poydevorini mustahkamlay oladi. Shu bois ta'lim jarayonida o'quvchilarga umumiy nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, ularning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda individual yondashuv muhim o'rin tutadi. Bu borada individual yondashuvning o'rni beqiyos bo'lib, har bir o'quvchining yosh, qiziqish, tafakkur, dunyoqarash xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilgan tarbiyaviy ishlar yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

Individualyondashuvo'quvchi shaxsini yaxlit tizim sifatida o'rganish, uning ichki

dunyasiga kirib borish va aynan unga xos metodlar yordamida milliy qadriyatlarni singdirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarda faqat nazariy bilim emas, balki milliy g'ururni amaliy faoliyatda namoyon etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliyg'urur – bu o'z millatiga, tarixiga, qadriyatlariga nisbatan chuqur hurmat va faxr tuyg'usidir. U shaxsning milliy o'zligiga sodiqligini namoyon qiladi. Vatanparvarlik esa, Vatanga muhabbat, unga sadoqat, uni himoya qilishga tayyorlik, uning taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish istagidir. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir yosh avlod vakilining shaxsiy kamolotida asosiy o'rin egallaydi.

Yoshlar qalbida bu tuyg'ularni shakllantirishda ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi. Bunda esa, faqat umumiy yondashuv emas, balki individual, ya'ni har bir o'quvchining ichki dunyosi, qiziqishi, ehtiyojlari va ma'naviy holatidan kelib chiqqan holda yondashish zarur.

Vatanparvarlik esa, ona yurtini sevish, uni himoya qilishga tayyor turish, jamiyat farovonligi uchun mas'uliyatni his etish va bunyodkorlik faoliyatida faol ishtirok etishdir.

Individual yondashuv – bu har bir o'quvchining psixologik, intellektual va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyani tashkil etishdir. Ushbu yondashuv ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda muhim metodik tamoyillardan biri hisoblanadi. Bu usul Lev Vigotskiy, A.N.Leontev, J. Piyaje kabi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur asoslab berilgan.

Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi individual yondashuvni amalda qo'llashda metodik asos bo'la oladi. Unga ko'ra, har bir o'quvchi ma'lum yordam bilan o'z salohiyatini to'liq namoyon qila oladi. Shunday ekan, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda har bir bolaning imkoniyat darajasi va ichki ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

Pedagogikada individual yondashuv deganda o'quvchining qiziqishi, psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhitdagi tajribasi va o'zlashtirish darajasiga mos metodlardan foydalanish tushuniladi. Bu jarayon quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – har bir o'quvchining intellektual, ruhiy va ma'naviy xususiyatlarini hisobga olish.
2. Differensial yondashuv – o'quvchilar bilim saviyasi va qiziqishlariga qarab turli topshiriq va metodlardan foydalanish.
3. Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim – bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlash.
4. Motivatsion yondashuv – o'quvchilarda milliy g'oya va vatanparvarlikka dahldorlik hissini uyg'otuvchi rag'batlantiruvchi metodlardan foydalanish.

Individual yondashuvning samaradorlik omillari

O'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda individual yondashuvning samaradorligi bir nechta omillar orqali namoyon bo'ladi: o'quvchining shaxsiy qiziqishlariga moslik. Masalan, tarixga qiziqadigan o'quvchilar uchun tarixiy hujjatlar bilan ishlash, adabiyotga mehr qo'yganlar uchun milliy adabiyot namunalari bilan foydalanish samarali bo'ladi. Faol ishtirokni ta'minlash. O'quvchi faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lsa, milliy qadriyatlarni chuqurroq his qiladi. O'yin va loyiha metodlari. Individual topshiriqlar, jamoaviy loyihalarda shaxsiy rol berish o'quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Ijodkorlikni rivojlantirish. Vatan mavzusidagi insho, she'r, rasm yoki sahna ko'rinishlarini tayyorlash orqali milliy g'oya o'quvchi tafakkuriga mustahkam o'rinishadi. Shaxsiy namuna. O'qituvchi o'zi vatanparvarlik ruhida bo'lsa, individual yondashuv orqali bu fazilatni o'quvchiga samarali yetkazadi.

Bu yondashuv milliy tarbiyadahan alohida ahamiyatga ega. Chunki milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va vatanparvarlik tushunchalari har bir o'quvchining ongida turlicha qabul qilinadi. Kimdadir u oilaviy muhit orqali kuchli shakllangan bo'lsa, boshqalarda bu jarayon endigina boshlanishi mumkin.

O'quvchilarning individual xususiyatlariga qarab milliy tarbiya metodlari

1. Qiziqishga qarab yondashuv

Tarixga qiziqadigan o'quvchilar uchun – ajdodlar merosi, buyuk siymolar faoliyati haqida mustaqil izlanish topshiriqlari berish.

Adabiyotga qiziqadiganlar uchun – milliy qahramonlik she'rlari, romanlar ustida tahlil ishlari.

San'at va musiqa ixlosmandlari uchun – milliy qo'shiqlar, raqslar va hunarmandchilikni o'rganish.

2. Temperament va xarakterga qarab yondashuv

Faol va tashabbuskor o'quvchilarni tadbir va loyihalarda lider sifatida ko'rsatish.

Tortinchoq va kamgap o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga jalb etish, ularning ichki qiziqishlarini asta-sekin namoyon qilish.

3. Ijtimoiy muhitga qarab yondashuv

Oilaviy muhitda milliy qadriyatlarga katta e'tibor qaratilmagan o'quvchilar bilan qo'shimcha suhbatlar, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish tadbirlarini ko'proq o'tkazish.

Aksincha, oilasida milliy qadriyatlar mustahkam o'rinishgan o'quvchilarni boshqalarga ibrat sifatida jalb qilish.

4. Bilim saviyasiga qarab yondashuv

Bilimi yuqori o'quvchilarga mustaqil tadqiqot topshiriqlari berish.

Qiyinchilikka duch keladiganlarga oddiyoq, amaliy mashg'ulotlar orqali milliy qadriyatlarni singdirish.

Quyidagi tavsiyalar individual yondashuv samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi: har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatini o'rganish va shunga mos metodik yondashuvni tanlash; tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzishda o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish; ota-onalar bilan hamkorlikda shaxsiy yondashuvni kuchaytirish; darslik va qo'shimcha adabiyotlarni tanlashda milliy qadriyatlar aks ettirilgan materiallarga ustuvorlik berish; o'quvchilarning shaxsiy yutuqlari va ilg'or g'oyalarini ommalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda individual yondashuv yuqori samaradorlikka ega bo'lib, har bir o'quvchini shaxs sifatida qadrlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv yoshlarning qalbida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim vositadir. Natijada, kelajakda o'z xalqiga, Vataniga xizmat qiladigan vatanparvar, faol, ma'naviy barkamol shaxslar voyaga yetadi.

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017 – 592b
2. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent Ma'naviyat 2007. 238-b.
3. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. – T.: O'qituvchi, 2001. – 232 b.
4. Axmedova D.S. Yoshlarimizning ongu shuurida vatanparvarlik, milliy g'urur g'oyalarini mustahkamlash // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 4/2024.

INKLYUZIV TA'LIMDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Umaraliyeva Muxayyo, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning mazmun-mohiyati, uni amalga oshirish usul va vositalari, o'qituvchining roli hamda inklyuziv muhitda fuqarolik va milliy g'ururni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, vatanparvarlik, milliy g'oya, barobarlik, hamjihatlik, pedagogik faoliyat, tarbiya.

Inklyuziv ta'lim – bu har bir bolaga, uning jismoniy, ruhiy yoki ijtimoiy imkoniyatidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratib beruvchi tizimdir. Ushbu tizim nafaqat teng imkoniyatlarni ta'minlaydi, balki fuqarolik mas'uliyati va vatanga muhabbat ruhini ham tarbiyalaydi. Chunki vatanparvarlik — insonning o'z jamiyatida teng huquqli fuqaro sifatida his etishi bilan chambarchas bog'liq.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu insonda o'z Vataniga muhabbat, sadoqat, fidoyilik, millat va davlat manfaatlarini himoya qilish hissini shakllantirishga qaratilgan tarbiya jarayonidir.

Ya'ni, vatanparvarlik tarbiyasi orqali inson: o'z ona yurtini sevishtni, uning qadriyatlarini hurmat qilishni, yurti ravnaqi uchun mas'ullikni, fuqarolik burchini anglashni o'rganadi.

Pedagogik nuqtai nazardan vatanparvarlik tarbiyasi ta'lim muassasalarida: tarix, adabiyot, ona tili, musiqa, san'at kabi fanlar orqali; turli madaniy tadbirlar, bayramlar, musobaqalar orqali; o'qituvchi va ota-onalar hamkorligida amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'lim insonparvarlik g'oyalariga asoslanadi. Unda bolalar o'zaro hurmat, hamdardlik, yordam va bag'rikenglikni o'rganadilar. Bu fazilatlar esa vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismlaridir. Vatanni sevisht — faqat geografik hududga muhabbat emas, balki undagi insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning teng huquqliligini anglashdir.

Vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- ma'lumot berish orqali – milliy qahramonlar, tarixiy voqealar, Vatan taraqqiyoti haqida bilim berish.
- amaliy faoliyat orqali – bayram tadbirlari, vatanga bag'ishlangan ijodiy ko'rgazmalar, ijtimoiy aksiyalarda ishtirok.

O'zaro hamkorlik orqali – imkoniyati cheklangan bolalar va boshqa o'quvchilar o'rtasida birgalikdagi loyihalar, jamoaviy ishlarni tashkil etish. Bunda o'qituvchi

kanday rolni amalga oshiradi:

O'qituvchi inklyuziv muhitda nafaqat ta'lim beruvchi, balki har bir bola qalbida vatanparvarlik hissini uyg'otuvchi tarbiyachi sifatida faoliyat yuritadi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Vatanparvarlik tushunchasi va uning pedagogik mazmuni

Vatanparvarlik – bu insonning o'z Vataniga, ona yurtiga bo'lgan chuqur muhabbati, sadoqati va fidoyilik hissidir. Vatanparvar inson o'z yurtining ravnaqi, tinchligi va kelajagi uchun mas'uliyatni his qiladi, uni himoya qilishga tayyor bo'ladi.

Pedagogik nuqtai nazardan vatanparvarlik tarbiyasi – yosh avlodda milliy g'urur, fuqarolik burchi, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish ruhini shakllantirish jarayonidir. U nafaqat bilim berishni, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirishni ham qamrab oladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu yosh avlodda milliy g'urur, fidoyilik va yurt ravnaqi uchun mas'uliyat hissini shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bunday tarbiya olib borilgan muhitda:

yoshlar o'zini Vatanning haqiqiy farzandi sifatida his qiladilar;

milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlikda shakllanadi;

jamiyatda tinchlik, hamjihatlik va mehr-oqibat muhiti qaror topadi.

Shu bois, har bir pedagog vatanparvarlik tarbiyasini ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rishi va uni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishi zarur. Keling inklyuziv sniflarda kanday qilib vatanparvarlik ruhini singdirish mumkin:

1. Har bir bolani qabul qilish va qadrlash muhitini yaratish

– sinfda har bir o'quvchi – jismoniy yoki ruhiy holatidan qat'i nazar – “qimmatli a'zo” ekanini his etishi shart.

– o'qituvchi har kuni bolalarni ismi bilan chaqirish, kulish bilan qarshi olish, faxrlanish hissini uyg'otish orqali muhit yaratadi.

– masalan: “Bugun sen yaxshi ish qilding!”, “Sen ham jamoamizda muhimsiz!” muhim. Buni juftlik yoki guruhlik ishlar orqali amalga oshirish mumkin:

kuchli o'quvchi — yordamga muhtoj bolaga yordam beradi;

– guruhda vazifalarni birgalikda bajarish orqali barcha faol qatnashadi.

– Bu jarayon bolalarda hamdardlik, bag'rikenglik va insoniylikni tarbiyalaydi.

3. Vatanparvarlikni his ettirish

4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya

– har hafta “Qadriyatlar soati” yoki “Mehr va bag'rikenglik kuni” tashkil qilish mumkin: bu darslarda: “do'stlik”, “mehr”, “birdamlik”, “adolat”, “Vatanga xizmat” mavzulari muhokama qilinadi. Har bir bolaga “sen ham yurtimizning kerakli farzandisan” degan hisni berish – eng muhim natija.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik: inklyuziv sinfda tarbiya samaradorligi ota-ona bilan birgalikda ishlaganda oshadi; ota-onalarni bolalarning guruh tadbirlariga jalb qilish, ularga “inklyuziv muhit” mohiyatini tushuntirish zarur. Bu bolada uy va maktab o'rtasidagi ruhiy uyg'unlikni ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib inklyuziv sinflardagi tarbiya: nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyatda insonparvarlik va vatanparvarlik muhitini yaratish vositasidir; bolalar bir-biridan emas, bir-biri orqali o'rganadilar; har bir bola “men ham jamiyat uchun kerakliman” degan his bilan o'sadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. – T.: Adolat, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 dekabrda PQ-4551-son qarori “Inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”.
4. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2020.
5. “Ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish konsepsiyasi”. – T., 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-oktyabrda PF-6313-son Farmoni “Milliy ta'lim tizimini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida”.
7. Hasanov H. Inklyuziv ta'limda insonparvarlik va fuqarolik qadriyatlari. – T.: Fan va texnologiya, 2022.
8. Sharipova M. Pedagogik etika va vatanparvarlik tarbiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2023.
9. Saidova N. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot. – T.: Ilm ziyo, 2021.
10. Yo'ldosheva G. Insonparvar ta'lim va bolalarning ijtimoiy integratsiyasi. – S.: DTI, 2022.
11. Mavlonova R., Sadiqova U. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2020.
12. Sharipov B. Ma'naviy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2019.
13. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. – Paris, 2017.
14. UNICEF. Education for All: Inclusive Practices in Education. – New York, 2020.

O'QUVCHILARNI SHAXS SIFATIDA O'ZLIGINI ANGLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIKNING O'RNI

Fayzullayev Farrux Maxsud o'g'li,
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarni shaxs sifatida o'zligini anglash kompetensiyalarini shakllantirishda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularining o'rnini haqida so'z yuritiladi. Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ajdodlar merosiga hurmat orqali yoshlarda o'zlikni anglash jarayoni qanday kechishi, ta'lim-tarbiya tizimi bu borada qanday vositalardan foydalanishi lozimligi yoritilgan. Amaliy misollar, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy ta'lim metodlari orqali mavzu keng tahlil qilingan.

Kalit so'zi: Sshaxsiy o'zlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, kompetensiya, ma'naviyat, tarbiya, ta'lim, ajdodlar merosi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni faqatgina bilim berish bilan cheklanmaydi. U bugun har bir o'quvchini o'z fikriga ega, ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk va kelajakka mas'uliyat bilan qaraydigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Bunday yondashuvda o'quvchining o'zini anglash kompetensiyasini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Bu kompetensiya – shaxsning kimligini anglash, o'z-o'zini qadrlash, milliy va insoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaray olish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Aynan shu kompetensiyani shakllantirishda milliy g'urur va vatanparvarlik eng muhim omillar sifatida qaraladi.

Milliy g'urur — bu shaxsning o'z millati, tili, madaniyati, urf-odatlarini, tarixiy merosi bilan faxrlanishi, ularni asrab-avaylashga intilishi, shu asosda o'z o'rnini jamiyatda anglashi demakdir. Bu tuyg'u bola qalbida erta yoshdan boshlab shakllanishi kerak. Chunki o'zligini anglata olmagan, milliy ildizlaridan bexabar yoshlar ko'pincha begona madaniyatlar ta'sirida o'z milliy o'zligini yo'qotadi, o'z hayotida adashgan shaxslarga aylanishi mumkin. Masalan, tarix fanida buyuk ajdodlarimiz — Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi siymolarning hayoti va faoliyati o'quvchilarga tahliliy asosda o'rgatilsa, bu ularning ongida: "Biz kimmiz?", "Qanday ajdodlarning vorisimiz?", "Nega bugun ham o'z millatimiz bilan faxrlanishimiz kerak?" degan savollar orqali o'zlikni anglash jarayonini boshlab beradi. Shuningdek, O'zbekiston tarixida muhim o'rin tutgan istiqlol yillari, mamlakatimizning jahon miqyosida tutgan o'rnini, madaniy meroslar ro'yxatiga kiritilgan yodgorliklar haqida bilish ham o'quvchining milliy g'ururini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O'zligini anglash kompetensiyasi, shuningdek, shaxsiy mas'uliyat, ichki intizom, qadriyatlar tizimi, hayotiy maqsadlarni aniqlash kabi jihatlar bilan chambarchas bog'liq. Bunday kompetensiyani shakllantirishda faqat darslikdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. O'qituvchi va ota-onalar bolani ko'proq mushohada qilishga, o'z fikrini bildirishga, savol berishga, tarixiy voqealarni tahlil qilishga, o'ziga oid hayotiy yo'lni loyihalashtirishga o'rgatishi lozim. Vatanparvarlik esa, bu shunchaki Vatanga muhabbat emas, balki uni asrash, himoya qilish va xalqiga xizmat qilish hamda rivojlantirish istagidir. Vatanparvarlik – bu faqat bayramlardagi nutqlar bilan chegaralanmaydi. U hayot tarziga, harakatlarga, tanlovlarga singib ketgan bo'lishi lozim. Har kuni maktabga vaqtida kelish, darslarni e'tibor bilan o'rganish, ota-onaga yordam berish, atrof-muhitni toza saqlash — bularning barchasi vatanparvarlikning oddiy, ammo asosiy ko'rinishlaridir.

Maktablar bu borada katta salohiyatga ega. "Vatanparvarlik saboqlari", "Yurtim faxri", "Men kimman?!", "Mening yurtim", "O'zbekiston mening faxrim!" kabi mavzular asosida sinf soatlari, insholar tanlovi, musobaqalar, sahna ko'rinishlari tashkil qilinishi o'quvchilarda Vatanga daxldorlik tuyg'usini oshiradi. Ular bu orqali yurtning bir bo'lagi ekanligini chuqur his eta boshlaydilar.

Milliy g'urur va vatanparvarlik faqat darslar bilan shakllanmaydi. Bular o'quvchining butun hayot tarziga singdirilishi kerak. Misol uchun, maktablarda "Ajdodlarimiz merosi", "Milliy urf-odatlarimiz", "Madaniyatimiz – faxrimiz" kabi ko'rgazmalar, teatr sahnalari, tarixiy joylarga ekskursiyalar, xalq hunarmandchiligi bilan tanishtirish orqali bu qadriyatlar amalda ko'rsatiladi. Shuningdek, sport musobaqalari, "Vatan himoyachilari kuni", "Mustaqillik darslari", "Konstitutsiya saboqlari" kabi tadbirlar yoshlarning shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Yoshlar orasida yurtparvarlik ruhida ijod qilayotgan shoirlar, sportchilar, olimlar, ixtirochilar faoliyati haqida gapirish, ularni darslarga taklif etish, ularning videoroliklarini ko'rsatish ham juda foydalidir. Masalan, "Yoshlar ovozi", "O'zbekiston qahramonlari", "Men yurtim faxri bilan uchrashdim" kabi loyihalar orqali bolalarda yurtga mehr, mehnatga ishtiyoq, fidoyilik ruhini uyg'otish mumkin.

Pedagogik jihatdan olib qaraganda, bu kompetensiyalarni shakllantirishda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: o'quvchini dars markaziga qo'yish, uning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish orqali shaxsiy anglashni rag'batlantirish.

Faol va interfaol metodlar: bahs-munozaralar, rolly o'yinlar, "hayotiy savollar", loyihaviy ishlar orqali o'quvchi mustaqil fikrlashga undaladi.

Hayotga bog'langan darslar: nazariy bilimlarni real hayotiy misollar bilan

bog'lash orqali o'quvchi o'z hayotidagi rolini tushunadi.

Tarix va adabiyot fanlari imkoniyatlaridan foydalanish: tarixiy voqealarni tahlil qilish, adabiy qahramonlarning yurtga bo'lgan sadoqatini muhokama qilish orqali bolalarda ongli tushunchalar shakllanadi.

Aytish joizki, davlatimiz tomonidan bu borada keng imkoniyatlar yaratilib, har bir sohada milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk etib tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviyatni yuksaltirish bo'yicha qarorlari, taraqqiyot strategiyalarida ham bu yo'nalish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchilar, psixologlar, ma'naviyat va ma'rifat mas'ullari, sinf rahbarlari, shuningdek, ota-onalar ham bu yo'lda hamkorlikda ishlashlari zarur. Zero, bolani faqat maktab emas, balki butun jamiyat tarbiyalaydi. Uyda ota-onaning bergan tarbiyasi, ko'cha va ijtimoiy muhitdagi tasirlar, ommaviy axborot vositalari, internetdagi kontentlar ham bola ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir muhitda bolaga milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va o'zlikni anglash ruhida yondashish zarurdir.

O'quvchining o'zligini anglash kompetensiyasini shakllantirish – bu uzoq davom etuvchi, murakkab, ammo sarmahsul jarayon. Bu yo'lda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari asosiy ustun bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim tizimi bu qadriyatlarni yosh ongiga singdirsa, natijada ongli, ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli avlod shakllanadi. Har bir o'qituvchi, har bir ota-ona bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi zarur.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6199-son "Ma'naviyatni yuksaltirish va ma'rifat targ'ibotini kuchaytirish to'g'risida"gi farmoni.
2. "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi".
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. To'xtasinov A. Milliy g'urur va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi metodik qo'llanmalari, 2021-2023.

OILAVIY QADRIYATLARGA TAYANGAN HOLDA O'QUVCHI-YOSHLARDA VATANPARVARLIK HISSIYOTINI TARBIYALASH

Fazilov Djamoliddin Kamolitdinovich, Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari nomzodi

Azaldan barchamizga ayonki o'zbek oilalari tom ma'noda tarbiya o'chog'i bo'lgan. Har bir farzand oilada tug'ilishi bilan uning ongiga oilaviy qadriyatlar, oila sha'ni va qadrini himoya qilish, oilaning azaliy udumlariga rioya etish, oilada kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, oilada mehmon kutish va mehmondorchilikka borganda o'zini tutish va shu kabi bir qator tarbiya elementlari singdirib boriladi. Ma'lumki, o'zbek oilasi o'zida millatimizga xos ko'p asrlik ma'naviy qadriyat va an'alarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy merosimizni saqlab keladi.

Oilada shakllangan o'zbek millatiga xos bo'lgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuyg'ular nafaqat tarbiya vazifasini o'taydi, balki insoniy qadriyatlar va fazilatlarning namoyon bo'lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da, buyuk ajdodlarimiz – Alisher Navoiy Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o'rinni egallagan.

Oilada ota-onaning tinch-totuvligi va o'zaro mehr-muhabbati, unyoqarashi, ma'naviy saviyasi, qiziqishi, e'tiqodi, jamiyatdagi mavqei, husn-latofati farzand tarbiyasiga ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazadi. Bunday oilada tarbiyalangan farzandlar go'zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag'ri butun, hayotga qiziquvchan, xotirjam, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo'lib o'sadilar. Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Jumladan, yoshlar kattalardan suvga tupurma, nonning uvog'i ham non, yoshi ulug'larning yo'lini kesib o'tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo'lma kabi nasihatlarini eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar.

Barchaga ayonki yoshlarimiz bizning kelajagimiz, ular jamiyatimiz yetakchisi va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Ushbu yoshlarimizni oilada va jamiyatda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa bugungi kunning dolzab vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shiddat bilan o'zgarayotgan jamiyatda mintaqalar va davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularda shaxsiy mas'uliyat hissi

va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini, faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodini shakllantirishda oilaning o'rni beqiyosdir.

Oilaviy qadriyatlardan umunli foydalangan holda yoshlarimizdagi yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni hosil qilish, Ona-yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishimizni taqozo qilmoqda. Xususan, yoshlarni oilada vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa, bular orasida muhim o'rin tutadi. O'sib kelayotgan yosh avlod ongida ushbu fazilatlarini rivojlantirish birinchi o'rinda insonning Vatan oldidagi burchini his etishini, uning manfaatlarini himoya qilishda shaxsiy jonbozlik, fidoyilik ko'rsatishini, kerak bo'lsa qahramonlikka tayyorligini anglatrsa, ikkinchi o'rinda o'z oilasi va xalqini, atrofdagilarini himoya qilishdek sharaflı burchni ado etishida unga ruhiy tinchlantirish tuyg'usini shakllantiradi. Shu bilan birgalikda har bir oilada o'sib kelayotgan yosh avlodda Vatanni asrashda zarur bo'ladigan yuqori mudofaa hissini, siyosiy, axloqiy, psixologik sifatlarni rivojlantirish, ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga qaratilgan davlat va nodavlat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Ayniqsa, oxirgi yillarda yoshlarimiz qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar, o'zlarining vatanparvarligi, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishi, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lish, jonkuyar, halol, o'z kasbiga sadoqatli bo'lish kabi xislatlarini namoyon qilishmoqda.

Xotima o'rnida shun ta'kidlab aytish lozim-ki, yoshlarimizni oilada vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan holda ularni O'zbekiston Respublikasi, uning o'z xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash; yuksak vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish, ularni oiladan boshlab faol hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodini, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatini kuchaytirish; yoshlarni turli ko'rinishdagi axborot-psixologik hurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash; oilaviy qadriyatlar va buyuk ajdodlarimizning ma'naviy va ilimiy merosini asrab avaylash va undan unumli foydalanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish; farzandlarimizga buyuk tariximiz, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini chuqur tushuntirish; yoshlarimiz qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligi va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shish tushunchalarini yetkazish har bir oilada amalga oshirilishi va ota-onaning kundalik vazifasi ekanligini to'g'ri anglab yetishi zamon talabi hisoblanadi.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA'LIM METODIKALARI VOSITASIDA O'SMIRLARDA VATANPARVARLIK VA MAS'ULIYATLI QAROR QABUL QILISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Xakimova B.M., Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) metodikalari vositasida o'smirlarda vatanparvarlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. SELning besh asosiy kompetensiyasi bilan vatanparvarlik qadriyatlari o'zaro uyg'unligi ko'rsatilib, ta'lim jarayonida ularni integratsiya qilish yo'llari tahlil etilgan. Maqolada milliy qadriyatlarga asoslangan SEL faoliyati orqali o'smirlarning emotsional barqarorligi, faol fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy mas'uliyatini oshirish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-emotsional ta'lim, vatanparvarlik, mas'uliyatli qaror qabul qilish, o'smir, kompetensiya, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В статье раскрыты теоретические и практические основы развития патриотизма и компетенции ответственного принятия решений у подростков посредством методик социально-эмоционального обучения (SEL). Показана взаимосвязь между базовыми компетенциями SEL и ценностями патриотизма, определены пути интеграции этих идей в образовательный процесс. Автор предлагает педагогические механизмы формирования у подростков гражданской активности и моральной ответственности на основе национальных ценностей.

Ключевые слова: социально-эмоциональное обучение, патриотизм, ответственное принятие решений, подросток, компетенция, национальные ценности.

Abstract. This article explores the theoretical and practical foundations of developing patriotism and responsible decision-making competencies among adolescents through Social and Emotional Learning (SEL) methodologies. The paper highlights the interrelation between SEL's core competencies and patriotic values, emphasizing their integration within the educational process. The author proposes pedagogical mechanisms for fostering emotional stability, civic engagement, and moral responsibility among adolescents grounded in national values.

Key words: social and Emotional Learning, patriotism, responsible decision-making, adolescence, competence, national values.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida o'smir yoshdagi

o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash milliy ta'lim siyosatida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'z navbatida, yoshlarning vatanparvarlik ruhida, ijtimoiy faol, mas'uliyatli qaror qabul qila oladigan fuqarolar sifatida shakllanishi jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining asosiy garovidir.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Chunki u shaxsda o'zini anglash, his-tuyg'ularni boshqarish, ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) konsepsiyasiga ko'ra, SEL beshta asosiy kompetensiyani o'z ichiga oladi:

1. O'zini anglash (Self-awareness)
2. O'zini boshqarish (Self-management)
3. Ijtimoiy ong (Social awareness)
4. Mas'uliyatli qaror qabul qilish (Responsible decision-making)
5. Munosabatlar o'rnatish ko'nikmalari (Relationship skills)

Bu kompetensiyalar o'quvchilarda nafaqat shaxsiy rivojlanishni, balki milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat va mas'uliyat hissini mustahkamlaydi. O'quvchilar o'z his-tuyg'ulari va boshqalarning ehtiyojlarini tushungan holda, vatan manfaati yo'lida ongli qarorlar qabul qilishga o'rganadilar.

Vatanparvarlikni SEL jarayoniga integratsiya qilish zarurati shundaki, vatanparvarlik – bu faqat so'z yoki shior emas, balki shaxsning o'z yurtiga muhabbati, uning taqdiri uchun javobgarlik hissi, milliy qadriyat va an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lishidir.

SEL metodikalari orqali vatanparvarlik g'oyasini amalda shakllantirish mumkin. Masalan: "O'zini anglash" kompetensiyasida o'quvchi o'z ildizi, milliy merosi va qadriyatlarini anglaydi, "Ijtimoiy ong" orqali boshqalarga hurmat va yurtdoshlarga hamdardlik hissini rivojlantiradi, "Mas'uliyatli qaror qabul qilish" orqali esa o'quvchi o'z xatti-harakatlarining nafaqat shaxsiy, balki milliy ahamiyatga egaligini tushunadi.

Shu jihatdan, vatanparvarlik g'oyasi SELning ichki mazmuniga uyg'un holda kiritilishi yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish aynan o'smir yoshdagi o'quvchilarda tarbiyaviy ahamiyatga ega chunki, o'smir yosh – shaxsning emotsional barqarorligi, xarakter shakllanishi va mustaqil fikrga ega bo'lish jarayoni kechadigan muhim bosqichdir. Bu davrda qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirish yoshlarning turli hayotiy vaziyatlarda ongli, adolatli va vatan manfaatiga mos qaror qabul qilishini ta'minlaydi.

SEL metodikalari, xususan, ssenariyli o'yinlar, rolli mashg'ulotlar, jamoaviy muhokama va refleksiya usullari yoshlarda voqealarga tanqidiy yondashish,

oqibatni baholash va mas'uliyat hissini oshiradi.

Umumiy qilib olganda Vatanparvarlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarining o'zaro bog'liq. Ushbu ikki kompetensiya bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi jarayondir. Vatanparvar shaxs: jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yadi; qaror qabul qilishda milliy qadriyatlar va qonun ustuvorligini hisobga oladi; mamlakat taraqqiyotida o'z mas'uliyatini anglaydi.

Mas'uliyatli qaror qabul qilish jarayoni esa vatanparvarlikni amaliy ifodaga aylantiradi. Masalan, o'quvchi tabiatni muhofaza qilish, jamoat mulkini asrash yoki internetda milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish haqida ongli qaror qabul qilsa – bu vatanparvarlikning hayotiy ko'rinishidir.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim orqali vatanparvarlikni rivojlantirishning amaliy yo'llari 5ga bo'lishimiz mumkin. Ular:

1. Ta'lim mazmuniga integratsiya – “Tarbiya”, “Tarix”, “Ona tili va adabiyot”, “Fuqarolik jamiyati asoslari” fanlarida SEL elementlarini joriy etish.
2. Loyihaviy faoliyat – “Mening Vatanim uchun foydali ish” kabi mini-loyihalar orqali yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish.
3. Emotsional refleksiya – har bir darsda vatanga oid mavzularda hissiy fikr bildirish, ijobiy his-tuyg'ularni baham ko'rish.
4. Qahramonlik namunasi – milliy qahramonlar hayotini tahlil qilish orqali vatanparvarlik hissini kuchaytirish.
5. Modellash va debatlar – ijtimoiy masalalarda bahs orqali ongli qaror qabul qilishni o'rgatish.

Ushbu jarayonda o'qituvchining roli juda katta ahamiyatga ega, chunki o'qituvchi – SEL jarayonining asosiy yetakchisi. U nafaqat bilim, balki qadriyatlar va hissiy madaniyatni ham o'quvchilarga yetkazadi. O'qituvchi vatanparvarlikni o'z shaxsiy faoliyatida ifoda etsa, bu o'quvchilarda kuchli model ta'siri yaratadi. Shu sababli, o'qituvchilar uchun SEL metodikalari bo'yicha trening va kouching dasturlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim vositasida o'smirlarda vatanparvarlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish – bu nafaqat pedagogik, balki milliy-ma'naviy ahamiyatga ega vazifadir. U orqali yoshlar o'z his-tuyg'ulariga egalik qila oladi, jamiyatda faol fuqaro sifatida harakat qiladi va o'z yurtiga sadoqat bilan xizmat qiladi. Shuningdek, SEL milliy qadriyatlar tizimiga uyg'un holda joriy etilganda, u faqat shaxsiy rivojlanish emas, balki vatanparvarlik ongining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. CASEL. Core SEL Competencies Framework. Chicago: Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. USA: 2020.
2. UNESCO MGIEP. Social and Emotional Learning for Peace and Sustainable

Development. New Delhi: UNESCO MGIEP, 2021.

3. Elias, M.J., Weissberg, R.P. Social and Emotional Learning: Theory, Practice, and Research. New York: Teachers College Press, 2016.

4. Xakimova, B. M. SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish. – T.: Qori Niyoziy nomidagi TPML, 2024.

5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

6. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. Paris: OECD Publishing, 2018.

7. Davletshin M.G. O'smir yosh psixologiyasi va tarbiya muammolari. Toshkent: O'qituvchi, 2019.

8. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995.

9. Shamsieva M. Ta'limda ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish usullari. Toshkent: Fan, 2022.

YOSHLAR MA'NAVIYATI VA VATANPARVARLIK TUYG'USINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR OMILI

Choriyeva Dildora Ismat qizi
Qori Niyoziy nomidagi TPMI katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Globallashuv jarayonida kechayotgan voqea-hodisalarni to'g'ri talqin qila olish, har bir voqelikni milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida tahlildan o'tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa milliy g'oya va mafkuramiz mustahkam bo'lmog'i lozim. yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi.

Kalit so'zi: globallashuv, komil inson, milliy-ozodlik, mustaqillik, madaniyat, urf-odat, modernizatsiya, aqidaparastlik, ma'rifat, millat

Jamiyat ma'naviyati mamlakattaraqqiyotining muhim shartiva kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-birmamlakat o'z ma'naviyimkoniyatlariga tayanmay, odamlarongi, tafakkurida ma'naviy vaaxloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqningmilliy ruhini uyg'otmay turib,yuksak taraqqiyot darajasigako'tarila olmaydi. Ma'naviyatinsonni ruhiy poklanish vayuksalishga da'vat etadigan,uning ichki olaminiboyitadigan, iymon irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan vijdoniniuyg'otadigan qudratli kuchdir.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz birnecha bor ajnabiybosqinchilar hujumiga duchorbo'lgan, qaramlik va zulmostida qolgan. Buningoqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi,urf-odatleri qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa,chor mustamlakachiligi vasovetlar tuzimi davrida milliyqadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, oyoqosti qilindi.Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-u madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi,qarovsiz qoldi. O'zbekistonmustaqilligini qo'lga kiritgankundan boshlaboqmamlakatimizda boy ma'naviymerosimizni tiklash varivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlatsiyosati darajasiga ko'tarildi.

Bugun yurtimizda tinchlik va barqarorlik hukm surayotganiga qaramay, bundan buyon ham mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash ustivor maqsad bo'lib qolaveradi. Bu, bir tomondan, mustaqillik biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga o'zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va vatanimiz manfaati yo'lida foydalanish huquqini bergani O'zbekiston yoshlari ham ana shu oliy ne'matdan barhamand bo'layotgani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan,

mustaqillik yillarida ana shu muqaddas qadriyat va milliy an'analarga tayangan holda yashash huquqini ham berdi. Uni saqlab qolish uchun mustaqillikni asrab-avaylash kerak bo'ladi. Ma'lumki, mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Navro'z, ramazon, qurbon hayiti kabi muqaddas milliy bayramlar taqiqlangan edi. Amir Temur, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Baxouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi. Bugun mustaqillik tufayli ularning nomlari, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o'zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz.

Bugun yoshlar o'z milliy tarixini o'rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an'analarning qayta tiklanib borayotgani ularni o'zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdur. "Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'rganib qolayotgani yo'q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo'lmoqda. Xorijiy davlatlarda o'qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar"[1].

Ma'lumki, 2020 yilda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 18 million 720 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 14 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni² tashkil etgan edi.

O'z-o'zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali-beri yechilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimizning diqqat markazida turibdi.

Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek "Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatni shakllantirishda, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, boqimandalikning o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil komil insonlarni tarbiyalashdan iborat".[2]

Ma'lumki, tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglash, yonatrofga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, ushbu jarayon mutanosibligini ta'minlashda ta'lim- tarbiya ishini uyg'un tarzda olib borish lozim bo'ladi. Ta'lim orqali yoshlar haytida o'z o'rinlarini topishda ma'lum bir kasb- hunarni o'rganish bilan birga, o'zlarini bo'lajak hayotga tayyorlab boradilar.

Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida

muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, boshlovchi ahamiyatga egadir. Birinchi prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg'ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o'zida mujassam etadigan ma'naviyatni yuksaltirish asosiy va ustivor vazifalardan biriga aylandi"[3].

Jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o'z istiqboliga erisha olmaydi. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo'nalishi bo'lib qoladi",[4] deb ta'kidlaydi Birinchi prezident I.A.Karimov. Mustaqillik esa ana shu vazifani amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalq yoki millat o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lsagina, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o'z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin.

Biroq jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirmasdan haqiqiy erkinlikka erishib bo'lmaydi. Erkinlik g'oyasi va xalqning ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun yuksalishning qudratli manbai bo'lib xizmat qilgan.

Sharqda shaxs erkinligi va huquqlari, xatti-harakati, xulq-atvori, jamiyatdagi o'rni, ma'suliyatini idrok etish darajasiga baho berilganda muayyan guruh, etnos, xalq, millat, jamiyatning manfaatlari, huquqlariga alohida qadriyat va an'analardan kelib chiqqan holda yondashiladi.

Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o'ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o'ldirishga yoki zarar yetkazishga yo'l qo'ymaydi." [5] deb ta'kidlaydilar. Erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olib yuborilgan ishlar va xatti-harakatlar ahloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o'zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo'ladi. Erkinlikni to'g'ri tushunib, uni hayotimizga to'hri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne'mat-adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin.

Yoshlar dunyoqarashida milliy – ma'naviy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar :

- Yoshlar o'z dunyoqarashida milliy – ma'naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O'zining

milliy ma'naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi.

• Yoshlarning milliy- ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining hozirgi holatini o'rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko'proq qaysi qadriyatlar ustivor bo'lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularning milliy- madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodni mustahkamlashdan iborat.

• Yoshlarning milliy- ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodining mustahkam bo'lishi O'zbekiston tanlagan o'ziga hos va mos taraqqiyot yo'li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo'yadi.[6]

I.Ergashev jamiyat ma'naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini quyidagi omillarga bog'laydi :

1. Mustaqillik ulug' ne'mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etgan holda, umummaqsad yo'lida yoshlar ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini chuqur anglab, faollik ko'rsatishi ularning qalb amriga aylanishi lozim.

2. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat demokratiya hamda yoshlar dunyoqarashidagi milliy- ma'naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham uzviy bog'liq. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo'lgan qadriyatlar haqida o'z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o'zgalar fikriga tayanish, milliy- ma'naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosiy- huquqiy madaniyat yuksalib boradi.

3. Demokratik jamiyatda milliy- ma'naviy qadriyatlarni tiklashga ehtiyoj ortib, fikrlar xilma- xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o'z fikrini o'tkazish, o'zgalar fikrini bo'g'ib qo'yish hollariga barham beriladi.

4. Milliy – ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o'z erkinligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg'uga ko'proq ehtiyoj sezadigan bo'lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi.

5. Bugun rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan salbiy illatlarga barham berish imkoniyati tug'iladi.

6. Mustaqil mamlakatda har bir yoshning qaysi sog'ada ishlashidan qat'i nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o'zligini anglamog'i zarur bo'ladi. O'zlikni anglash esa ma'naviy qadriyatlarni chuqur o'rganish, asrab- avaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi.[7]

Mustaqil O'zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari taraqqiyoti davrida, asriy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to'g'ri foydalanib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini

amalga oshirishga, xalqimizning ma'nan yuksalishiga xizmat qiladi.

Xalqimiz mustaqillikning o'z hayotida va taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini tobora teranroq anglab yetmoqda. Bugun O'zbekistonda yashayotgan har bir yosh mustaqillikning bergan ne'matidan barhamand bo'lmoqda, deb ayta olamiz. Mustaqillik tufayli O'zbekiston yoshlari o'z taqdirini o'zi hal etish huquqini qo'lga kiritda. Bugun O'zbekiston birovga qaram emas, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilab, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib bormoqda. Yoshlar ko'z o'ngida iqtisodiy hayot o'zgarmoqda. Mulkning xilma- xilligiga o'tilgani har bir yoshga o'z xohishiga ko'ra iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini berdi. Bir tomonlama, rejali iqtisodiyot o'rnida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin mehnat faoliyati shakllanmoqda. Tadbirkorlik, fermerlik, kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugun O'zbekiston o'ziga qarashli bo'lgan, xalqning mehnati bilan yaratilgan boylikni o'zi o'z ixtiyori bilan tasarruf etmoqda. Unga o'zi egalik qilmoqda. Bugun izlanuvchan, tadbirkor, yangicha fikrlaydigan har bir kishining hayot tarzi ham o'zgarib borayotgani shubhasiz.

O'zbekiston respublikasi "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, milliy o'zlikni anglash bo'yicha so'ralgan 46,6 foiz yoshlar xalqning urf- odatlari va an'analariga, 28,9 foizi O'zbekistonning milliy mustaqilligiga, 28,4 foizi o'z xalqining boy tarixiga, 21,7 foizi ona tili va milliy madaniyatiga, 19,5 foizi o'z millatining ma'naviy o'ziga xosligi, 16,6 foizi o'tmish avlodlarning buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ega ekanini bildirishgan. Demak, O'zbekiston yoshlari xalqining tarixi va an'analari, milliy madaniyati, avlodlar o'rtasidagi aloqa, o'zlikni anglash va o'ziga xoslikni muhim omil sifatida baholaydi.

Mustaqillik sharoitida yoshlar o'z hayotiy tajribalarida mustaqillikning afzalligini his etib, unga ishonch bildirmoqda. Mustaqillik milliy o'zlikni anglashning muhim sharti sifatida qadrlanmoqda hamda o'zligini namoyon etish omili sifatida baholanmoqda. Masalan, respublikamizda yashayotgan axolining 20-24 yoshdagilarining 30,6 foizi, o'zbeklarning 30,3 foizi, markaziy osiyo xalqlari vakillarining 32,4 foizi, to'liqsiz o'rta ma'lumotlilarning 30,1 foizi milliy o'z- o'zini anglashni O'zbekistonning milliy mustaqilligi bilan bog'lab, uni muhim omil deb biladi.

Jamiyatda yoshlar tarbiyasi muammolari har doim kunning birinchi darajali mavzularidan biri bo'lib kelgan. Ayni paytda, dunyoda globallashuv jarayoni tezlashmoqda. Dunyo xalqlari, davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaymoqda. O'zbekiston ham undan chetda turgani yo'q. Turli xalqlarga xos bo'lgan qadriyatlar O'zbekiston yoshlari hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday muhit xalqaro axborot tizimi, internet, OAV, reklama, turli xil kino

ko'rsatuvlari bilan bog'liq asarlar yoshlar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishi, turli xil qadriyatlarning kirib kelishiga sharoit hozirlaydi.

Uning qaysi jihatlaridan foydalanish yoki foydalanmaslikni yoshlar yaxshi bilishlari lozim. Qadriyatlarni bir-biridan farqlash, milliy qadriyatlarni yo'qotmagan holda munosabatda bo'lishlari muhimdir.

Ijtimoiy hayotda, ayrim yoshlarning xatti-harakatlarida milliy qadriyatlarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan holatlarni kuzatish mumkin. Ayrim yoshlarning diniy ekstremizm, aqidaparastlik g'oyalarining tarafdori bo'lib sodir etgan qilmishlari bilan milliy qadriyatlarimiz o'rtasida o'zaro to'g'ri kelmaydigan holatlarni kuzatish mumkin. Toshkent, Buxoro, Andijonda bo'lib o'tgan voqealar oldimizda yoshlar dunyoqarashiga milliy qadriyatlarimizni singdirish va unga sodiq qilib tarbiyalash kabi muhim vazifalar turganini ko'rsatadi. Aksariyat yoshlarimiz esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan o'zlarining to'g'ri munosabatlarini shakllantirgan. Qadriyatlarni targ'ib etadigan urinishlarga, xususan, aqidaparastlikka nisbatan o'zlarining salbiy munosabatlarini bildirishlarini yuksak baholash lozim. Bugun jahon axborot maydonida yoshlarni milliy qadriyatlarga qarshi tarbiyalashga urinish kuchaymoqda. Qadriyatlarga munosabatni o'zgartirmasdan demokratik jamiyat qurib bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlar ostida qanday yashirin maqsadlar yotgani tobora ayon bo'layotir. Bunday harakatlar yoshlarni o'z xalqi, vatani va milliy qadriyatlarga nibatan bepisand ruhda tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, ularda ko'proq g'arbona qadriyatlarga moyillikni uyg'otishga bo'lgan yashirin maqsadlar mujassam bo'ladi.

Yoshlar hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni muhim; milliy qadriyatlarni yaxshi bilmagan yoshlarning xatti-harakatlarida nosog'lom aqidaparastlik holatlari tezroq joy oladi. Mustaqillik yangi qadriyatlar tizimiga, milliy-madaniy meros va an'analarga tayanish orqali yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri baholashlari yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Mustaqillik yoshlar hayotida yangi davrni belgilab berdi va yoshlarning buni chuqur his etishlari maqsadga muvofiqdir. Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad ularni faqat o'z qadriyatlariga tayanib yashashga o'rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o'zlashtirib, mamlakatning o'ziga hos taraqqiyoti unga bog'liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da'vat etishdir.

Bundan tashqari, milliy-ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu mamlakatning istiqboldagi rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillik sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zining haqqoniy mazmuniga ega bo'lmoqda. Yoshlarning u to'g'risidagi qarashlari va munosabatlari ham o'zgarib borib, milliy-ma'naviy qadriyatlarga

umuminsoniy qadriyatning negizi sifatida qaralayotgani muhim yutiqdır.

Hozirgi davrda qo'lga kiritilgan muhim yutiqlarimizdan biri ta'lim- tarbiyada milliy, ma'naviy qadriyatlarning ustivorligiga erishganimizdadir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an'analari asosida ta'lim-tarbiya berish demakdir. Zero Abdulla Avloniy aytganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir".[8] Globallashuv jarayonida kechayotgan voqea- hodisalarni to'g'ri talqin qila olish, har bir voqelikni milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida tahlildan o'tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa milliy g'oya va mafkuramiz mustahkam bo'lmog'i lozim.

XULOSA

Zero, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda milliy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har omonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizimini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi globallashuv sharoitida, bir tomondan, milliy qadriyatga, ikkinchi tomondan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy- huquqiy yangilish jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbek xalqining ibratnomuz, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda katta ta'sir eta oladigan urf-odatlar, an'analari, rasm-rusumlari va marosimlari borki, ularni bugungi kunda oilada balalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma'naviy taxdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishdag muxim vazifalarimizdan biri xisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 2019 O'zbekiston
2. Karimov I.A. bizkelajagimizni o'z qo'limiz bilanquramiz.7- jild. –T.: "O'zbekiston", 1999. 304-bet
3. Karimov I.A. biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7- jild. –T.: "O'zbekiston", 1999. 306-bet.
4. Karimov I.A. Vatanmiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish- oliy saodatdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. 38-bet.
5. Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va

kelajagi farovon bo'ladi" O'zbekiston 2019

6. Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: "Akademiya", 2020. 15-16-betlar.

7. Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: "Akademiya", 2020. 15-bet.

8. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: "Akademiya", 2020. 5-bet.

6. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2019.

7. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020.